

794.3(015)

R-47

Gulchehra RIXSIYEVA

Mehribon ABDURAXMANOVA

O'ZBEK TILI

Xorijliklar uchun



494.3(075)

R-47

UO'K: 811.512.133

KBK: 81.20'zb

R 59

R 59 Rixsiyeva, Gulchehra.

O'zbek tili [Matn]: xorijliklar uchun intensiv kurs / Gulchehra Rixsiyeva, Mehribon Abduraxmanova. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 224 b.

ISBN 978-9943-6499-3-4

UO'K: 811.512.133

KBK: 81.20'zb

Ushbu o'quv qo'llanma o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchilarga mo'ljallangan bo'lib, o'zbek tilini intensiv ravishda o'rgatishga moslashtirilgan.

This handbook is designed for foreigners who are learning Uzbek as a foreign language, adapted to teach this language with an intensive way.

Taqrizchilar:

Normatova Shoira Umarovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Sodiqova Shirin Baxtiyorovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ushbu o'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. (2020.19.05. №1)

ISBN 978-9943-6499-3-4

© Gulchehra Rixsiyeva,

Mehribon Abduraxmanova

«O'zbek tili: xorijliklar uchun intensiv kurs»

© «Akademnashr», 2020

677148

TIQXMMI

RESURSES MARKAZI

MIY KUTUBXONA

KIRISH

Ushbu o'quv qo'llanma o'zbek tilini zamonaviy uslubda intensiv o'rgatishga mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma bilan ishlashda mualliflarning quyidagi tavsiyalariga diqqat qaratish maqsadga muvofiq:

➤ To'g'ri talaffuz qilishni o'rgatishga mo'ljallangan so'z va birikmalar dialog va grammatik mashqlarda ishlatilgan leksik materiallardan olingan. Talaba ularni to'g'ri talaffuz qilish bilan bir qatorda lug'at bilan ishlab, ma'nosini tushunib olishi kerak.

➤ Tilni chet tili sifatida o'qitish kommunikativ usulda amalga oshiriladi, shu maqsadda mavzularni tushuntirish dialog bilan ishlashdan boshlanadi.

➤ Grammatik materiallar grammatik qurilmalar shaklida berilgan bo'lib, soddadan murakkabga qarab joylashtirilgan, misollar keltirilgan. Namuna sifatida ba'zi gaplar tarjimasi berilgan. Murakkab holatlar izohlangan. Grammatik qurilmalarning uslubiy qo'llanishi va farqlari batafsil tushuntirilishi maqsadga muvofiq. Agar boshlang'ich bosqichda turli sinonimik holatlar yoki grammatik shakllarning uslubiy qo'llanishini o'zlashtirish qiyinchilik tug'dirsa, talabaning til o'rganishga qiziqishi pasayib ketishi mumkin. Demak, o'qituvchi guruhning layoqati va kursning intensivligiga qarab grammatik materialni tanlashi kerak. Masalan, «Qarashlilik ma'nosining ifodalanishi» mavzusi o'tilganda boshlang'ich bosqichda «...egaman», «menga ...tegishli» kabi gap qurilmalariga to'xtalmaslik mumkin.

➤ Qo'shimcha grammatik materiallar (masalan, olmosh, undov, taqlid so'zlar va b.) maxsus ilovada berilgan. Ularning ingliz tilidagi muqobil variantlari ham keltirilgan. Zarur vaziyatlarda o'qituvchi ularga murojaat qilishi yoki mavzularni o'tib bo'lgandan keyin batafsil tushuntirishi mumkin. Bu esa bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

➤ Grammatik qurilmalarni to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida berilgan mashqlardan o'qituvchi talabaning til bilish darajasiga muvofiq maqsadli foydalanishi kerak. Tilni boshlang'ich bosqichda o'rgatishda grammatik shakllarni qo'llash uchun ma'lum qoidalar yaratish zarur deb hisobladik. Masalan, o'tgan zamon shaklining *-di* va *-gan* qo'shimchalarini to'g'ri qo'llash chet ellik talabalar uchun qiyinchilik tug'diradi. Ma'lum ko'nikma hosil qilgunga qadar ularni qo'llashda aniq cheklanishning berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, gapda payt ravishi, ravishdoshi, payt ma'nosidagi so'zlar ishtirok etganda hamda aniq vaqt nazarda tutilganda *-di* shakli qo'llaniladi: *Ertalab choy ichdim*. Boshqa holatlarga (*Ertalab choy ichganman*, *Ertalab choy ichgan edim* kabi) esa bu bosqichda chuqur to'xtalmaslik mumkin. Mashqlar aynan shu qoidaga mos tuzilgan.

➤ Talabada ma'lum nutqiy ko'nikmalar shakllangandan keyin o'qish uchun berilgan matnlar ustida ishlash bosqichiga o'tiladi. O'qish uchun materiallar nafaqat mualliflar tomonidan tuzilgan matnlardan, balki mashhur o'zbek adiblari asarlaridan olingan parchalardan iborat bo'lib, ular xorijiy talabalar uchun moslashtirilgan.

Demak, til o'rganishning to'rt aspekti – *o'qish, yozish, tinglash, gapirish* ushbu intensiv kurs doirasida qamrab olingan bo'lib, bu jarayon quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. Yangi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va ma'nosini bilib olish.
2. Dialog-suhbatlarni o'qib, ularda qo'llangan grammatik qurilmalarni jadvallarda berilgan grammatik materiallar yordamida o'zlashtirish.

3. Grammatikaga oid topshiriq va mashqlarni bajarish.

4. Matnni o'qish va so'zlab berish.

Kitobda mustaqil o'qish uchun she'rlar, maqol va topishmoqlar berilgan bo'lib, ular xorijlik talabalarga o'zbek milliy qadriyatlari haqida tushuncha hosil qilishga yordam beradi.

INTRODUCTION

This textbook is designed for intensive teaching of the Uzbek language in a modern style.

It is advisable to pay attention to the following recommendations of the authors when working with the textbook:

➤ The words and phrases given to teach correct pronunciation are taken from the lexical material used in dialogue and grammar exercises. The student should be able to pronounce them correctly, work with a dictionary and understand their meaning.

➤ Teaching language as a foreign language is carried out in a communicative way, for which purpose the explanation of topics begins with dialogue.

➤ Grammar materials are presented in the form of devices, from simple to complex, with examples. There is given the translation of some sentences as a sample. Complex cases are explained. It is useful to explain in detail the methodological uses and differences of grammatical devices. If at the initial stage it is difficult to master the methodological use of different synonymous situations or grammatical forms, the student's interest in learning the language may decrease. This means that the teacher has to choose the grammar material depending on the ability of the group and the intensity of the course. For example, when it comes to «*Expressing the meaning of affiliation*», it is possible not to dwell on such devices as «I own» and «...belong to me» in the beginning.

➤ Additional grammatical materials (e.g., pronouns, rhymes, imitative words, etc.) are given in a special appendix. Alternative versions of them in English are also given. If necessary, the teacher can refer to them or explain the topics in detail after passing. This helps to consolidate knowledge.

➤ In order to develop the skills of using grammatical devices correctly, the teacher should use the given exercises in accordance with the student's level of language proficiency. It is worth noting

that we considered it necessary to create certain rules for the use of grammatical forms in the teaching of the language at an early stage. For example, the correct use of the past tense suffixes *-di* and *-gan* is difficult for international students. It is advisable to set clear limits on their use until you have developed a certain skill to Uzbek. For example, the form *-di* is used when a sentence has an adverb of time, a participle, words in the meaning of time and a definite tense: *Ertalab choy ichdim*. In other cases (like *Ertalab choy ichganman*, *Ertalab choy ichgan edim*) it is possible not to dwell on this stage. The exercises are structured according to this rule.

➤ Once the student has developed certain speaking skills, he or she will move on to work on the texts provided for reading. The reading materials are not only texts written by the authors, but also excerpts from the works of famous Uzbek writers, which are adapted for foreign students.

So, the four aspects of language learning – *reading, writing, listening, speaking* – are covered in this intensive course, which is done in the following sequences:

1. Pronouncing new words correctly and learning their meaning;
2. Reading the dialogues and mastering the grammatical devices used in them with the help of grammatical materials given in the tables;
3. Performing grammar exercises;
4. Reading and reciting the text.

The book contains proverbs, riddles from Uzbek poetry for independent reading, which will help foreign students gain an understanding of Uzbek national values.

O'ZBEK ALIFBOSI

A a	Q q
B b	R r
D d	S s
E e	T t
F f	U u
G g	V v
H h	X x
I i	Y y
J j	Z z
K k	O' o'
L l	G' g'
M m	Sh sh
N n	Ch ch
O o	ng
P p	' (tutuq belgisi)

1-mavzu: SHAXS VA NARSANI IFODALASH

Theme 1. EXPRESSING PERSON AND THINGS

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

men, salom, assalomu alaykum, xayr, o'qituvchi, siz, kim, ular, talaba, rassom, yoki, biz, emas, ishchi, ofis, xodim, qayerlik, shifokor, sotuvchi, hamshira, xursand, kasal, juda, mazali, o'quvchi, ovqat, yaxshi, rahbar, toshkentlik, meva, arzon, ochiq, yopiq, issiq, toza, sovuq, katta, do'kon, non, havo, xona, kitob, deraza, suv, kecha, band, qiziqarli, yo'q, rahmat, kechirmoq, ham, lekin, o'zbekistonlik, koreyalik, ism, tanishmoq, bu, do'st, dars, shaharlik, navbatchi, tibbiyot, institut, hozir, pedagogika, universitet, iqtisodchi, iqtisodiyot, hamkasb, chet ellik, milliy, kuchli, o'zbek, o'zbekcha, tanishmoq, yosh, o'tmoq, yil, kurs, mayli, ko'rishmoq, ko'ylak, yumshoq, shim, tor, kuchli, tadqiqotchi, bo'sh, yoqimli, tiniq, moviy, tong, salqin, biroz, kunduzi, barg, manzara, kutubxona, kutubxonachi, haqida.



Suhbatni o'qing.

Nodir: Salom, yaxshimisiz? Men Nodirman.

Ji In: Yaxshimisiz, rahmat. Tanishganimdan xursandman. Men Ji Inman.

Nodir: Juda xursandman, Ji In, qayerliksiz?

Ji In: Men koreyalikman, Seuldanman. Siz-chi?

Nodir: Men esa o'zbekistonlikman. Buxorodanman. Men talabaman. Siz-chi? Siz ham talabamisiz?

Ji In: Yo'q, men talaba emasman, o'qituvchiman.

Nodir: Juda yoshsiz.

Ji In: Ha, yosh o'qituvchiman.

Nodir: Juda yaxshi.

Grammatik qurilmalar

Grammatik materiallar	Misollar
Ko'rsatish va so'roq olmoshlari yordamida <i>By means of demonstrative and interrogative pronouns</i>	
Bu Shu U O'sha Mana Ana Mana bu Ana u Kim? Nima? Qayer?	Bu nima? U nima? Bu kim? U kim? Mana bu nima? Ana u kim? Bu gul. Bu o'quvchi, u talaba. U gul juda chiroyli. Mana kitob. Bu kitob qiziqarli. Ana u bola kim?

Kishilik olmoshi va bog'lamalar yordamida <i>By means of personal pronoun and linking words</i>			
Men	KIM? QANDAY? NECHANCHI? QAYERLIK? [emas] // <i>WHO? HOW? WHICH?</i> <i>WHERE ARE YOU</i> <i>FROM? [negative]</i>	-man	Men o'qituvchiman.
Sen		-san	Sen o'quvchisan.
U		-(dir)	Men o'qituvchi emasman.
Biz		-miz	Siz kimsiz?
Siz		-siz	Biz o'zbekistonlikmiz.
Ular		-lar	U talaba emas.
			Men yaxshiman.
			Sen yoshsan.
			U ikkinchi.

-mi so'roq yuklamasi // <i>Interrogative suffix -mi</i>				
KIM? [emas]	-man	-miz	-mi	O'qituvchiman mi ? O'qituvchisiz mi ? // O'qituvchimisiz? <i>(in an informal style)</i> U o'qituvchimi, o'qituvchi emas mi ? Ular o'qituvchi emaslar , ular ko'ngillilar.
	-san	-siz		
	–	-lar		

Men	Biz	KIM? [emas]	edi	-m	-k	Men talaba edim . Sen 5 yil oldin talaba eding . U ilgari talaba edi . Biz talaba edik . <i>(So, we are not students now.)</i> Siz yaxshi talaba edingiz . <i>(So, now he's not a student or he's not a good student.)</i> Ular talaba edilar . Kecha havo sovuq emas edi .
Sen	Siz			-ng	-ngiz	
U	Ular			–	-lar	

-lar ko'plik qo'shimchasi // <i>Plural suffix -lar</i>		
OT, OLMOSH // <i>NOUN, PRONOUN</i>	-lar	Gullar (ya'ni 2, 3... ta gul) Talabalar (ya'ni 2, 3... nafar talaba) Ular, bular, kimlar?
		Ona+ m +lar, aka+ ng +lar ¹

¹ **NOTE:** The plural suffix -lar in Uzbek can be used to express respect besides the plurality of things: dadamlar (my father), oyinglar (your mother). Then, possessive affixes are placed before the plural suffix in the first and second person, but they are placed after the plural suffix in the third person). Dadalari (his/her father)

Aka + -lar + -im // «my brothers» (many)

Aka + -m + lar («my brother»– one brother, in the sense of respect)



Mashqlar

1.1. Nuqtalar o'rniga mos qo'shimchani qo'ying.

1. Men o'qituvchi... 2. Siz kim...? 3. Ular talaba... 4. Siz rassom...
mi yoki o'qituvchi...mi? 5. Biz o'quvchi emas..., biz talaba... 6. Sen
ishchimi... yoki idora xodimimi...? 7. Siz qayerlik...? 8. U shifokor...
9. Men sotuvchi emas..., shifokor... 10. Ular hamshira...

1.2. Quyidagi gaplarning o'tgan zamon shaklini yasang.

Namuna: Bugun havo juda sovuq – Kecha havo juda sovuq edi.

1. Men talabaman. Siz hamshirasizmi?
2. Biz xursandmiz.
3. U kasal.
4. Ular o'qituvchilar.
5. Juda mazali.
6. Sen o'quvchisan.

1.3. Gaplarni bo'lishsizlik shakliga aylantiring.

Namuna: Bugun havo sovuq – Bugun havo sovuq emas.

1. Men talabaman.
2. Siz o'qituvchisizmi?
3. Biz talaba edik.
4. Ovqat mazali.
5. Ovqat mazali edi.
6. U yaxshi rahbar.
7. Siz toshkentlikmisiz?
8. Meva juda arzon edi.

1.4. Qanday? Mos so'zni tanlang .

Ochiq, yopiq, issiq, arzon, toza, yaxshi, sovuq, katta

Do'kon..., non..., meva..., havo..., xona..., kitob..., deraza..., suv...

1.5. Namunada berilganidek dialog tuzing.

Namuna: 1. Kitob (qiziqarli)

– Bu nima? – Bu kitob. – Bu kitob qiziqarlimi? – Yo‘q, bu kitob zerikarli.

Meva (qimmat), ovqat (mazali), lug‘at (yaxshi), suv (gazsiz), choy (sovuq), ko‘ylak (uzun), non (yumshoq), xurmo (shirin), shim (tor).

1.6. Xatolarni tuzating.

1. Kecha havo sovuq.
2. Men talaba emas.
3. Biz kecha juda bandmiz.
4. Siz talabami?
5. Yo‘q, bu kitob qiziqarli yo‘q.
6. Men shifokorlar.
7. U o‘qituvchi emassan.
8. Siz toshkentlikmi?

1.7. Dialogni to‘ldiring.

- Salom, yaxshimisiz?
- Salom, rahmat, ... O‘zingiz-chi?
- ..., kechirasiz, siz...?
- Men Alisherman. Men talaba... Siz ham talabamisiz?
- Ha, men ham ..., lekin men o‘zbekistonlik ...
- ...?
- Men koreyalikman. Ismim Shin Mi.
- Tanishganimdan ...
- ...

1.8. To‘g‘rimi yoki noto‘g‘rimi?

Namuna: Siz kim? – noto‘g‘ri (Siz kimsiz?)

1. U o‘zbekistonlikmi?
2. Kecha bu xona juda toza.

3. Biz juda yaxshi do'st edik.
4. Kecha dars juda qiziqarli edik.
5. Sen ham talabami?
6. Men bu shaharlik emasman.
7. Biz kecha navbatchi edimiz.
8. Kecha havo ancha sovuq.

1.9. Gaplarni davom ettiring: U kim?

1. Men tibbiyot instituti talabasi edim. Hozir men...
2. Men pedagogika universiteti talabasi edim. Hozir men ...
3. Nodira ham, Aziz ham iqtisodchi. Ular...
4. Nodir iqtisodiyot universiteti talabasi edi. Hozir u ...
5. Men koreyalikman, u ham o'zbekistonlik emas. Biz ...
6. Mening ukam O'zbekiston Milliy universitetida o'qiydi. U ...

1.10. Quyida berilgan so'zlar yordamida gap tuzing.

Namuna: *issiq, havo, edi, kecha.* – *Kecha havo issiq edi.*

1. edi, biz, talaba.
2. kuchli, ular, talaba, juda – ...
3. emas men o'zbek – ...
4. edi, emas, sovuq, xona, bu – ...
5. qayerlik, siz – ...
6. emas, men, Aziz – ...
7. -mi, edi, kasal, siz – ...
8. xursand, biz, juda – ...



Matnni o'qing. Yangi so'zlarni daftaringizga yozib oling.

Assalomu alaykum! Yaxshimisiz? Mening ismim Ryutaro Sayeki. Men yaponiyalikman. Yoshim 25 da. Men Hosey universitetidanman. Hozir Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida tadqiqotchiman. Hozir Toshkentda yashayapman. Har kuni darslarim ko'p.

Juda bandman. Kecha dars yo'q edi. Men bo'sh edim. Kecha havo juda issiq edi. O'zbekistonda havo juda yaxshi. Kuz fasli chiroyli. Havo juda sovuq emas. Har kuni sayr qilish juda yoqimli. Bugun havo ochiq, osmon juda tiniq, toza, moviy. Lekin tongda va kecha-si biroz salqin, kunduzi issiq. Hozir barglar sap-sariq. Bu manzara juda chiroyli. Toshkentda daraxt juda ko'p. Bugun ham quyoshli kun, lekin havo issiq emas.

Men bu shaharda juda xursand bo'lib yuribman.

Savollarga javob bering:

1. Ryutaro Sayeki qayerlik?
2. U talabami?
3. Bugun havo qanday?
4. Ryutaro har kuni juda bandmi?
5. U hozir ko'chadami?
6. Ryutaro xursandmi?

Bilib qo'ygan yaxshi!

O'zbeklar salomlashib, hol-ahvol so'raganda «Yaxshimisiz?» degan savolga betob bo'lsalar ham, muammolari bo'lsa ham hamisha «Rahmat, yaxshi» deb javob beradilar. Salomlashib bo'lgandan keyin suhbat davomida muammolar haqida gapiriladi. Salomlashganda «yaxshimisiz»ga javoban «yo'q, yomonman» deyish odobdan emas.

2-mavzu: QARASHLILIK MA'NOSINING IFODALANISHI

Theme 2: EXPRESSING POSSESSIVE CASE

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

uy, lug'at, savol, bet, guruh, aka, uka, mavzu, kalit, ovoz, so'z, ma'no, vazifa, qalam, oila, kasb, vaqt, sumka, shahar, aqlli, ki-yim, eshik, aeroport, bahor, shamol, oy, ko'cha, jihoz, bor, ko'p, stol, daftar, qizlar, yorug', pul, opa, ish, kerak, keng, chiroyli, kuz, mashina, qo'shni, yoz, ta'til, inson, huquq, do'kon, taom, bay-ram, sen, eski, telefon, o'g'il, taroq, etik, o'rin, yarim, qopqoq, danak, og'iz, avzo, o'rtoq, axborot, hurmat, ega, ahamiyat, hech qanday, ma'lumot, ilgari, tashkilot, kuch, fikr, g'oya, tegishli, re-surs, aholi, yetarli, taklif, qanday, jahon, til, ham, ota, ona, uy bekasi, bosh, kam, farg'onalik, singil, texnika, faol, yaqin, tanaf-fus, bo'sh, kutubxona, qayer, oshxona, yonida, ana, o'sha, bino, koreyscha, lug'at, ustoz, ikki, demak, tadqiqotchi, kafedra, shu, yapon, dushanba, payshanba, nechanchi, ertaga.



Suhbatni o'qing.

Ji In: Salom, Nodir, yaxshimisiz?

Nodir: Assalomu alaykum, yaxshimisiz?

Ji In: Yaxshi, rahmat. Nodir, darsingiz bormi?

Nodir: Hozir katta tanaffus. Men bo'shman.

Ji In: Juda yaxshi. Universitetning kutubxonasi qayerda?

Nodir: Oshxonamizning yonida. Ana u bino kutubxona.

Ji In: Katta rahmat. Kutubxonada koreyscha-o'zbekcha lug'at bormi?

Nodir: Ha, juda yaxshi lug'atlar bor. Siz koreys tili o'qituvchisimisiz?

Ji In: Ha, men koreys tili o'qituvchisiman.

Grammatik qurilmalar

Egalik qo'shimchasi yordamida // By means of a possessive suffix ²					
-(i)m	-(i)miz	oilam // my family	kito- bim	oilamiz // our family	kitobimiz
-(i)ng	-(i)ngiz	oilang // your family	kito- bing	oilangiz // your family	kitobingiz
-(s)i³	-lari	oilasi // her/his/ its family	kitobi	oilalari // their family	kitoblari

² NOTE: When possessive affixes are added to some words, change of a sound occurs in the base or affix of a word. A sound is omitted: o'gil+im=o'g'lim, ko'ngil+i=ko'ngli, singil+im=singlim, shahar+i=shahri, o'rin+i=o'rni, og'iz+i=og'zi, burun+i=burni, qorin+i=qorni kabi // my son, my soul, my sister, my city, my place, my mouth, my nose, my stomach and so on.

A sound is changed: o'rtoq+i=o'rtoq'i, yurak+i=yuragi (in words ending with k and q).

!!! huquq, ittifoq, idrok, ravnaq, ishtiyoq, ishtirok, axloq, xalq, ko'rk + i = huquqim, idrokim, xalqim, axloqim...

A sound is added: In words PARVO (attention), OBRO' (esteem), MAVQE (position), MAVZU (topic, theme), AVZO (mood) when possessive affixes are added in the first and second person, a sound y is added and written like this: parvoyim (my attention), parvoying (your attention), parvoyimiz (our attention), parvoyingiz (your attention), obro'yim (my esteem), obro'ying (your esteem), obro'yimiz (our esteem), obro'yingiz (your esteem) and so on; the third person possessive affix is suffix -yi in words parvo (attention), avzo (mood), obro' (esteem), mavqe (position), but in words xudo (god), mavzu (theme) it is suffix -si: avzoyi (his/her mood), mavzusi (her/his/its theme) (and it is suffix -si to the word dohiy ending in a consonant y in the third person: like dohiysi (his/her leader).

³ NOTE: Possessive affixes are added to some words twice: singil+i+si=singlisi (her/his sister), yarim+i+si=yarmisi (her/his/its half).

-ning qaratqich kelishigi yordamida // *By means of possessive suffix -ning*

OT, OLMOSH // <i>NOUN, PRONOUN</i>	-ning⁴	OT	-(i)m	-(i)miz	O'zbekiston ning aholisi // <i>population of Uzbekistan</i> uning daftari // <i>her/his note-book</i> mening do'stim // <i>my friend</i> sizning uyingiz // <i>your home</i> bizning dars ⁵ // <i>our lesson</i>
			-(i)ng	-(i)ngiz	
			-(s)i	-lari	

• mavhum ot // <i>abstract noun</i> • fasl va oy nomlari // <i>names of months and seasons</i> • noaniq ot // <i>indefinite noun</i> • joy nomi // <i>name of place</i>	(-ning)	OT	-(s)i	-lari	baxt qushi // <i>a bird of happiness</i> kuz yomg'iri // <i>autumn rain</i> inson huquqi // <i>human right</i> universitet hududi (universitet ning hududi) ⁶ // <i>area of university, campus</i>
--	----------------	----	-------	-------	---

⁴ NOTE: There should be -ning in three cases: proper noun + ning +... (Nodirning kitobi); pronoun + noun +... (uning xati, kimning qalami); noun + ning + adjective + word (talabaling yangi kompyuteri, kitobning oxirgi beti).

⁵ NOTE: If -ning is used with personal pronouns biz and siz, possessive suffix may be omitted: biz+ning uy(imiz)

⁶ NOTE: A suffix -ning is used with the name of place can both be added and omitted.

But a possessive suffix is not used when names of provinces, cities, regions and enterprises are named with proper nouns: Toshkent viloyati (a province called Tashkent), Bobur parki (a park named after Babur), Orol dengizi (a sea called Aral). With this, a name is expressed not possessiveness.

-niki qarashlilik qo'shimchasi yordamida ⁷ // <i>by means of possessive suffix -niki</i>			
NARSA // A THING	KIM/ NIMA	-niki [emas] ⁸	Kitob meniki . // <i>This book is mine.</i> Bu daftar meniki emas . // <i>This notebook isn't mine.</i> Bu kitob meniki emas edi . // <i>This book wasn't mine (before).</i>

O'rin-payt kelishigi // <i>By means of prepositions expressing place and time</i>		
KIM // WHO NIMA // WHAT QAYER // WHERE	-da	O'rtog'im da kitoblar ko'p // <i>My friend has a lot of books.</i> Stol da kitob bor. // <i>There is a book on the table.</i> Uning akasi Moskv da o'qiydi. // <i>His brother studies in Moscow.</i>

KIM da	NIMA ⁹	bor // <i>smb has smth</i> yo'q // <i>smb doesn't have smth</i> ko'p // <i>a lot of</i> kam // <i>few/less</i>	Menda kitob bor . // <i>I have a book. (It doesn't have to be my own book but I have it now)</i> Mening kitobim bor . // <i>I have a book. (it is my book)</i> Ishim ko'p emas. Oq qog'ozim bor, lekin kam.
---------------	-------------------	---	--

⁷ NOTE: when suffixes *-ni*, *-ning*, *-niki* are added to pronouns *men* (I), *sen* (you), a sound *n* is not pronounced and written: like *meni* (me), *mening* (my), *meniki* (mine); *seni* (you), *sening* (your), *seniki* (yours).

Men + *ning/-ni/-niki*=*mening* / *meni* / *meniki*.

Sen + *ning/-ni/-niki*=*sening* / *seni* / *seniki*.

⁸ NOTE: *Mening uyim katta. (Uy meniki katta = incorrect)*

NIMA + KIM+niki? (*gap tugadi*) = *Bu kitob meniki.* //

WHAT + WHO + niki? (a clause ends.) *This book is mine.*

⁹ NOTE: *Menda* + NIMA (not a person) + *bor*

Menda pul / kitob / daftar bor / yo'q. / Mening pulim/kitobim/daftarim bor (*Menda do'st bor=incorrect*) // **I have/don't have money/a book/a notebook.**

Mening + KIM, NIMA + *-(i)m bor* *Mening do'stim bor* // *I have/don't have a friend.*

O'zlik olmoshi yordamida // By means of reflexive pronouns

O'z // self	-im	-imiz	-ning	mening uyim (<i>my house</i>) o'zimning uyim (<i>it is my own house</i>) o'z uyim (<i>it has affirmative meaning</i>)
	-ing	-ingiz		
	-i	-lari		

KIM	NIMA	-ga ega [emas] // have [doesn't have]	-man	-miz	Men kerakli axborotga egaman. // <i>I have</i> necessary information. Sen bunday imkoniyatlarga ega emassan. // <i>You don't have</i> such opportunity.
			-san	-siz	
			–	-lar	

(Bu)	narsa, mavhumot // thing, abstract noun	KIM, NIMA	-ga tegishli [emas]¹⁰ // belongs to [doesn't belong to] -ga qarashli [emas] // belongs to [doesn't belong to]	Xona menga tegishli. // <i>The room belongs to me.</i> Bu fikr unga tegishli. Bu binolar bizga qarashli emas. // <i>These buildings do not belong to us.</i>
------	--	-----------	---	--



Mashqlar

2.1. Nuqtalar o'rniga mos qoshimchani qo'ying.

Mening do'st..., sizning uy..., uning lug'at..., xonaning deraza..., o'qituvchining savol..., kitobning bet..., bizning guruh..., akamning do'st..., do'stimning uka..., darsning mavzu..., sizning xona..., xonaning kalit..., sizning ovoz..., so'zning ma'no..., universitetning talaba..., sizning vazifa..., mening qalam..., uning ism..., sizning oila..., bizning dars..., mening savol..., ularning kasb..., sizning vaqt..., Nigoraning kitob..., Nigoraning sumka..., O'zbekistonning shahar...

¹⁰ NOTE: **KIM + KIMga + tegishli/qarashli = incorrect**

Bu talaba meniki; Bu talaba menga **tegishli.** // ***This student is mine; this student belongs to me. (=incorrect)***

2.2. Nuqtalar o'rniga men, sen, u, biz ,siz, ular olmoshlari-ning mosini qo'ying.

1. ... kitobi yo'qmi?
2. Bu ...universitetimiz.
3. ... savolingiz bormi?
4. ... lug'ati juda yaxshi.
5. ... lug'ati juda eski.
6. ... darsim yo'q.
7. ... ishi juda ko'pmi?
8. Bu telefon kimniki? Bu ... telefonim.
9. Bu kitob siznikimi? Yo'q, bu kitob ... emas.
10. ... darsimiz juda qiziqarli.

2.3. Qavs ichidagi qo'shimchalarni qo'llab so'zlarni to'g'ri yozing.

Eshik (-im), dars(-im), shahar (-im) , o'g'il (-i), kitob (-im), etik (-im), taroq (-im), o'rin (-ingiz), huquq (-im), yarim (-i), qopqoq (-i), danak (-i), og'iz (-im), avzo (-im), o'rtoq (-im).

2.4. Xatolarni toping.

Uning xona katta. Universitetning talabalar juda kuchli. Mening oilam katta. Uning savolisi bormi? Sizning uying juda chiroyli. Aziza lug'ati yaxshi. Do'st uyi katta. Talabaning savol bormi?

2.5. Qavslarni oching.

Men (xona), siz (daftar), uy (eshik), biz (dars), universitet (talabalar), ular (kiyim), u (vaqt), sen (uy), siz (savol), xona (deraza), biz (vazifa), u (oilasi).

2.6. -ning qo'shimchasi kerakmi yoki yo'qmi?

Men... do'stim, xona...eshigi, Toshkent... aeroporti, siz... uyingiz, bahor ... shamoli, ukam ... do'sti, o'qituvchi... ismi, biz... darsimiz, yoz... oylari, shahar... ko'chalari, uy... jihozlari, biz... xonamiz, ular... oilasi.

2.7. Qavs ichidagi soʻzlardan mosini va toʻgʻrisini tanlang.

Menda (kitob, kitobim) bor. Mening (oila, oilam) katta. Sizing (vaqt, vaqtingiz, vaqtim) bormi? Universitetning (talaba, talabasi, talabalari) ko'pmi? Stolda (mening, meniki) daftarim bor. Bu kitob (mening, meniki) emas. Oilamizda qizlar (yo'q, bor emas). (Bizning, bizniki, bizda) mamlakatimiz juda boy.

2.8. Xatoni aniqlang.

1. Meniki kitob sumkada.
2. Sizda savolingiz bormi?
3. Mening oilam katta.
4. Sizda do'st bormi?
5. Kimga lug'ati bor?
6. Bizlar xona juda toza va yorug'.
7. Uda pul bormi?
8. Xona deraza ochiq.

2.9. Bilimingizni tekshiring.

- 1) Menda ... bor.
A. opa B. do'st
C. ish D. kitob
- 2) Qaysi gapda *-ning* qo'shimchasini qo'llanmasa ham mazmuni o'zgarmaydi.
A. Bizning xonamiz katta.
B. Toshkentning ko'chalari keng va toza.
C. Nigoraning lug'ati juda yaxshi.
D. Uning ismi nima?
- 3) Quyidagilarga *-i/-si* qo'shimchasi kerakmi?
A. chiroyli qiz..., B. xona eshik...,
C. katta xona..., D. talaba lug'at...,
F. kuz shamol...
- 4) Nuqtalar o'rniga mos so'zni qo'yding.
Bu... siznikimi?

Universitetda darslar juda qiziqarli. Har kuni o'zbek tili darsimiz bor. Lekin juda band emasman, bo'sh vaqtim ko'p. O'zbek tili juda chiroyli til. Ammo biroz qiyin til. O'qituvchimiz juda malakali mutaxassis, u darsda talabchan, lekin doim bizga g'amxo'r.

Hozir o'zbekistonlik do'stlarim bor. Juda yaxshi yigitlar. Do'stim Ravshan 20 yoshda. Men esa 22 yoshdaman. U farg'onalik. Juda aqlli va samimiy yigit. Sarvar ham yaxshi bola. U ikkinchi kursda o'qiydi. Juda hazilkash yigit. Uning mashinasi ham bor.

Toshkentdagi hayotim zavq-shavqqa to'la.

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

1. Hikoyachi kim? U o'zbekistonlikmi?
2. U qaysi universitetning talabasi?
3. Uning do'stlari qayerlik?
4. U necha yoshda?
5. Ravshanning mashinasi bormi?
6. U juda bandmi?
7. U hozir darsdami?
8. O'zbek tili o'qituvchisi xushmuomalami?

3-mavzu: **BUYRUQ-ISTAK MA'NOSINING IFODALANISHI**

Theme 3. EXPRESSING IMPERATIVE MOOD

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

iltimos, uy vazifasi, o'z, marhamat, band, daqiqa, salqin, kutmoq, kirmoq, kelmoq, yozmoq, bermoq, yodlamoq, yopmoq, kiymoq, gaz, suv, ochmoq, ko'rsatmoq, metro, bekat, eshitmoq, dam olmoq, yordam bermoq, chiqmoq, bormoq, so'ramoq, qo'ymoq, olmoq, aytmoq, doska, kechqurun, bog', sayr qilmoq, birga, tayyorlamoq, albatta, erta, talaba, ruxsat bermoq, ozgina, maza, tayyor bo'lmoq, kechikmoq, tushuntirmoq, qaramoq, gapirmoq, qiyin, marta, olma, har, erta, ichmoq, kiyinmoq, ishontirmoq, hazil qilmoq, tanlamoq, aldamoq, samimiy, yolg'on, haqida, narsa, oldin, o'ylamoq, tanaffus, qo'rqmoq, tinglovchi, ko'z, shunchaki, ishlatmoq, hazil, lekin, ko'rinish, e'tibor bermoq, did, uslub, misol, to'g'ri, ijara, yotoqxona, xona, oila, buva, buvi, ota, ona, aka, uka, singil, ko'cha, xaridor, sotuvchi, o'rik, necha, so'm, qaytarmoq, xorijlik, ruscha, to'rt, ming, oz, yemoq.



Suhbatni o'qing.

A: Yaxshimisiz?

J: Salom, rahmat, yaxshi. Siz-chi?

A: Rahmat, kechirasiz, menimcha, siz o'zbekistonlik emassiz.

J: Ha, to'g'ri, men chet ellik talabaman. Lekin bemalol o'zbekcha gapiravering.

A: Ha, o'zbek tilingiz juda ravon ekan. Toshkentda ijara uyingiz bormi?

J: Yo'q, yotoqxonada yashayman.

A: Oilangiz qayerda?

J: Ular Yaponiyada.

A: Oilangiz kattami?

J: Ha, mening buvim, buvam, otam, onam, akam, ukam va singlim bor.

A: Juda yaxshi. Mening oilam ham katta: akalarim va opalarim bor.

Buvim va buvam ham bor.

J: Uyingiz qayerda?

A: Toshkentda, Navoiy ko'chasida.

J: Hozir vaqtingiz bormi?

A: Ha, hozir bo'shman.

J: Kutubxonaga boraylik.

A: Mayli, yuring.

Grammatik qurilmalar

Grammatik materiallar		Misollar	
Buyruq mayli qo'shimchalari yordamida // <i>By means of imperative mood suffixes</i>			
(Men)	FE'L [-ma] // <i>VERB [not]</i>	-(a)y	o'qiy, yozay // <i>let me read, let me write</i>
(Sen)	FE'L [-ma]	-/-gin	o'qi (<i>strong imperative tone</i>), o'qigin, yoz, yozgin // <i>read, write, write</i>
(U)	FE'L [-ma]	-sin	o'qisin, yozsin // <i>let her/him read, him write</i>
(Biz)	FE'L [-ma]	-(a)ylik	o'qiylik, yozaylik // <i>let us read, let us write</i>

(Siz)	FE'L [-ma]	-ing/-inglar/-ingiz	o'qing, yozing // <i>read, write</i> o'qinglar, yozinglar // <i>read, write</i> o'qingiz, yozingiz // <i>read, write</i>
Ular)	FE'L [-ma]	-sinlar	o'qisinlar, yozsinlar // <i>let them read, write</i>

FE'L	-(i)b	yubor/	-(a)y	-(a)ylik	Menga yordam berib yuboring (request). // <i>Help me, please.</i> Yoza qol . // <i>Write it, please. (strong request).</i> Gapirib ko'r // <i>Speak up (in the sense: trying to do something for one time)</i>
	-a/-y	qol/	-gin	-ing/-inglar/-ingiz	
	-(i)b	ko'r	-sin	-sinlar	

Tushum kelishigi // Accusative case		
KIM NIMA QAYER	-ni	Kitob ni bering. // <i>Give the book.</i> Eshik ni yoping. // <i>Close the door.</i>
Jo'nalish kelishigi // Dative case		
KIM NIMA QAYER	-ga¹¹	Unga ¹² ayt. // <i>Tell her/him</i> Kitobga yozmang! // <i>Don't write on the book!</i> Uyga boring. // <i>Go home</i>
O'rin-payt kelishigi // suffix -da (=preposition from)		
NIMA QAYER	-da	Telefonda gaplashaylik // <i>Let's speak by phone</i> Bog'da aylaning. // <i>Take a walk in the garden</i>
Chiqish kelishigi // suffix -dan (=preposition from)		
KIM NIMA QAYER	-dan	Akamdan kalitni oling // <i>Take keys from my brother</i> Javondan kitobni oling va menga bering // <i>Take the book from the shelf and give it to me</i>

¹¹ NOTE:

g → *k* ko'ylak + *ga* = ko'ylakka, *tok* + *ga* = tokka

g → *q* qishloq + *ga* = qishloqqa

g = *g* barg + *ga* = bargga, *tog'* + *ga* = tog'ga

¹² NOTE:

u, *bu*, *shu*, *o'sha* + *-ga*, *-da*, *-dan*, *-day*, *-dagi*, *-gacha*, *-cha* = unda, bungacha, o'shanday, shuncha, undagi...



Mashqlar

3.1. Fe'llarni to'g'ri tanlang.

- | | |
|--|------------|
| 1. Iltimos, siz kitobingizni menga ... | A. yozing |
| 2. Iltimos, eshikni ... | B. keling |
| 3. Iltimos, uy vazifasini daftarga... | C. kiring |
| 4. Iltimos, yangi so'zlarni ... | D. kuting |
| 5. Iltimos, darsga o'z vaqtida ... | E. bering |
| 6. Marhamat, uyga... | F. yodlang |
| 7. Juda bandman. Iltimos, besh daqiqa... | G. kiying |
| 8. Havo salqin. Issiq kiyimingizni ... | H. yoping |

3.2. Qavslarni ochib, fe'llarni to'g'ri shaklda yozing.

1. Menga gazsiz suv (bermoq)
2. Xona juda issiq, iltimos, derazani (ochmoq)
3. Menga metro bekatini (ko'rsatmoq)
4. Hozir daftaringizga yozmang, meni (eshitmoq)
5. Darsga lug'at bilan (kelmoq)
6. Ozgina (dam olmoq)
7. Juda ishim ko'p, iltimos, menga (yordam bermoq)
8. Har kuni 10 ta yangi so'z (yodlamoq)

3.3. Kelishiklarning mosini qo'ying.

1. Iltimos, lug'atni men... bering.
2. Iltimos, xona... chiqmang.
3. Dushanbada bozor... bormang.
4. O'qituvchi... so'rang.
5. Kitobingiz... stol... qo'ying.
6. Lug'atingiz... sumkangiz... oling.
7. Xonangiz... dam oling.
8. Do'stingiz... salom ayting.
9. Savolingiz... doskaga yozing.
10. Kechqurun bog'... sayr qiling.

3.4. Qavs ichidagi so'zlarni to'g'ri shaklda yozing.

1. Keling, ertaga birga dars(tayyorlamoq).
2. Iltimos, Davronga ayting, ertaga albatta darsga (kelmoq).
3. Ertaga bo'shman. Men sizga (yordam bermoq)mi?
4. Ertaga bayram. Talabalarga ayting, darsga (kelmoq).
5. Xona juda issiq. Keling, eshik va derazalarni (ochmoq).
6. Iltimos, menga ruxsat bering. Ozgina mazam yo'q. Men uyga (ketmoq).
7. Men bugun darsga tayyor emasman. Iltimos, uy vazifasini mendan (so'ramoq), men (javob bermoq).
8. Iltimos, Davron, darsga (kechikmoq), o'z vaqtida (kelmoq).

3.5. Mos fe'lni qo'ying.

yozmoq, bermoq, tushuntirmoq, yordam bermoq, qaramoq, gapirmoq, kutmoq, chiqmoq

1. Yangi mavzu juda qiyin, iltimos, menga ...
2. Yangi so'zlarni daftaringizga ...
3. Iltimos, darsda faqat o'zbek tilida ...
4. Mavzu qiyinmi, yana bir marta ...?
5. Iltimos, xonadan ...
6. Yangi so'zlarning tarjimasini lug'atdan ...
7. Bugun sizning darsingiz yo'q, mening darsim bor, meni ...
8. Olma necha so'm? Menga 2 kg ...

3.6. So'zlarni to'g'ri tartibda qo'yib gap tuzing.

bering / menga / kitobni / shu

yodlang / yangi / har kuni / so'z / 10 – 15 ta

ertaga / darsga / 10– 15 daqiqa / keling / barvaqt

juda / ichmang / suv / sovuq

ketay / uyga / mazam / men/ yo'q / iltimos

chiroyli / Toshkentda / ko'p / keling / aylanaylik / birga / joylar

3.7. Gaplarni to'ldiring.

Notiq uchun maslahatlar

qaramoq, kiyinmoq, gapirmoq, ishontirmoq, hazil qilmoq, tushuntirmoq, tayyorlamoq, tanlamoq

1. Tinglovchilarni aldamang, ularni o'zingizga ...
2. Samimiy bo'ling, yolg'on ...
3. Hamma narsani oldindan ...
4. Doimo tinglovchilarning ko'zlariga ...
5. So'zlarni shunchaki ishlatmang, ularni to'g'ri ...
6. Hazildan qo'rqmang, lekin ko'p ...
7. Ko'rinishingizga alohida e'tibor bering. Chiroyli va did bilan ...
8. Hammaga tushunarli uslubda gapiring. Fikringizni misollar bilan ...

3.8. To'g'ri javobni tanlang.

Darsdan keyin mening xonamga ...

A. kiring B. boring

Menimcha, siz kasalsiz, albatta, dori ...

A. iching B. yeng

Iltimos, men bilan o'zbekcha ...

A. gapiring B. gaplashing

Havo issiq, yengilroq ...

A. kiying B. kiyining

Iltimos, xonadan ...

A. chiqing B. keting

Sizga savolim bor. Menga...

A. javob bering B. so'rang

Men pastdaman. Oldimga ...

A. tushing B. boring

Mana shu bekatdan 17-avtobusga ...

A. chiqing B. kiring

Bu yerda avtobus bekati yo'q, yaxshisi, taksiga ...

A. o'tiring B. chiqing

Mevalarni yaxshilab ...

A. yuving B. yuvining

Oldin ..., keyin dam oling.

A. yuvining B. yuving

Iltilmos, doskaga ...

A. qarang B. ko'ring

Telefoningizni sumkangizga ...

A. soling B. qo'ying

Bu juda qiziqarli film. Uni albatta ...

A. ko'ring B. qarang

Har kuni yangi so'zlarni ...

A. yodlang B. qarang

3.9. *Gaplarni to'g'rilang.*

1. Iltilmos, xonadan keting.

2. Ertaga sizga kelaymi?

3. Iltilmos, menga o'zbek tilini o'qiting.

4. Qo'lingizga soat kiying.

5. Meni kechiring, mendan xafa qilmang.

6. Unga ayting, darsdan keyin men bilan uchratsin.

7. Darsda o'qituvchini eshiting, bir-biringiz bilan gapirmang.

8. Daftaringizni do'stingizga bering, u sizga xatolaringizni ko'rsin.

3.10. *Savol berishni o'rganamiz.*

Namuna: Ertaga soat 9 da keling. – *Ertaga 9 da kelaymi?*

1. Nodirga ayting, albatta, men bilan uchrashsin.

2. Kechqurun menga qo'ng'iroq qiling.

3. Menga ham gazli suv olib keling.

4. Iltilmos, do'stingizga yordam bering, mening gapimni unga tarjima qiling.

5. Menga lug'atingizni ko'rsating.

6. Yu Jin bozorga bir o'zi bormasin, unga tushuntiring.

3.11. yubormoq, qolmoq, ko'rmoq kabi yordamchi fe'llarni quyidagi gaplarga qo'yib chiqing.

1. Bugun ertaroq yoting, ertalab uxlab... 2. Kechirasiz, bugun juda bandman, keling, ertaga uchrasha ... 3. Bu o'zbek milliy taomi – moshkichiri, juda mazali va yumshoq, yeb... 4. – Mazam yo'q, men uyga ketay? – Mayli, bora ... 5. Iltimos, Navoiy teatrining oldida mashinani to'xtatib ... 6. Nima uchun xafasiz? Iltimos, ayta ... 7. – Kechirasiz, sizda ruchka bormi? – Ha, mana, menimcha, bu ruchka yaxshi, yozib ... 8. – Bu suv juda muzdekmi? – Menimcha, juda muzdek emas, o'zingiz ichib ... 9. Ish juda ko'p. Ozgina dam oling, yana charchab ... 10. Xona juda issiq, iltimos, derazalarni ochib ...

3.12. Dialogni to'ldiring.

Bozorda

osh bo'lsin, keling, beraymi, gapiring, oling, yeb ko'ring, tanlang, bering, bera qoling.

Xaridor: Aka, o'rik necha so'm?

Sotuvchi: Три тысяча(rus tilida)

Xaridor: Iltimos,o'zbekcha ...

Sotuvchi: Uch ming. Juda shirin, ...

Xaridor: Arzonroq qiling. Juda qimmat-ku.

Sotuvchi: Mayli, ikki yarim ming so'm, oling. ... Necha kilo?

Xaridor: Bir kilo ...

Sotuvchi: Bir kilo juda kam, ikki kilo ...

Xaridor: Mayli, ikki kilo ...

Sotuvchi: O'zingiz ...

Xaridor: Yo'q, hammasi juda chiroyli va bir xil.

Sotuvchi: Va juda mazali. Ertaga ham ...

Xaridor: Rahmat.

Sotuvchi: ...

3.13. Kelishiklarni to'g'ri tanlang.

1. Kitobni kim (-ga, -ni, -dan) beray?
2. Uy vazifasini kim (-ni, -dan, -ga) so'ray?
3. Imtihon (-ni, -dan, -da) qo'rqmang. Savollar qiyin emas.
4. Darsda lug'at (-dan, -ni) foydalaning, lekin imtihonda foydalanmang.
5. Bozorda mevalar juda ko'p va arzon. Olma va o'rik (-ning, -dan) sotib oling.
6. Doskadagi gaplarni daftaringiz (-ga, -da, -ni) ko'chiring.
7. Bu odam (-ga, -ni) ishonang, u juda yaxshi inson.
8. O'zbek tili (-da, -ni, bilan) gapiring, ruscha (-da, bilan) gapirmang.
9. Daftaringizni men (-ni, -ga) ko'rsating, lekin oldin gaplar (-ni, -ga) yaxshilab tekshiring.
10. Taksi (-ni, -ga, -da) o'tirmang, avtobus juda ko'p va qulay, avtobus (-ga, -ni, -da) chiqing.

3.14. Mos qo'shimchani (-ay, -gin, -sin, -aylik, -ing, -sinlar) qo'ying.

1. Ancha kech. Men uyga... (bormoq)
2. Ishim juda ko'p. Shuning uchun meni kechki ovqatga (kutma).
3. Sardorga ayting, u ertaga menga (uchramoq).
4. Bugun kechqurun vaqtingiz bormi? Kechqurun soat oltida biznikiga (kelmoq).
5. Keling, bugun siz bilan Toshkentni (aylanmoq).
6. Nodirga ayting, ertaga kitoblarni (olib kelmoq).
7. Menga maslahat bering, qayerdan uy jihozlarini (sotib olmoq).
8. Pulni to'g'ri (sarflamoq).
9. Vaqtingni (qadrlamoq), uni behuda (o'tkazmoq).
10. Iltimos, menga o'zbek taomlarini (o'rgatmoq).



Matnni o'qing. Yangi so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

TALABALARGA MASLAHATLAR

Hurmatli talabalar, siz mana shu nufuzli universitetning talabasisiz. Bu juda katta mas'uliyat va albatta, faxr. Eng avvalo, bir narsani unutmang: kelajak ilmi, mamlakat istiqboli sizning qo'lingizda. Bugungi mashaaqqatli mehnatingiz bu – ertangi yutuqlaringizning asosi. Demak, bor kuchingiz bilan bilim oling, izlaning, o'rganing.

Yodda tuting: bilim bu – kuch. Har bir fanni chuqur o'rganing. Menga ishoning: ilm, haqiqatan ham, qudratli kuchdir.

Til o'rganing. Til bu – imkoniyatlar kaliti. Ona tilingizni juda yaxshi biling. U boshqa tillarni o'rganishga asosdir. Har kuni lug'at bilan 20 – 30 daqiqa ishlang. Yangi so'zlarni yod oling. Yana bir gap: mashq qiling. Doim izlaning. Ko'proq ma'lumot olishga harakat qiling. Maqsadingiz aniq bo'lsin. Ammo sohangizdagi har bir yo'nalishni o'rganib ko'ring.

Vaqtingizni behuda o'tkazmang. Lekin bu 24 soat o'qish degani emas. Talabalik – oltin davr. Uni qanday o'tkazish sizning qo'lingizda.

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

1. Talaba bo'lish osonmi?
2. Mamlakatning kelajagi kimning qo'lida?
3. Kelajakdagi yutuqlarning asosi nima?
4. Eng qudratli kuch nima?
5. Til bilish katta imkoniyatmi?
6. Talabalik qiziqarli davrmi?
7. Talabalarga maslahat bering.

Bilib qo'ygan yaxshi!

Biror ish bilan shug'ullanayotgan odamga **«hormang»** (ya'ni charchamang) deyish odat hisoblanadi, u esa sizga **«salomat bo'ling»** yoki **«bor bo'ling»** deb javob berishi kerak.

4-mavzu: BELGINI IFODALASH

Theme 4. EXPRESSING ATTRIBUTE

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

shirin, yog'li, qimmat, mehmonxona, gul, kun, sal, biroz, qorong'i, zerikarli, uzoq, kichkina, kalta, sovuq, oson, baland, gaz, hojatxona, iflos, og'ir, past, tor, kir, yengil, uzun, semiz, qalin, qisqa, bo'y, qari, go'sht, bilan, ingichka, yemoq, tomon, olib kelmoq, ko'rsatmoq, o'tmoq, hali, ko'p, ishonmoq, jiqqa ho'l, nihoyatda, ancha, eng, yayov, tez-tez, birpas, darrov, jim, xorazmcha, bittalab, xalal bermoq, sog'lik, foydali, piyola, choy, kuchli, gap, tekshirmoq, xato, tuzatmoq, tashqari, ovoz, baliq, sekin, shoshmoq, o'ylamoq, nonushta qilmoq, diqqat, sotib olmoq, shinam, qo'shiq, mumkin, guvohnoma, xodim, tanishmoq, zal, darslik, xil, tavsiya qilmoq, ro'yxat, javon, turmoq, orasida, o'tirmoq, ko'rmoq.



Suhbatni o'qing.

Kutubxonada

- Assalomu alaykum, yaxshimisiz? Mumkinmi?
- Keling, yaxshimisiz?
- Kechirasiz, men yaponiyalik tadqiqotchiman. Mana guvohnomam. Ismim Ai Kato.

– Juda yaxshi, men kutubxona xodimiman. Ismim Nigora. Keling, ana u yerda o'quv zalimiz ham bor. Sizga qanday kitoblarni beray?

– Tanishganimdan juda xursandman. Nigora opa, menga «O'zbek tili» kitobi kerak.

– Darsliklarimiz ko'p. Har xil. Siz menga o'qituvchingiz tavsiya qilgan kitoblarni ayting. Sizda ularning ro'yxati bormi?

– Ha, mana. Menga mana shu kitoblarni bering.

– Xo'p, siz ozgina kutib turing yoki o'quv zalimizga o'ting. Javonda turgan kitoblarimiz yangi. Ular orasida juda yaxshi lug'atlar ham bor. Bemalol o'quv zalimizdagi kitoblarni ko'ring.

Grammatik qurilmalar

Grammatik materiallar	Misollar
So'roq olmoshlari yordamida // <i>By means of interrogative pronouns</i>	
Qanday? Qanaqa? // <i>What? What sort of?</i> <i>What kind of?</i>	aqli odam, toza xona Bu gul juda chiroyli . U kitob qiziqarli . Qanday kitob? Qanday odam? //
Qaysi? // <i>Which?</i>	<i>What book is it? What kind of person is he?</i> Bu gullarga qarang, juda chiroyli. Qaysi gul chiroyli?

Sifat so'z turkumi yordamida // <i>By means of adjective</i>	
Rang // Colour	oq ko'ylak // <i>a white shirt</i> qizil gul // <i>a red flower</i> qora qush // <i>a black bird</i> yashil tog' // <i>a green mountain</i> ko'k ruchka // <i>a blue pen</i> sariq gul // <i>a yellow flower</i> havorang daftar // <i>a blue notebook</i> pushti gul // <i>a pink flower</i> kulrang // <i>grey</i> havorang // <i>(light) blue</i> siyohrang // <i>violet</i>
Shakl // Form	dumaloq shar // <i>round ball</i> to'rtburchak xona // <i>a quadrilateral room</i>

Xususiyat // <i>Specific character</i>	yaxshi bola // <i>a good boy</i> yomon yo'l // <i>a bad road</i> aqli qiz // <i>a clever girl</i> chiroyli gul // <i>a beautiful flower</i> ochiq odam // <i>open heart man</i> qimmat buyum // <i>expensive thing</i> eski kiyim // <i>old clothes</i> qari kishi // <i>old man</i> qiyin ish // <i>difficult work</i> sovuq xabar // <i>cold news</i>
Maza-ta'm // <i>Taste</i>	mazali ovqat // <i>delicious meal</i> shirin choy // <i>sweet tea</i> achchiq sho'rva // <i>bitter soup</i> bemaza qovun // <i>tasteless melon</i> sho'r ovqat // <i>salty food</i> nordon olma // <i>sour apple</i>
Hid // <i>Smell, fragrance</i>	xushbo'y hid // <i>sweet smell</i> badbo'y hid // <i>nasty smell</i>
Hajm // <i>Volume</i>	katta ko'cha // <i>a wide street</i> kichkina xona // <i>a small room</i> uzun yo'l // <i>a long road</i> kalta ko'ylak // <i>a short dress</i>

Sifatdosh yordamida ¹³ // <i>By means of participle</i>			
Sifatdoshning o'tgan zamon shakli // <i>Past tense form of participle</i>			
FE'L [-ma]	-gan ¹⁴	OT	o'qigan qiz // <i>a literate girl</i> o'qimagan qiz // <i>an illiterate girl</i> pishmagan meva // <i>raw fruit</i> Bergan kitobingiz juda qiziqarli. // <i>The book which you have given me is very interesting.</i>

¹³ NOTE: A participle is used with a noun, sometimes a noun is omitted and a participle serves the function of a noun.

Kechikkan talabalar darsga kiritilmaydi – Kechikkanlar (KIM?) darsga kiritilmaydi. // Students who are late are not allowed to class – Students who are late (who?) are not allowed to class.

O'qigan narsalaringni so'zlab ber – O'qiganlaringni so'zlab ber. // Retell things you have read – Retell what you have read (both of forms are used).

¹⁴ NOTE:

g → k, q FE'L + -gan: kechik+ -gan = kechikkan, boq + -gan = boqqan

Sifatdoshning hozirgi-kelasi zamon shakli // <i>Present-future form of participle</i>			
FE'L [-ma]	-a/-y digan	OT	o'qiy digan talaba // <i>a promising student</i> boradigan joy // <i>going place</i> Men bil maydigan narsalar ko'p. // <i>There are a lot of things I don't know.</i>
Sifatdoshning hozirgi zamon davom shakli // <i>Present continuous form</i>			
FE'L [-ma]	-a/-yotgan	OT	kelay otgan odam // <i>a person who is coming</i> kitob o'qiy otgan qiz // <i>girl which is reading book</i> O'qituvchi tushuntiray otgan (<i>explaining now</i>) mavzu juda qiyin // <i>The topic which the teacher is explaining now is very difficult.</i>
FE'L	-(a)r [-mas]	OT	oqar suv (<i>running water</i>), qayt mas kunlar (<i>irreversible days</i>)

Ravish yordamida // <i>By means of adverbs</i>	
Holat ravishi // <i>Manner adverb</i>	tez, sekin, piyoda, zo'rg'a // <i>fast, slowly, on foot, hardly</i> – Qanday boray? // <i>How can I go?</i> – Piyoda keling. // <i>By foot.</i>

Ravishdosh shakli yordamida // <i>By means of adverbial participle</i>			
		Qanday qilib bajaray?	
FE'L	-(i)b [/-masdan/-may]	FE'L	shosh ib kelmoq, yugur ib bormoq // <i>come hurriedly, go running</i> o'ylam asdan gapirmoq o'ylam ay gapirmoq // <i>speaking without thinking</i>
FE'L	-(a)y [/-masdan/-may]	FE'L	yugura-yugura bormoq // <i>go running</i> o'ylay-o'ylay yozmoq kuta-kuta charchamoq



Mashqlar

4.1. Nima qanday? Mos so'zni tanlang.

ochiq, qisqa, issiq, eski, chiroyli, katta, shirin, yog'li, qiziqarli, qimmat

Deraza (*ochiq*), mehmonxona, ovqat, meva, havo, dars, xona, kiyim, gul, kun

4.2. Quyidagi nuqtalar o'rniga antonim so'zlarni qo'yib gapni to'ldiring!

1. Bu uy arzon emas, juda ...
2. Xona katta emas, sal ...
3. Bu ko'ylak juda chiroyli, lekin uzun emas, juda ...
4. Havo issiq emas, biroz ...
5. Ovqat yog'siz emas, ...
6. Eshik ochiq emas, ...
7. Xonam qorong'i emas, juda ...
8. Yangi mavzu qiyin emas, juda ...
9. Darsimiz zerikarli emas, juda ...
10. Metro bekati uzoq emas, juda ...

4.3. Qavs ichidagi so'zlarning antonimini qo'llab dialog tuzing. Namuna: eshik (*ochiq*)

– Eshik ochiqmi?

– Yo'q, eshik yopiq.

Uy (baland), o'zbek tili (qiyin), suv (gazli), meva (qimmat), bozor (yaqin), ko'ylak (keng), hojatxona (iflos), kiyim (toza), xona (bo'sh), sumkangiz (og'ir)

4.4. Tanlang.

bino (baland, uzun), kitob (semiz, qalin), ko'ylak (qisqa, kalta), kun (kalta, qisqa), havo (iflos, kir), kiyim (yengil, sovuq), odam (uzun, baland), qiz (past bo'yli, qisqa bo'yli, kalta), suv (sovuq,

salqin), odam (eski, qari), narsa (qari, eski), somsa (go'shtli, go'sht bilan), yo'l (tor, ozg'in).

4.5. Qavslarni oching.

1. Kecha men (yemoq) taom juda mazali edi. 2. Har kuni men bilan universitetga (kelmoq) qiz mening juda yaqin do'stim. 3. Hozir biz tomonga (kelmoq) talabaning ismi nima? 4. Kechirasiz bizga (bermoq) yangi so'zlarni bugun so'ramang, iltimos. 5. Koreyadan (olib kelmoq) kitoblarimni sizga ko'rsataymi? 6. (O'qimoq) kitoblaringizni menga bering. 7. Ertaga (o'tmoq) darsimiz qiyinmi? 8. O'zbekistonda hali (ko'rmoq) shaharlarim juda ko'p. 9. Hozir men (yemoq) taomning o'zbekcha nomi nima? 10. Ko'p (gapirmoq) odamlarga ishonma.

4.6. Qaysi so'zni qo'llash noto'g'ri bo'ladi?

1. Bugun havo(juda, biroz, sal) sovuqroq.
2. Yomg'irdan kiyimim (jiqqa, biroz, sal, kam) ho'l edi.
3. Bozorda mevalar (juda, kam, nihoyatda, sal) arzon.
4. Bu xona u xonadan (ozgina, sal, oz) kattaroq.
5. Bugun kechadan (ancha, juda, sal, eng) issiq.
6. O'zbekistonda chiroyli shaharlar ko'p, lekin men uchun (eng, zo'r, hammadan, juda) chiroylisi Toshkent.

4.7. Nuqtalar o'rniga mos so'zni qo'ying.

yayov, tez-tez, birpas, sekin, darrov, jim, xomligicha, xorazmcha, unday, bittalab

1. Iltimos, ...o'tiring, boshqa talabalarga xalal bermang.
2. Har kuni ikki-uch kilometr ... yuring, bu sog'lik uchun juda foydali.
3. Menga ... gapiring, eshitib ko'ray.
4. Iltimos, ... dam olaylik, bir piyola choy iching.
5. Nodir juda aqlli va kuchli talaba. Universitetimizda ... talabalar juda ko'p.

6. Iltimos,... ovqatlaning, vaqtimiz juda kam.
7. Gaplarni... tekshiring, xatosini tuzating.
8. – Iltimos, tashqariga chiqib kelay.
- Mayli, lekin ... keling.
9. Ovozingiz juda baland, iltimos ...-roq gapiring.
10. Bu baliqni ... yeb ko'ring, juda mazali va foydali.

4.8. Qavslarni oching.

Iltimos, (turmoq) gapiring – Iltimos, turib gapiring.

1. Yo'lda mashinalar juda ko'p. Iltimos, (shoshmoq) keling.
2. Iltimos, kitobga (qaramoq), o'zingiz savolinga (o'ylamoq) javob bering.
3. Keling, (choy ichmoq) gaplashaylik.
4. Ertalab darsga, albatta, (nonushta qilmoq) keling.
5. Keling, universitetga yayov (gaplashmoq) ketaylik.
6. Oldin meni diqqat bilan (eshitmoq), keyin yozing.

4.9. Qavslarni ochib, gaplarni to'ldiring

Namuna: Kitob juda qiziqarli (kecha u kitobni men sizga berdim)

– *Men kecha sizga bergan kitob juda qiziqarli.*

1. U qizning ismi nima? (U hozir siz bilan birga keldi)
2. Ovqat juda mazali edi. (Men kecha u ovqatni oshxonada yedim)
3. Talabalar juda aqlli. (Ular siz bilan kecha tanishdilar)
4. Bozorga boring. (Biz bu bozorga birga bordik)
5. So'zlarni yodlang. (O'qituvchi bu so'zlarni bugun darsda berdi)
6. Lug'at sotib oling. (Men sizga bu lug'atni ko'rsatdim)
7. Bu yigit qayerlik? (U har kuni siz bilan universitetga birga ke-ladi)
8. Uy vazifasi qiyinmi? (O'qituvchi uy vazifasini berdi)
9. Xona toza va shinam. (Biz u yerda yashaymiz)
10. Bu qiz kim? (U hozir qo'shiq aytyapti)



Matnni o'qing. Yangi so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

O'ZBEK XALQINING MEHMONDO'STLIGI

O'zbek xalqining mehmondo'stligi – bu qadimiy milliy an'ana.

«Mehmon izzatda – mezbon xizmatda». Bu shunchaki so'zlar emas. Mehmondo'stlik – hozirgi kungacha yetib kelgan eng go'zal odat.

O'zbek oilasi juda mehmondo'st. Mehmonni bir piyola choyga taklif qilish – keng tarqalgan urf. Bir piyola choy ustida suhbatlashish – o'zbeklarga xos odat. Bunda choy damlash, choy quyish mezbonning vazifasi. Dasturxonda faqat choy emas, turli shirinliklar, quruq va ho'l mevalar, issiq non ham bo'ladi. Umuman, choyxo'rlik marosimi katta ahamiyatga ega.

O'zbek xonadonida mehmon bo'ling. Biznikiga bir piyola choyga keling. Choy ichib suhbatlashaylik. Do'stlaringiz ham kelsinlar.

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

1. Mehmondo'stlik nima?
2. Mehmondo'stlik yangi an'anami?
3. Mezbonning vazifasi nima?
4. Choy ichish marosimi qanday odat?

Bilib qo'ygan yaxshi!!!

Mezbon mehmonga faqat bir marta «xush kelibsiz» demaydi. U har safar tashqaridan mehmon o'tirgan xonaga «xush kelibsiz» deb kirishi odob va hurmat belgisidir.

Mehmon dasturxondagi taomlarni tatib ko'rmagan bo'lsa ham yoki ularni yeyishni istamasa ham, odob yuzasidan «rahmat, yedim, juda mazali ekan» deyishi mumkin. Lekin «yemayman», «bunday narsani yeya olmayman», «menga bu taom yoqmaydi» deb ochiq aytish odobdan emas.

5-mavzu: TAXMINIYLIK VA NOANIQLIKNI IFODALASH

Theme 5. EXPRESSING APPROXIMATENESS AND UNCERTAINTY

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

taxminiylilik, bulut, yomg'ir, yog'moq, menimcha, hoynahoy, yoniq, chiroq, nonushta, yozma ish, auditoriya, jimjit, shekilli, sizningcha, shovqin, hafta, konsert, imtihon, tinglovchi, darslik, baho, bo'lim, jadval, ulgurmoq, uchrashmoq, talay, kutmoq, o'ynamoq, yordam bermoq, gavjum, ajoyib, istirohat bog'i, tashqari, ko'cha.



Suhbatni o'qing.

Nigora: Yaxshimisiz, Son Mi?

Son Mi: Salom, Nigora, rahmat, yaxshi. O'zingiz qalaysiz?

Nigora: Rahmat, yomon emas. Yuring oshxonaga.

Son Mi: Rahmat, lekin hozir darsim bor.

Nigora: Hozir tushlik vaqti. Menimcha, darsingiz soat birda bo'lsa kerak. O'qituvchingiz ham tushlik qilayotgan bo'lsa kerak.

Son Mi: Hozir katta tanaffusmi?

Nigora: Ha, balki, biz bilan birga tushlik qilarsiz?

Son Mi: Katta rahmat, yaxshisi, o'quv bo'limiga kirib, dars jadvalini olay.

Nigora: Yuring birga.

Son Mi: Tushlik-chi?

Nigora: Ulgursak kerak. Yarim soat vaqtimiz bor.

Son Mi: Sizning ham darsingiz bormi?

Nigora: Yo'q, darsim yo'q.

Grammatik qurilmalar

Grammatik materiallar		Misollar
Modal so'zlar yordamida // <i>By means of modal words</i>		
ehtimol // <i>may be</i> balki // <i>probably</i> hoynahoy // <i>most likely</i> shekilli // <i>apparently</i> chamasi // <i>evidently</i> taxminan // <i>about</i>		Siz bilan ilgari ham uchrashganmiz, shekilli . // Apparently , we have met with you before. (used only at the end of the sentence) Chamasi , dars soat beshda tugaydi. // <i>The lesson finishes at about 5.</i> Taxminan , ikki hafta oldin u bilan uchrashgandik. // About a fortnight ago we met her/him.
Son yordamida // <i>By means of numerals</i>		
SON // Number	-tacha, -larcha, -lab, -lar	Beshtacha talaba darsga kelmadi. // <i>About five students didn't come to class.</i> Yuzlab talabalar ushbu forumda qatnashdilar (yuzdan ko'p, balki, ikki yuz) // <i>Hundreds of students attended in this forum</i> <i>(over a hundred, maybe two hundred)</i> Soat uchlarda ¹⁵ ko'rishamiz <i>(We will meet at about 3 o'clock).</i>
SON-SON NUMBER- NUMBER		Uch-to'rt bola keldi (<i>About 3 or 4 boys have come</i>) U 40 – 50 yil avval yashagan. (<i>S</i>)he lived 40 or 50 years ago.

¹⁵ NOTE: The plural suffix «-lar» in Uzbek can express supposition: Soat beshlar edi. Men u vaqtda o'n yoshlarda edim. // It was about 5 o'clock. I was about 10 years old then.

O'tgan zamonda // In the past					
FE'L [-ma]	-gan bo'lsa	-m	-k	kerak	U kecha Samarqandga ketgan bo'lsa kerak. // <i>He must have gone to Samarkand. (might be)</i> Bugun ko'p ishladik, hoynahoy , charchagan bo'lsangiz kerak?
		-ng	-ngiz		
		-	-lar		

FE'L [-ma]	-gandir	-man	-miz	U kecha borgandir. // <i>He might have gone there yesterday.</i> Balki , siz uni ko'rmagandirsiz? Ehtimol , u sizni tanimagandir.
		-san	-siz	
		-	-lar	

Hozirgi zamonda // In the present					
FE'L [-ma]	- (a) yotgan bo'lsa	-m	-k	kerak	U hozir meni metro bekatida kutayotgan bo'lsa kerak. // <i>He might be waiting for me in the metro station. (may be)</i> Hoynahoy , siz hozir juda xavotir olayotgan bo'lsangiz kerak.
		-ng	-ngiz		
		-	-lar		
FE'L [-ma]	- (a) yot- gandir	-man	-miz	-	U sizni tashqarida kutayotgandir. // <i>May be, he's waiting for you outside. (may be)</i> Balki , hozir mendan xafa bo'layotgandirsiz? Balki , men sizni tushunmayotgandirman.
		-san	-siz		
		-	-lar		

Kelasi zamonda // In the future					
FE'L [-ma]	-sa	-m	-k	kerak	Menimcha , ertaga yomg'ir yog'sa kerak , chunki havo bulutli. // <i>I think it must rain tomorrow because it is very cloudy.</i> Biz ertaga kelmasak kerak. // <i>We may not come tomorrow. (in my opinion)</i>
		-ng	-ngiz		
		-	-lar		

Balki	FE'L	- (a)r [-mas]	-man	-miz	(bo'lma- sa,) // , (if not) ...	Balki , ertaga uning o'zi qo'ng'iroq qilar, bo'lmasa , o'zimiz unikiga boramiz. // <i>May be, he will phone us himself, if not, we will go to him ourselves.</i>
			-san	-siz		
			-	-lar		



Mashqlar

5.1. Qavslarni ochib, gapni tugating.

Namuna: Havo bulut, *menimcha*, ertaga yomg'ir (yog'moq). –
yog'sa kerak

1. Nodir, *menimcha*, pastda hozir meni (kutmoq)
2. Ancha tobim yo'q. *Menimcha*, ertaga darsga (bormoq)
3. Hoynahoy, ertaga u biznikiga (kelmoq)
4. Uyda chiroq yoniq, *menimcha*, akam (kelmoq)
5. Bugun ertalab stolda nonushtam tayyor edi, *menimcha*, do'stim
(tayyorlamoq)
6. Auditoriya jimjit, *menimcha*, talabalar yozma ish (yozmoq)

5.2. Nuqtalar o'rniga mos so'zni qo'ying.

taxminan, shekilli, balki, hoynahoy, sizningcha

1. ... u ertaga kelar, ... kelmas. – *Balki, ertaga kelar, balki, kelmas.*
2. Xonada o'qituvchi yo'q, ..., juda shovqin.
3. ..., bu kitob qiziqarlimi?
4. ... ikki hafta oldin ular Toshkentga kelgan bo'lsalar kerak.
5. Uning ishi juda ko'p, ..., u bugun konsertga bormasa kerak.

5.3. Savollarga javob bering.



**Talabalar imtihon-
dalarimi? – Menimcha,**
talabalar imtihonda
bo'lsalar kerak.

	Ular o'zbekistonlik talabalarmi?
	U o'qituvchimi?
	Nodir juda aqlli talabami?
	Auditoriyada necha nafar tinglovchi bor?
	Bular qanday kitoblar?

1.3. Matn tuzing.

Namuna:



Menimcha, u talaba bo'lsa kerak. Uning stolida taxminan 15 – 20 ta kitob bor. Menimcha, u bu kitoblarni o'qigan bo'lsa kerak. Hoynahoy, ertaga uning imtihoni bo'lsa kerak. Menimcha, u juda aqlli talaba. Ertaga imtihonda juda yaxshi baho olsa kerak.



Matnni o'qing. Yangi so'zlarni daftaringizga ko'chiring

DAM OLISH KUNI

Bugun yakshanba. Dam olish kuni. Havo juda yoqimli. Juda issiq ham emas. Sayr uchun ajoyib, iliq havo. Menimcha, hamma tashqarida. Ko'cha gavjum bo'lsa kerak. Do'stlarim ham istirohat bog'ida sayr qilayotgan bo'lsalar kerak. Yotoqxonamiz orqasida juda chiroyli istirohat bog'i bor. Menimcha, ular voleybol yoki tennis o'ynayotgandirlar.

Ertaga darsim ko'p. Uy vazifalarim ham talaygina. Nima qilay? Men ham sayrga chiqaymi yoki darsimni qilaymi? Ertaga o'qituvchim uy vazifasini birinchi mendan so'rasa kerak. Balki, so'ramas... Biroz tashqariga chiqay, balki, do'stlarim ham meni bog'da kutayotgandirlar. Ular bilan birga ozgina tennis o'ynay, keyin menga uy vazifasida yordamlasharlar.

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

1. Bugun qanday kun?
2. Havo sovuqmi?
3. Ko'chada odam ko'pmi?
4. Uning do'stlari nima bilan band?
5. Uning uy vazifasi ko'pmi?
6. U tashqariga chiqsa kerak-a?

6-mavzu: O'TGAN ZAMON MA'NOSINING IFODALANISHI

Theme 6: EXPRESSING PAST TENSE

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

kun bo'yi, faqat, rosa, xafa bo'lmoq, joy, erta, to'q, tushunmoq, salomlashmoq, yordam bermoq, yashamoq, unutmoq, bajar-
moq, ko'tarmoq, tarjima qilmoq, takrorlamoq, xo'p, tushlik,
yarim, soat, osh, bozor, imtihon, ruscha, uchrashuv, joy, tug'il-
moq, film, tamomlamoq, uchrashmoq, foydalanmoq, tabrikla-
moq, tomosha qilmoq, qabul qilmoq, yosh, tanimoq, qurmoq,
xarita, mana, nega, shug'ullanmoq, uylanmoq, farzand, kechki,
qo'ng'iroq qilmoq, adashmoq, topmoq, qachon, ingliz, sport,
elchixona, markaz, joylashmoq, seshanba, topshiriq, allo, lab-
bay, uzr, ahvol, kuzatmoq, besh, afsus, aylanmoq, shahar, san'at,
muzey, asar, rasm, rassom.



Suhbatni o'qing.

- Kecha darsdan keyin nimalar qildingiz?
- Tushlik qildik va o'zbekistonlik do'stim bilan shahar aylandik.
- Qayerlarga bordingiz?
- Ko'p joylarda bo'ldik. Menga san'at muzeyi juda yoqdi. U yerga borganmisiz?

- Ha, chet ellik talabalarim bilan borganman. U yerda juda ajoyib san'at asarlari bor.
- Ha, juda chiroyli rasmlarni ko'rdim. Menga o'zbek rassomlari-ning asarlari juda yoqdi.
- Keyin qayerga bordingiz?
- Kechqurun uyga qaytdim.

Grammatik qurilmalar

Grammatik materiallar				Misollar
OT, SIFAT, SON, OLMOSH, RAVISH// NOUN, ADJECTIVE, NUMBER, PRONOUN, ADVERB	[emas] edi	-m	-k	Kecha havo issiq edi . // <i>It was hot yesterday.</i> 2003-yili men talaba edim. // <i>I was a student in 2003.</i> Sen birinchi kursda juda kuchli emas eding . // <i>You were not active in the first course.</i>
		-ng	-ngiz	
		-	-lar ¹⁶	

FE'L[-ma]	-di	-m	-k	Siz qachon keldingiz?// <i>When did you come?</i>
		-ng	-ngiz	Bugun undan kitob so'radim. // <i>Today I asked him for the book.</i> Kecha o'qituvchi o'tilgan mavzuni bizdan so'radi. // <i>Yesterday the teacher asked the previous lesson from us.</i>
		-	-lar	Kecha uni universitetda ko'rdim. // <i>I saw him/her yesterday at the University.</i>

¹⁶ NOTE: a plural form of NOUNS and VERBS is used only when speaking is **only about people**.
Talabalar yetib keldilar. Qushlar sayradi. Gullar ochilgan. Daraxtlar gullayapti. // Students have arrived. Birds sang. Flowers have blossomed. Trees are flourishing.

FE'L[-ma]	-gan	-man	-miz	Men undan bu haqida so'ragan man . // <i>I have asked him/her about it.</i>
		-san	-siz	Oldin undan so'ragan sizmi ? // <i>Have you asked him/her before?</i>
		-	-lar	Men uni hech qachon ko'rmagan man . // <i>I have never seen him/her.</i>

FE'L[-ma]	-gan edi/ -gandi	-m	-k	2 yil oldin men undan bu haqda so'ragan edim . // <i>I asked her/him about it 2 years ago.</i>
		-ng	-ngiz	O'tgan yili uni ko'rgan edingiz . // <i>You saw him/her last year.</i>
		-	-lar	Biz bu filmni oldin ham ko'rmagan dik . // <i>We have not seen this film before.</i>

FE'L [-ma]	-(i)b¹⁷	-man	-miz	Kecha meni boshlig'im so'rab di , men yo'q edim . // <i>Yesterday our manager inquired for me, I wasn't there.</i> Kechirasiz, sizni ko'rmab man . // <i>I am sorry, I didn't see you.</i> U kecha meni metroda ko'rib di . // <i>He saw me in the metro. (but I didn't see her/him)</i>
		-san	-siz	
		-di	-dilar	

FE'L	-moqchi [emas/-mas]	edi (-di)	-m	-k	Men bu filmni anchadan beri ko'r moqchi edim . // <i>I would like to see this film since long ago.</i> Kechirasiz, men bu haqda sizdan so'r amoqchi emasdim . // <i>Excuse me, I wouldn't ask about this from you.</i>
			-ng	-ngiz	
			-	-lar	

¹⁷ NOTE: The paste tense form *edi* is used to express an action happened before the time of speech or at a specific time in the past.

Tense form *-gan* is used to express an action happened much before the time of speech or in the past generally (time is not necessary).

Tense forms *-ibdi*, *-ibman*, *-ibsan*, *-gan ekan* are used to tell an action which has been heard from another speaker.

Tense form *-gan edi* is used to express an action happened much before for the speaker.

FE'L	-(a)r [-mas]	edi (-di)	-m	-k	Har gal undan bu haqda so'rar edi . // <i>Every time he/she used to ask her/him about it.</i> Uni har doim shu vaqtda bekatda ko'rardim. // <i>Every time he/she used to see her/him in the station.</i> Ilgarilari sizni hech ko'rmasdik. // <i>We never used to see you before.</i>
			-ng	-ngiz	
			-	-lar	

FE'L [-ma]	-gan ekan/ emish	-man	-miz	Kecha meni so'ragan emishsiz . // <i>Yesterday you inquired for me. (I was told so)</i> 2 yil oldin ham bu haqda so'ragan ekanman . // <i>I happened to ask for it 2 years ago also. (but, now, I can't remember)</i> Bu xatni u yozmagan ekan .// <i>He didn't write this letter. (He told me about it. I didn't know about it.)</i> Bu xatni u yozmagan emish .// <i>He was said about it, but I didn't believe.</i> U do'stining ota-onasini ko'rmagan ekan . // <i>He has never seen parents of his friend. (I have just heard about it, I didn't know it then)</i>
		-san	-siz	
		-	-lar	

FE'L [-ma]	-(a) yotgan edi	-m	-k	Soat 10 da u kutubxonada dars tayyor-layotgan edi . // <i>He/she was preparing the lesson in the library at 10 o'clock.</i> Ertalab u dam olayotgan edi , hozir u nima qilayotganini bilmayman. // <i>He/she was having a rest in the morning, I don't know what he/she is doing now.</i>
		-ng	-ngiz	
		-	-lar	

O'tgan zamonning majhul nisbatdagi shakli //
Passive voice form of the past

FE'L	-(i) n/- (i)l	-di / -gan -gan edi / -(a)r edi	Yangi binolar qurildi. // <i>New buildings were built.</i> Vazifalar bajarilgan. // <i>Tasks were done.</i> Dars boshlandi. // <i>The lesson has been started.</i> Eshik ochilmagan edi. // <i>The door wasn't opened.</i>
------	------------------------------	--	---



Mashqlar

6.1. Qavs ichidagi so'zlarni to'g'ri qo'llang.

1. Kecha men kun bo'yi faqat (dam olmoq). 2. Kecha uni rosa kutdim, lekin u kelmadi, men juda (xafa bo'lmoq). 3. Biz kecha shaharni (aylanmoq), juda chiroyli joylarga (bormoq). 4. Uy vazifasi juda qiyin edi, men Nodirdan yordam so'radim, lekin u menga (yordam bermoq). 5. Men bugun erta turdim, shuning uchun darsga (kechikmoq). 6. Mening qornim to'q edi, shuning uchun men hech narsa (yemoq). 7. Mavzu juda qiyin edi, shuning uchun men yaxshi (tushunmoq). 8. Menimcha, u meni ko'rmadi, shuning uchun men bilan (salomlashmoq).

6.2. Fe'llarni to'g'ri shaklda qo'llang.

tushunmoq, yopmoq, tanishmoq, yashamoq, o'rganmoq, unutmok, bajarmoq, xafa bo'lmoq, sotib olmoq, bormoq, ko'tarmoq, tarjima qilmoq.

1. Men kecha kasal edim, shuning uchun darsga ...
2. Kechirasiz, yana bir marta takrorlang, men sizni yaxshi...
3. Yu Jin matnni lug'at bilan ...
4. Kecha men bozorda meva va sabzavotlar ...
5. Kecha biz o'zbekistonlik talabalar bilan...
6. Kechirasiz, men juda band edim, shuning uchun telefonni ..., siz ...mi?
7. Kuchli shamol boshlandi, shuning uchun men derazalarni ...
8. Kecha uyga juda kech keldim, shuning uchun uy vazifasini ...
9. Men ikki yil Moskvada ...
10. Moskvada rus tilini..., lekin hozir ancha ...

6.3. Gaplarga o'tgan zamon (-di shakli)da javob bering.

Namuna: Har kuni 10–15 ta yangi so'z yodlang. – *Kecha ham 15 ta yangi so'z yodladim.*

1. Darsga kechikmang. – Bugun ham ...
3. Iltimos, mendan xafa bo'lmang. – Yo'q, sizdan ...
4. Bu matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. – Men bu matnni kecha o'zbek tiliga...
5. Nodirga ayting, tushlik qilsin. – U do'sti bilan yarim soat oldin ...
6. Albatta, Samarqandga boring. – Men o'tgan haftada Samarqandga...
7. O'zbek milliy taomi – oshni yeb ko'ring. – Men kecha oshni...
8. Chorsu bozorini aylaning. – Biz kecha Chorsu bozorini...

6.4. Mos fe'llarni qo'yib, gaplarni to'ldiring.

1. Kecha ikki soat darsim bor edi, lekin men ...
2. Havo ancha sovuq, shuning uchun men derazalarni...
3. Ertaga o'zbek tilidan imtihonim bor, shuning uchun kuni bo'yi ...
4. Kecha do'stlarim bilan Samarqandga bordik, bir kun shaharni...
5. U menga ruscha ..., men hech narsa tushunmadim.
6. Men uni ikki soat kutdim, lekin u uchrashuvga ...

7. Biz kecha milliy taomlar oshxonasida mazali ovqat ...
8. Men unga joy berdim, lekin u bu joyga ...
9. Siz qayerliksiz? Nima uchun O'zbekistonga...?
10. Kecha Nodirning tug'ilgan kuni edi. Biz hammamiz uni...
11. Bu filmni albatta ko'ring. – Rahmat, lekin bu filmni oldin ham...
12. Ofisingiz qayerda ...?

6.5. Savollarga bo'lishsizlik shaklida javob bering.

Bugun keldingizmi? – *Yo'q, bugun kelmadim.*

1. Shu universitetni tamomlagansizmi? – *Yo'q, ...*
2. Kecha Nodir siz bilan uchrashdimi? – *Yo'q, ...*
3. Dam oldingizmi? – *Yo'q, ...*
4. Imtihonda lug'atdan foydalandingizmi? – *Yo'q, ...*
5. Ular sizni bayram bilan tabrikladilarmi? – *Yo'q, ...*
6. Bugun ko'p ishladik. Juda charchadingizmi? – *Yo'q, ...*
7. Men kecha uchrashuvimizga kelmadim. Mendan xafa bo'lmandingizmi? – *Yo'q, ...*
8. Uning taklifini qabul qildingizmi? – *Yo'q...*

6.6. -gan edi // -di// -ib kabi qo'shimchalarni qo'llab gapni to'ldiring.

1. Men yoshligimda bu yerlarga kel..., lekin juda ko'p joylarni tanimadim, chunki ko'p yangi binolar quril... 2. Siz mendan shahar xaritasini so'ra..., mana, men olib keldim. 3. Men uyda yo'q edim, Nodir menikiga kel..., rosa meni kut... 4. Nega kecha darsga kel..., sizni o'qituvchimiz so'radi. 5. Kechqurun unga xat yoz..., lekin u menga javob yozmadi. 6. Eshitdingizmi, kecha Koreyada kuchli yomg'ir yog'...

6.7. To'g'rimi yoki noto'g'rimi?

Namuna: Men hech qachon Samarqandga bormadim – *noto'g'ri (bormaganman)*

1. Kechirasiz, men biroz kechikkanman.
2. Kecha siz nima bilan shug'ullandingiz?
3. O'zbek taomlarini oldin ham yedingizmi?
4. Uylandingizmi? Farzandlaringiz bormi?
5. Men unga hozir o'zbek tilida tushuntirdim, lekin, menimcha, u meni yaxshi tushunmagan.
6. Bugun u bizni kechki ovqatga taklif qildi.
7. Men kun bo'yi unga bir necha marta qo'ng'iroq qildim, lekin u telefonni ko'tarmagan.
8. Nodir kecha sizni qidirdi, topdimi?
9. Siz qayerda tug'ildingiz?

6.8. «Men ko'rmadim, bilmadim, faqat eshitdim...» ma'nosidagi shaklni qo'ying.

Namuna: Nodir kecha Samarqandga ketdi – Nodir kecha Samarqandga ketibdi.

1. Kecha dars bo'lmadi – Kecha dars ...
2. Kecha darsga kechikdi – Kecha darsga ...
3. U juda xursand bo'ldi. – U juda...
4. U meni ko'rmadi. – U meni ...
5. U O'zbekistonga 2 yil oldin keldi. – U O'zbekistonga 2 yil oldin...
6. Biz yo'ldan adashdik. – ...
7. U meni bekatda ikki soat kutdi. – U meni bekatda ikki soat...

6.9. -moqchi edi /r-/ -ar/-di/ -gan kabi qo'shimchalarni qo'llab gapni to'ldiring.

1. Siz bilan (gaplashmoq), lekin sizni topmadim.
2. Ilgari biz u bilan tez-tez (uchrashmoq).
3. Siz qachon Toshkentga (kelmoq)?
4. Men hech qachon Samarqandda (bo'lmoq).
5. Men ilgari ingliz tilini juda yaxshi (bilmoq), lekin hozir ancha unutganman.
6. Bugun bozorga (bormoq), lekin vaqtim bo'lmadi.
7. Men ilgari har kuni sport bilan (shug'ullanmoq), lekin hozir hech vaqtim yo'q.
8. Kecha

unga (qo'ng'iroq qilmoq), u kasal ekan. 9. Siz qayerda (tug'ilmoq)?
10. Elchixonamiz shahar markazida (joylashmoq).

6.10. Quyidagilarni egasiz gapga aylantiring.

Namuna: Men eshikni ochdim – *Eshik ochildi.*

1. Biz ishni o'z vaqtida bajardik – ...
2. O'qituvchimiz darsni seshanba kuniga ko'chirdi – ...
3. O'qituvchi darsni boshladi – ...
4. O'qituvchi talabalarga imtihon savollari va topshiriqlarini berdi – ...
5. Universitetda Navro'z bayramini o'tkazdik – ...



Matnni o'qing. Yangi so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

MENING ISH KUNIM

Men bugun ishladim. Hozirgina ishdan qaytdim. Kunim yaxshi o'tdi, lekin juda charchadim. Ishim soat to'qqizdan oltigacha. Faqat yakshanbada dam olish kunim.

Bugun ertalab olti yarimda turdim. Badan tarbiya bilan shug'ullanmadim, vaqtim bo'lmadi. Ertalab qahva ichish yoqimli. To'g'rimi? Bugun nonushtada non bilan sariyog' va pishloq yedim. Keyin kiyinib, ish qog'ozlarimni olib, uydan chiqdim.

Ishga metroda bordim. Uyimning yonida metro bekati bor. Kechikmadim, o'z vaqtida ishga yetib keldim.

Mening ish joyim juda qulay va shinam. Ishimni elektron pochtamni tekshirish bilan boshladim. Uch-to'rtta xatni o'qib, javob yozdim. Bugun ishim juda ko'p bo'ldi. Ko'p odamlar bilan telefonda gaplashib, uchrashuv belgiladim. Hamma ishimga ulgurdim.

Tushlikni hamkasbim bilan birga qildim. U osh yedi. Men sho'rva ichdim. Kechqurun juda band emasman, chunki hozir oilam yo'q. Uylanmaganman. Hali o'zimga mos qizni uchratmadim.

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

1. Nodir talabami?
2. Ertalab nonushtada nima yedi?
3. U ishda nima bilan shug'ullandi?
4. Nodir uylanganmi?
5. Uning bo'sh vaqti ko'pmi?
6. Nodirning hayotida sizning hayotingizga o'xshash tomonlar bormi?

Bilib qo'ygan yaxshi!

«Charchamayapsizmi?», «Ishlaringiz yaxshimi?», «Sog'lig'ingiz yaxshimi?» degan savollarga «juda charchadim», «yaxshi emas», «kasalman» deb javob berish odat emas. Har qanday vaziyatda ham «rahmat, yaxshi», «Xudoga shukr», «bo'ladi», «yomon emas», «sekin-sekin» deb aytish kerak.

7-mavzu: HOZIRGI ZAMON MA'NOSINING IFODALANISHI

Theme 7: EXPRESSING PRESENT TENSE

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

yil, yoz, kulmoq, uxlamoq, qo'l ko'tarmoq, suhbatlashmoq, chizmoq, xayol surmoq, kompyuterda ishlamoq, yotmoq, qidirmoq, so'ramoq, odatda, shanba, yaxshi ko'rmoq, yoqmoq, gal, qop-qorong'i, sezmoq, qo'l, muzlamoq, umid qilmoq, tez, beri, ruchka, ulkan, mamlakat, nufuzli, filial, dastur, yangilamoq, zamonaviy, muammo, hukumat, hal qilmoq, nishonlamoq, tarix, tanlov, o'tkazmoq, ishlamoq, tadbirkor, kollej, professor, shifokor, bank, hamshira, turmushga chiqmoq, askar, armiya, xizmat qilmoq, sog'inmoq, dono, maslahat, bezovta qilmoq, haqiqatan, qahvaxona, kelmoq, bog', darvoza, qadimiy, ahamiyatsiz, sherik bo'lmoq, parvarish, xonadon egasi, quvonch, tanovul qilmoq.



Suhbatni o'qing.

Y: Assalomu alaykum!

N: Vaalaykum assalom!

Y: Keling, tanishaylik! Mening ismim Yuna Xirata.

N: Mening ismim Nargiza.

Y: Siz bilan tanishganimdan xursandman!

N: Men ham.

Y: Nargiza, oilalimisiz?

N: Yo'q. Siz-chi?

Y: Yo'q. Ota-onangiz bilan yashaysizmi? Oilangiz haqida gapirib bering.

N: Ha, ota-onam bilan turaman. Oilamiz katta emas. Onam, otam, singlim va men.

Y: Dadangiz ham o'qituvchimi? Onangiz-chi? U ishlaydimi?

N: Dadam tadbirkor. Onam uy bekasi. Singlim kollejdagi o'qiydi.

Y: Juda yaxshi. Mening oilam esa katta. Otam, onam, akam, opam va bir ukam bor. Otam – Vaseda universitetida professor. Onam – bolalar shifokori. Akam bankda ishlaydi. Opam hamshira. U turmushga chiqqan, ukam askar, armiyada xizmat qilyapti. Buvim va bobom ham bor.

N: Buvingiz va bobongiz siz bilan birga turadilarmi?

Y: Ha.

N: Qanday yaxshi. Mening buvim va bobom boshqa shaharda yashaydilar. Men ularni juda sog'inaman.

Y: Ha, to'g'ri aytasiz, ular bilan birga yashash menga ham yoqadi. Bobom doim menga dono maslahatlar beradilar.

Grammatik qurilmalar

Grammatik materlallar				Misollar
OT, SON, SIFAT, OLMOSH, RAVISH // NOUN, NUMBER, ADJECTIVE, PRONOUN, ADVERB	[emas]	-man	-miz	Bugun havo issiq. // <i>It is hot today.</i> 2003-yili men talaba edim, hozir o'qituvchiman. // <i>I was a student in 2003, and now I am a teacher.</i>
		-san	-siz	U birinchi kursda juda kuchli emas edi, hozir eng a'lochi talabalardan biridir. // <i>He/she was not strong in the first course, and now he/she is one of the excellent students.</i>
		-(-dir ¹⁸)	-lar	Bular yangi kitoblar. // <i>These are new books.</i>

FE'L[-ma]	-yap (-moq- da/ -yotir)	-man	-miz	Men hozir televizor ko'ryap- man . // <i>I am watching TV now.</i>
		-san	-siz	Men sizni yaxshi eshitmayap- man , iltimos, balandroq ga- piring. // <i>I'm not hearing you enough, speak louder, please.</i>
		-ti (-)	-tilar (/-lar)	U ketishga ruxsat so'rayapti. // <i>He/she is asking a permission to go.</i> O'zbekiston iqtisodi rivojlan- moqda ¹⁹ . <i>The economy of Uzbekistan is developing.</i> Ular dars tayyorlayaptilar. // <i>They are doing lesson.</i>
Faqat quyidagi fe'llar: o'tirmoq, turmoq, yot- moq, yurmoq // <i>Only the follow- ing verbs: to sit,</i> <i>to stand, to lie,</i> <i>to walk</i>	-(i)b ²⁰	-man	-miz	Men o'tirib man . // <i>I am sitting.</i>
		-san	-siz	Sen o'tirib san . // <i>You are sitting.</i> U o'tirib di . // <i>He/she is sitting.</i>
		-di	-dilar	Biz o'tirib miz . // <i>We are sitting.</i> Siz o'tirib siz . // <i>You are sitting.</i> Ular o'tirib dilar . // <i>They are sitting.</i>
FE'L[-ma]	-a/y ²¹	-man	-miz	Men universitetda o'qiyman. // <i>I study at the university.</i>
		-san	-siz	U o'zbek milliy taomlarini yaxshi ko'radi. // <i>He/she loves uzbek national foods.</i>
		-di	-dilar	Odatda , men erta turaman. // <i>I usually get up early.</i> O'qituvchi har safar o'tilgan mavzuni so'raydi. // <i>Every time teacher asks last theme.</i>

¹⁸ NOTE: affix **-dir//is** is synonym to **hisoblanadi, bo'ladi, sanaladi** // **is/are considered** and usually is used in bookish style (**not : verb + -ma + moqda**)

U ukam. / U ukamdir. / U ukam bo'ladi. / U ukam hisoblanadi. // He's my brother

¹⁹ NOTE: affixes **of -moqda, -yotir** are usually used in bookish style.

²⁰ NOTE: If the affix **-yap** is added to these verbs, an action is used to express a process: Men o'tiryapman // *I am about to sit.* (in the process of sitting) Men o'tiribman. // *I am sitting (what is he doing? He is sitting now).*

²¹ NOTE: In this case, Present-future tense the affix **-a/ -y** means action which is done every time.

Hozirgi zamon majhul nisbatdagi shakli //
Passive voice form of the present

FE'L	-(i)n/ -(i)l	[-ma] -yapti (-moqda)	Yangi binolar qurilyapti. // <i>New buildings are being built.</i> Yangi dastur ishlanmoqda. // <i>New program is being done.</i>
------	-------------------------	----------------------------------	--



Mashqlar

7.1. O'tgan zamon shaklini hozirgi zamon shakliga almashtirish.

Kecha juda band edim. – *Hozir juda bandman.*

1. O'tgan yili yoz juda issiq bo'ldi.
2. Men shu universitetda o'qituvchi edim.
3. Kasal edingizmi?
4. Bu universitetning talabalari juda kuchli edi.
5. Biz kecha sizdan juda xafa bo'ldik.
6. Kecha men uyda edim.
7. Kecha qayerda edingiz?
8. Ular sizning talabalarinigiz edilarmi?

7.2. Suratda kim nima qilyapti?

Tushuntirmoq, kulmoq, uxlamoq, qo'l ko'tarmoq, suhbatlashmoq, chizmoq, tayyorlanmoq, xayol surmoq (o'ylamoq), o'qimoq, kompyuterda ishlamoq.



- O‘qituvchi nima qilyapti?
- O‘qituvchi tushuntiryapti.
- O‘quvchi nima qilyapti?



- Nodira nima qilyapti?



- Abror nima qilyapti?



- U nima qilyapti?

	– Qiz nima qilyapti?
	– Bola nima qilyapti?
	– Bolalar nima qilyaptilar?
	– Bu qizlar nima qilyaptilar?
	– U nima qilyapti?

7.3. Savollarga bo'lishsizlik shaklida javob bering.

Namuna: U ishlayaptimi? – Yo'q, u ishlamayapti.

1. Nodir hozir o'tiribdimi? 2. Siz menikiga kelyapsizmi? 3. Temur yotibdimi? 4. Darsga tayyorlanyapsizmi? 5. U menga gapiryaptimi? 6. Siz meni qidirypapsizmi? 7. Nodir dam olyaptimi? 8. Yomg'ir yog'yaptimi? 9. Men to'g'ri yozyapmanmi? 10. Meni tushunyapsizmi?

7.4. Nuqtalar o'rniga mos qo'shimcha (-yap yoki -a/-y)ni qo'ying.

1. O'qituvchi har darsda talabalardan uy vazifasini so'ra..., hozir ham ulardan vazifani so'ra... 2. U hozir xonada o'tir..., lekin, odatda, bu vaqtda u uyga ket... 3. Men mana shu binoda ishla..., hozir chet ellik talabalar ham shu binoda o'qi... 4. Har shanba biz bozorga bor..., lekin bugun vaqtim yo'q. 5. Odatda, men bu ishlarni o'zim bajar..., lekin bugun ish juda ko'p, shuning uchun hozir Nodir menga yordam ber... 6. Qayerdasiz, men sizning uyingiz yonida tur... 7. Nima bilan bandsiz, hozir nima qil...? 8. Men faqat baliqli taomlarni yaxshi ko'r..., lekin o'zbek milliy taomlari ham menga yoq...

7.5. To'g'rimi yoki noto'g'rimi?

Namuna: Qariyb bir soatdan beri sizni pastda kutmoqchiman. – noto'g'ri (kutyapman)

1. Har gal shu xatoni qilaman.
2. Iltimos, kattaroq yozing, menga yaxshi ko'rinmaydi.
3. Qop-qorong'i, hech narsani ko'rmayman.
4. Iltimos, menga yana bir marta tushuntiring, yaxshi tushunmayman.
5. Sovuqdan qo'lim muzladi, hech narsani sezmayapman.
6. Su Jin qayerda? U xonada dars tayyorlaydi.
7. U bilan uchrashishga hali ham umid qilyapman.

7.6. To'g'ri javobni t'anlang.

- | | |
|---|------------------------|
| 1. Bu yil men universitetni... | A. gaplashyapti |
| 2. Kechirasiz, siz meni ... | B. eshitmayapman |
| 3. Odatda, biz bu binoda ... | D. yozmayapti |
| 4. Har kuni universitetga ... | E. qiynalyapman |
| 5. – Nodir qani? – U o'qituvchi bilan... | F. kutyapti |
| 6. Tezroq keling, u sizni 2 soatdan beri... | H. tamomlayapman |
| 7. Kechirasiz, sizda ruchka bormi? | |
| Mening ruchkam ... | I. amalga oshirilmoqda |
| 8. Men sizni ..., balandroq gapiring. | J. tanimayapsizmi |
| 9. Mamlakatda ulkan ishlar... | K. kelasizmi |
| 10. O'zbek tili darsida biroz ... | L.o'qimaymiz |

7.7. Egasiz gaplarga almashtiring.

Namuna:

Shahardagi o'zgarishlarni sezyapsizmi? – Shahardagi o'zgarishlar sezilyaptimi?

1. Vazifalarni o'z vaqtida bajaryapmiz.
2. Toshkentda nufuzli chet el universitetlari o'z filiallarini ochmoqda.
3. O'qituvchilar o'quv dasturlarini yangilayaptilar.
4. Binokorlar yangi zamonaviy binolar quryaptilar.
5. Hukumatimiz yoshlar uchun turli tadbirlar tashkil etyapti.
6. Nima uchun muammolarni hal qilmayapsiz?
7. Shu kunlarda O'zbekistonda Navro'z bayramini keng nishonlayapmiz.
8. «Tarixni kim yaxshi biladi?» tanlovini o'tkazyapmiz.



Matnni o'qing. Yangi so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

DO'PPI HAQIDA

Do'ppi – o'zbek milliy bosh kiyimi, qattiq yoki yumshoq qalpoqcha. Hozir ham o'zbek xalqining hayoti va an'analarida o'z o'rniga ega. «Do'ppi» so'zi turkcha «tepa» so'zidan olingan, faqat o'zbeklar emas, balki boshqa Markaziy Osiyo xalqlarining ham milliy bosh kiyimidir. Bolalar do'ppilarining matolari rang-barang, popuklari katta, kashtalari, zarlari va tumorlari ko'p bo'ladi. O'zbek do'ppilarining eng ko'p tarqalgan shakllari to'rt qirrali do'ppilardir. Do'ppi ustida ipak, zar yoki kumush ip bilan kashta tikilar edi. Do'ppi tikish san'atini avvaldan ayollar o'rganar edi. Do'ppilardagi eng ko'p uchraydigan naqsh gul, bodom naqshidir. Geometrik shakllardagi naqshlar ham juda ommaviy. Turli viloyatlarda yaratilgan do'ppilarning shakli, naqshlari va tanlangan ranglari har xil bo'ladi. O'zbekistonning ko'pgina hududlarida Chust do'ppilari juda mashhur. Chust do'ppilarida to'rt dona qalampir shaklidagi oq naqsh tikiladi.

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

1. Do'ppi qanday kiyim?
2. Hozir ham o'zbeklar do'ppi kiyadilarmi?
3. Bolalar do'ppisi bo'ladimi?
4. Do'ppining shakli qanday bo'ladi?
5. Do'ppidagi naqshlar bir xil bo'ladimi?
6. O'zbekistonda qaysi do'ppi mashhur?

8-mavzu: KELASI ZAMON MA'NOSINING IFODALANISHI

Theme 8: EXPRESSING FUTURE

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

necha, hamkor, tuman, charchamoq, aql, sarflamoq, hikoya, kafe, xavotir olmoq, matn, javob bermoq, hurmat qilmoq, uch, harakat qilmoq, qo'shilmoq, bo'ylab, kabob, teatr, sayohat qilish, yomon ko'rmoq, safar, xohlamoq, aks holda, asar, tengdosh, ulgurmoq, ketmoq, kamaymoq, qavat, yotmoq, uyg'onmoq, supermarket, o'z, har xil, umuman, hal qilmoq, o'xshamoq, olijanob, sovg'a, mehribon, ayol, bola, eslamok, yakshanba, ikkilanmoq, maslahat bermoq, zerikmoq, sog'inmoq, farq qilmoq, xiyobon, urf-odat, an'ana, marosim, rang-barang, betakror, bezatmoq, karnay-surnay, tarqalmoq, uzatmoq, yelka, chaqaloq, ishtirok, yo'rgaklamoq, qimmatbaho, sarupo/sarpo, raqsga tushmoq.



Suhbatni o'qing.

- Nodir, iltimos, Nigoraga ayting, men ertaga universitetga kelmayman.
- Nimaga?
- Ertaga talabalar bilan Amir Temur muzeyiga bormoqchimiz.
- Qaysi talabalar bilan?
- Koreyadan kelgan talabalar bilan.

- Ular bilan qayerda uchrashasiz?
- Soat o'n birda Amir Temur xiyobonida.
- Ular Amir Temur xiyobonini biladilarmi?
- Ha, men ularga tushuntirdim. Bir talabam u yerni yaxshi bilar ekan.
- Balki, Nigora ham siz bilan birga borar?
- Nigora qachon keladi? Men hozir ketmoqchi edim.
- U bir soatlarda kelsa kerak. Ish bilan ketgan edi.

Grammatik qurilmalar

Grammatik materiallar				Misollar
FE'L [-ma]	-a/y ²²	-man	-miz	Ertaga issiq bo'ladi . // <i>It'll be hot tomorrow.</i> Uni ertaga ko' raman . // <i>I'll see him tomorrow.</i> Uni hech qachon ko' rmayman . O'qituvchi har safar o'tilgan mavzuni so' raydi (<i>hozirgi-kelasi zamon</i>), ertaga ham, albatta, mendan so' raydi .
		-san	-siz	
		-di	-dilar	
FE'L	-moqchi [emas/-mas] // <i>will[will not (won't)]</i>	-man	-miz	Ko'rishganimizda undan bu haqda so' ramoqchiman . // <i>I will ask him about it when I see him.</i> Men uni ko' rmoqchi emasman . // <i>I don't want to see him/her.</i> Siz bilan gaplash moqchimiz , hozir vaqtingiz bormi? // <i>We are going to speak to you, do you have a time?</i> Uzr, siz hozir ket moqchimisiz ? // <i>Sorry, are you going to anywhere?</i>
		-san	-siz	
		–	-lar	

²² NOTE: the affix of -a/ y in this case means future tense meaning.

FE'L	-(a)r [-mas]	-man	-miz	Balki , ertaga so'rarman. // <i>May be, I will ask him tomorrow. (not clear, supposition)</i>
		-san	-siz	Ehtimol , endi uni hech qachon ko'rmassiz. // <i>May be, you will never see him.</i>
		-	-lar	Buni, balki, sizga aytmalar. // <i>May be, you will not be said this.</i>
Kelasi zamonda majhul nisbat shakli // Passive voice form of the future				
FE'L	-(i)n/ -(i)l	-a/y	-di	Bu yerda yangi binolar quriladi. // <i>New buildings will be built here.</i>



Mashqlar

8.1. Qo'shimchalar (-a yoki -y)ni qo'yib, gapni to'ldiring.

1. Siz ertaga universitetga soat nechada kel...?
2. Odatda, kim bilan va qayerda tushlik qil...?
3. Bugun kechqurun biz hamkorlarimiz bilan uchrash...
4. Siz qaysi tumanda yasha...?
5. Siz o'zbek tilini yaxshi bil...mi?
6. Ertaga darsda biz matnni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qil...
7. Men bugun juda charchadim, shuning uchun ertaga dam ol...
8. U har doim pulni aql bilan sarfla...
9. Siz qanday taomlarni yaxshi ko'r...
10. Har kuni kechqurun men o'zbek tilida hikoya o'qi...

8.2. Qavsni oching.

1. Biz har kuni u bilan mana shu kafeda (uchrashmoq), lekin u bugun nimagadir (kelmoq), u menga (qo'ng'iroq qilmoq) ham, shuning uchun hozir men undan juda (xavotir olmoq). 2. Men eshitdim: siz hech qachon Samarqandga (bormoq), shuning uchun dam olish

kuni sizni Samarqandga (taklif qilmoq), menimcha, bu shahar sizga juda (yoqmoq). 3. Biz har kuni darsda o'zbek tilida (gapirmoq), matn (o'qimoq), keyin o'qituvchimiz bizga (savol bermoq), biz (javob bermoq), darsning oxirida esa tushunmagan narsalarimizni (so'ramoq), o'qituvchimiz bizga (tushuntirib bermoq). 4. Men ko'p tillarni biladigan odamlarni (hurmat qilmoq), o'zim ham uchta tilni (bilmoq), hozir esa o'zbek va rus tillarini (o'rganmoq), o'qituvchilarim juda yaxshi (o'rgatmoq), men ham juda (harakat qilmoq), har kuni kechqurun 15 – 20 ta yangi so'z (yodlamoq).

8.3. Gapni kelasi zamonga aylantiring.

Namuna:

Kecha do'stlarim bilan shu bog'da uchrashdik. – Ertaga do'stlarim bilan shu bog'da uchrashamiz.

1. Kecha tuni bo'yi dars tayyorladim.
2. Ota-onangizni bayram bilan tabrikladingizmi?
3. U sizning fikringizga qo'shilmadi.
4. Biz O'zbekiston bo'ylab sayohat qildik.
5. Men sizdan xavotir oldim.
6. Bozorda hech nima sotib olmadingizmi?
7. O'tgan haftadan havo ancha sovuq bo'ldi.
8. Sport bilan shug'ullangansizmi?

8.4. To'g'rimi yoki noto'g'rimi?

1. Men kecha o'zbek milliy taomlari oshxonasiga bordim, men osh, kabob juda yaxshi ko'rdim.
2. Menga kuz juda yoqaman.
3. Siz menga juda yoqasiz.
4. Unga kechqurun sayr qilishni juda yoqadi.
5. Men kecha birinchi marta Toshkentdagi muhtasham teatriga bordim, men bu teatrni juda yaxshi ko'raman.
6. Men yog'li taomlarni yomon ko'raman.

7. Sizga sayohat qilish yoqasizmi?

8. O'qituvchimiz darsga kechikadigan va vazifalarni o'z vaqtida tayyorlamaydigan talabalarni yomon ko'radi.

8.5. To'g'ri javobni tanlang.

1. Bugun u darsga kelmadi, ertaga ham ...mi?

A. keladi B. kelmaydi C. kelmas

2. Uning ismini har safar...

A. unutaman B. unutyapman C. unutdim

3. Bilaman, siz juda charchayapsiz, balki, ...?

A. dam olasiz B. dam olsangiz kerak C. dam olarsiz

4. Shu mavzuda har gal ..., mana, bugun ham yozma ishda yana ...

A. xato qilaman, xato qilyapman.

B. xato qilaman, xato qildim.

C. xato qilyapman, xato qilarman.

5. Axir, men sizga ..., nima uchun siz...?

A. yordam bermoqchiman, xohlamayapsiz B. yordam beryapman, xohlamadingiz C. yordam beraman, xohlamadingiz

6. Iltimos, ertaga biznikiga ..., ..., aks holda, juda ...

A. kelasiz, kutyapman, xafa bo'lmadim B. keling, kutaman, xafa bo'laman C. keling, kutmoqchiman, xafa bo'lmayman

7. Menga tarixiy filmlar juda..., tarixiy asarlarni o'qishni ham ...

A. yoqadi, yaxshi ko'raman B. yoqaman, yoqadi C. yoqadi, yoqadi

8. O'zbeklar kattalar bilan «Assalomu alaykum» deb ..., tengdoshlariga esa «salom», «yaxshimisiz», «qalaysiz»...

A. salomlashyaptilar, aytadilar B. salomlashadilar, deydilar C. salomlashdilar, dedilar

8.6. Bo'lishsizlik shaklida savollarga javob bering.

1. Ertaga menga qo'ng'iroq qilasizmi? – Yo'q, qo'ng'iroq qilmayman.

2. Qora choy ichasizmi? – Yo'q,...

3. Universitetga har kuni borasizmi? – Yo‘q, ...
4. Bu avtobus Qo‘yliq bozoriga boradimi? – Yo‘q, ...
5. Imtihonda lug‘atdan foydalanasizmi? – Yo‘q, ...
6. 2 soat vaqtimiz bor, ulgurasizmi? – Yo‘q, ...
7. Kechirasiz, men ketmoqchiman, xafa bo‘lmaysizmi? – Yo‘q, ...
8. Tushlikdan keyin bozorda odamlar kamayadimi? – Yo‘q, ...

8.7. Quyidagi gaplarni to‘ldiring.

1. Ertaga imtihonim bor, shuning uchun bugun kechqurun imtihonga ...
2. Men mana shu ko‘p qavatli binoda 10 yildan beri...
3. Qahva ichasizmi? – Ertalab ichgan edim, shuning uchun...
4. Juda kech yotaman, ertalab uyg‘onishim qiyin, shuning uchun har kuni darsga...
5. Uyining yonida bozor yo‘q, shuning uchun u hamma narsalarni supermarketdan...
6. Men ota-onamdan uzoqda yashayman, shuning uchun hamma muammolarimni o‘zim...
7. Nodiraning singlisi bor, lekin ular bir-birlariga umuman ...
8. Nodira onasiga o‘xshamaydi, meningcha, u otasiga ...
9. Bilmaysizmi, do‘kon ertalab soat nechada ...?
10. Nodirning ishi juda ko‘p, hozir u ishlayapti, meningcha, u kechgacha xonasidan ...

8.8. To‘g‘ri javobni tanlang.

1. U juda olijanob inson, shuning uchun hamma uni juda ...
A. tanlamaydi
2. Men unga sovg‘a oldim, lekin hozir hech kimga ...
B. gaplashmoqchiman
3. U juda mehribon ayol, hech kimga yomon ...
D. e‘tibor bermaydi
4. Vaqtingiz bormi? Siz bilan...
E. o‘rganaman

5. U siz bilan ..., lekin siz xonangizda yo'q edingiz
F. gapirmaydi
6. Men bolaligimni juda yaxshi ... G. o'rgataman
7. U hech qachon odamlarning kiyimlariga...
H. gaplashmoqchi edi
8. U hech qachon ovqat ... I. eslayman
9. Men chet ellik talabalarga o'zbek tilini...
J. hurmat qiladi
10. O'zim o'qituvchiman, lekin talabalardan ham juda ko'p narsa ...
K. ko'rsatmayman

8.9. Xatolarni toping.

1. Men unga sotib olgan lug'atlarimni ko'rsatmoqchiman, lekin u bugun o'qishga (=darsga) kelmadi.
2. Men har kuni ishlaman, faqat yakshanbada dam olaman.
3. U ertaga o'zbekistonlik hamkasblari bilan uchrashdi.
4. Bugun u ofisga kelmadi, unga qo'ng'iroq qildim, u kasal.
5. Men hech qachon sizni unutmaman.
6. U menga qo'ng'iroq qildi, ertaga biz bilan Samarqandga bordi ekan.
7. Men hozir juda ikkilanaman, iltimos, menga maslahat bering: qaysi birini olaman?
8. Menga O'zbekiston juda yoqdim, siz ham biznikiga keling, sizga ham mening shahrim, albatta, yoqasiz.
9. Onajon, bu shahar menga juda yoqdi, odamlari ham juda mehribon, hech ham zerikmayapman, faqat sizni juda sog'inmoqchiman.
10. O'zbek tili sizning ona tilingizdan juda farq qildimi?

8.10. «balki» (-(ma)gandir, -(ma)yotgandir, -r/-ar, -mas) kabi qo'shimchalar bilan yangi gaplar hosil qiling.

1. U ertaga keladimi, kelmaydimi, men bilmayman – U ertaga, balki, kelar, balki, kelmas.
2. U hozir meni xonada kutyapti. – Balki, ...

3. U kecha uyiga juda kech keldi. – Balki, ...
4. U o'zbek tilini yaxshi bilmaydi. – Balki, ...
5. Siz unga hamma narsani gapirib bering, u sizni tushunadi. – Balki,...
6. Kecha Samarqanddan keldi, hozir dam olyapti. – Balki,...
7. Xafa bo'lmang, u sizni tanimadi. – Balki, ...
8. Undan iltimos qilaman, u menga yordam beradi. – Balki, ...
9. Unga yaxshilab tushuntiring, u xafa bo'lmaydi. – Balki, ...
10. Darsga albatta lug'at olib keling, foydalanasiz. – Balki, ...



Matnni o'qing. Yangi so'zlarni daftaringizga yozib oling.

BESHİK TO'YI HAQIDA

Har bir xalqning o'z urf-odatları va an'analari bor. Ba'zi odatlar juda chiroyli, ba'zi odatlar esa juda qadimiydir. O'zbek xalqining urf-odatları ham juda ko'p va rang-barang. Menimcha, sharq xalqlari qiziqarli an'analarga boy. O'zbek xalqining to'ylari juda ko'p. Shuning uchun ham to'y o'zbeklar uchun muhim marosim: nikoh to'yi, beshik to'yi, o'g'il to'yi, uy to'yi va boshqa to'ylarimiz bor.

Oilada tug'ilgan farzand uchun to'y qiladilar. O'zbeklarda bu to'yni «Beshik to'yi» deydilar. Bu – xalqimizning go'zal va betakror marosimlaridan biri. Beshik to'yida chaqaloqni birinchi marta beshikka yotqizadilar. Bu eng qadimgi va eng keng tarqalgan marosim. Odatda, bu to'y uyda o'tkaziladi. Mehmonlar chiroyli bezatilgan beshik, turli taomlar va sovg'alarni olib, chaqaloq tug'ilgan uyga boradilar. Karnay-surnay chalinadi. Odatda, beshikni chaqaloqning uyiga buvisi olib kiradi. Mehmonlar bezatilgan dasturxon atrofiga o'tiradilar. Turli taomlar dasturxonga tortiladi. Xonandalar chiroyli, sho'x kuylar chalib, qo'shiq aytadilar. Qizlar, ayollar raqsga tushadilar. Qo'shni xonada esa momolar chaqaloqni beshikka yotqizadilar. Bu marosim juda chiroyli. Mehmonlar chaqaloqqa sovg'alar beradilar. Qariyalar beshikning ustidan parvarda yoki qand,

konfet sochadilar. Mehmonlar esa yaxshi niyat bilan u shirinliklarni olib yeydilar.

Bu to'yga ko'p mehmon keladi. Buvi-buvalar bir-birlariga sarpo (kiyim)lar sovg'a qiladilar. Yosh ota-onaga ham ko'p qimmatbaho va bola parvarishi uchun kerakli narsalarni sovg'a qiladilar. Bu esa yosh oilaga katta yordam. O'zbek to'ylari juda chiroyli o'tadi.

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

- 1. Beshik to'yi qachon bo'ladi?*
- 2. To'y odatda, qayerda bo'ladi?*
- 3. Kim birinchi chaqaloqni beshikka yotqizadi?*
- 4. Nima uchun yosh ota-onaga juda ko'p narsalarni sovg'a qiladilar?*
- 5. Sizning urf-odatlaringizda ham shunday marosim bormi?*

9-mavzu: O'ZGALAR FIKRINI IFODALASH USULLARI

Theme 9: EXPRESSING REPORTED SPEECH

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

demoq, shekilli, tashabbuskor, rahbar, ehtiyot bo'lmoq, tayinla-
moq, uzr so'ramoq, kechirim so'ramoq, afsuslanmoq, hayron qol-
moq, uf tortmoq, xursand bo'lmoq, buncha, ming, qaytmoq, ach-
chiq, yurt, bilmoq, isitma, xijolat, davom ettirmoq, chuqur, taklif.



Suhbatni o'qing.

- Hozir telefonda Nodir bilan gaplashdim.
- U nima dedi?
- Kasal ekan. Ahvolim yomon, isitmam chiqyapti dedi.
- Yaxshi bo'lmabdi. Kecha ancha yengil kiyingan edi. Havo juda sovuq edi.
- Ertaga kelar ekanmi?
- Yo'q, dushanbada boraman dedi. Sizdan uzr so'rab, salom aytdi. Juda xijolat ekan.
- Hechqisi yo'q.

Grammatik qurilmalar

Grammatik materiallar			Misollar
O'zgarlar fikrini aynan ifodalash (ko'chirma gap) // Direct speech			
«K ²³ , // DS	m ²⁴ , // AS,	K».	«Men, –dedi do'stim, – kela olmayman». // «I, – said my friend, – can not come».
«K»,		m.	«Men bugun kela olmayman», – dedi do'stim.
M:		«K? /!»	Do'stim so'radi: «Sen ertaga kela olasanmi?»
M:	«K»,	m.	Do'stim: «Men bugun kela olmayman», – dedi.
M:		«K».	Muxbir dedi: «Sizga bir savolim bor». // The reporter said: «I've got a question for you».

O'zgarlar fikrini o'zlashtirish orqali ifodalash – o'zlashtirma gapdir //

To report what the speaker has said – indirect/reported speech

Ko'chirma gap o'tgan zamon shaklida bo'lsa //

If the direct speech is in the past tense

Ko'chirma gap // Direct speech	O'zlashtirma gap // Indirect speech
«Mashg'ulotlarim bugun bo'lmadi»,– dedi u. // «I haven't had my lessons today», – said he.	U mashg'ulotlari bugun bo'lmaganini aytdi. // He said that he hadn't had his lessons that day.

Grammatik materiallar					Misollar
FE'L	[-ma] -gan	-im	-imiz	-ni ayt- moq	«Men bu yil institutga kirdim», – dedi u. // «I have entered an institute this year», – said she. U bu yil institutga kirganini aytdi. // She said that she had entered an institute. «Voy, meni juda xursand qilding», – dedi u. U juda xursand bo'lganini hayajon bilan gapirdi.
		-ing	-in-giz		
		-i	-lari		

²³ Ko'chirma gap – K // Direct speech – DS

²⁴ Muallif gapi – M // Author's speech – AS

Ko'chirma gap hozirgi zamon shaklida bo'lsa // <i>If the direct speech is in the present tense</i>	
Ko'chirma gap // <i>Direct speech</i>	O'zlashtirma gap // <i>Indirect speech</i>
«Hozir mashg'ulotlar bo'lyapti », – dedi u. //	<u>U hozir mashg'ulotlar bo'layotganini aytdi. //</u>
«Now we are having our lessons», – said he.	<u>He said that they were having their lessons then.</u>

Grammatik materiallar					Misollar
FE'L	[-ma] -(a) yotgan	-im	-imiz	-ni ayt- moq	«Uxlagim kelyapti», – dedi u. // «I want to sleep», – said she. / <u>U uxlagisi kelayotganini aytdi. // She said that she wanted to sleep.</u>
		-ing	-ingiz		«Men boshqa shaharga ketyapman», – dedi u. <u>U boshqa shaharga ketayotganini aytdi.</u>
		-i	-lari		«Siz meni eshityapsizmi?» ²⁵ , – deb so'radi u. / U mendan eshitayotganimni so'radi // <i>He asked what I was listening to (=this form is incorrect)</i> <u>U mendan uni eshityapmanmi yoki yo'qmi. shuni so'radi. / U mendan eshityapsizmi deb so'radi.</u>

Ko'chirma gap kelasi zamon shaklida bo'lsa // <i>If the direct speech is in the future tense</i>	
Ko'chirma gap // <i>Direct speech</i>	O'zlashtirma gap // <i>Indirect speech</i>
«Ertaga mashg'ulotlar bo'ladi», – dedi u. // «There will be lessons tomorrow», – said he.	<u>U ertaga mashg'ulot bo'lishini aytdi. // He said that there would be lessons the next day.</u>

²⁵ NOTE: There are some exceptions.

EXCEPTION: An interrogative sentences with a particle -mi.

«Hozir dam olyapsanmi?» – deb so'radi u. U mendan dam olyapmanmi yoki yo'qmi, shuni so'radi. U mendan «dam olyapsanmi?» deb so'radi. // «Are you having a rest now?» – asked he. He asked me whether I was having a rest or not. He/she asked me «Are you having a rest now?»

Grammatik materiallar					Misollar
FE'L	-ish [-maslik]	-im	-imiz	-ni ayt- moq	U: «Ertaga kelaman», – dedi. // <i>He said: «I will come tomorrow».</i> <u>U ertaga kelishini aytdi. //</u> <i>He said that he would come the next day.</i>
		-ing	-ingiz		« Balki , ertaga kelarman», – dedi u. ²⁶ U ertaga kelishini aytdi. (=this is incorrect)
		-i	-lari		U ertaga kelishi mumkinligini aytdi.

Ko'chirma gapning kesimi ot-kesim bo'lsa //	
If the predicate of the reported speech is expressed with a linking verb	
Ko'chirma gap // <i>Direct speech</i>	<u>O'zlashtirma gap // <i>Indirect speech</i></u>
«Bizga qo'shimcha axborot kerak (edi) », – dedi u. // «We need (ed) further information», – said he.	<u>U qo'shimcha axborot kerakligini aytdi. //</u> <i>He said that he needed further information.</i>

Grammatik materiallar					Misollar
OT- KESIM	[e/mas] -lik	-im	-imiz	-ni ayt- moq	«Ishim ko'p», – dedi u. // «I have got a lot to do», – said he. <u>U ishi ko'pligini aytdi. //</u> <i>He said that he had a lot to do.</i>
		-ing	-ingiz		«Bugun havo sovuq emas», – dedim. <u>Men bugun havo sovuq emasligini aytdim.</u>
		-i	-lari		« Voy ²⁷ , juda sovuq ekan-ku», – dedi u. <u>U juda sovuq ekanligini hayratlanib aytdi.</u>

²⁶ EXCEPTION: Future tense is in a clause of a hypothetical type. «Ertaga, balki, uchrasharmiz», – deb so'radi do'stim. Do'stim ertaga uchrashamizmi yoki yo'qmi, shuni so'radi. Do'stim ertaga «uchrasharmiz?» – deb so'radi.

²⁷ NOTE: In this case:

EXCEPTION: Interjections and parenthetical words in the direct speech are omitted when converted into the indirect speech.

«Iye, bu nima?» – so'radi u. U bu narsaning nimaligini taajjublanib so'radi. // «Oh, what is this?» – asked she. She was surprised at that.

Aytishlaricha,...
Ularning fikricha, ...

1. Aytishlaricha, bu voqea X asrda bo'lgan ekan.
2. Ularning fikricha, bu asar yuz yil oldin yozilgan.
3. Uningcha, biz ingliz tilini yaxshi bilamiz.
4. Uning fikricha, tadbir ertaga bo'lgani yaxshiroq.



Mashqlar

9.1. Gaplardan foydalanib savollarga javob bering.

Namuna:– Havo juda issiq.

– U nima dedi? – U: «Havo juda issiq», – dedi.

1.– Kechirasiz, men ertaga kelmayman.

– U nima dedi?

2.– Siz kimsiz?

– U nima dedi?

3.– Meni kutmang, o'zim boraman.

– U nima deyapti?

4.– Bugun juda charchadingizmi?

– U nima deyapti?

5.– Ertaga ishlaysizmi?

–U nima dedi?

6.– Keling, biroz dam olaylik.

– Nima deyapsiz?

9.2. Xatolarni toping.

Namuna:

«Ertaga juda bandman», – Nodir dedi. //«**Ertaga juda bandman**», – dedi Nodir.

(Nodir: «Ertaga juda bandman», – dedi)

1. «Siz Nodirning ukasimisiz?»– so'radi u.

2.«Men koreyalik talabaman», – ayting.

3. U aytdi: «Men juda bandman, ertaga keling».

4. U mendan xafa bo'ldi, shekilli, o'yladim.

5. Uni juda kuchli rahbarligini hisoblayman.

6. U aytdi: «Ertaga dars bo'lmaydi».

9.3. Gaplarni o'zlashtirma gapga aylantiring.

«Men ikki yil Moskvada yashadim», – dedi Nodir. – Nodir ikki yil Moskvada yashaganini aytdi.

1. «Men hozir juda bandman, keyinroq qo'ng'iroq qiling», – dedi u.

2. «Havo juda sovuq»,– dedi Bahodir va derazalarni yopdi.

3. «Ko'chada ehtiyot bo'ling», – deb aytdi o'qituvchimiz.

4. Onam: «Menga tez-tez qo'ng'iroq qilib tur», – deb tayinladilar.

5. «Men berilgan vazifani ikki haftada bajardim», – dedi Gulhayo.

6. «Matnni o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilyapman», – dedi talaba.

7. «Juda shoshyapman, do'stlarim metro bekati yonida kutish-yapti», – deb Botir metro tomon yugurib ketdi.

8. «Kechirasiz, bugun vaqtim yo'q», – dedim.

9. «Ertaga universitetda uchrashamiz», – deb Akmal biz bilan xayrlashdi.

10. «Men Samarqandga bormayman, ishim juda ko'p», – deb Obid bizdan uzr so'radi.

9.4. Nuqtalar o'rniga mos fe'lni qo'ying.

~~Uzr so'ramoq~~, kechirim so'ramoq, afsuslanmoq, hayron qolmoq, xursand bo'lmoq, uftortmoq

1. «Kechirasiz, lekin siz so'ragan kitob hozir yonimda yo'q», – dedi Nodir. // Nodir u (men) so'ragan kitob hozir yonida yo'qligini aytib ... (uzr so'radi).

2. «Uff, hech narsaga tushunmadim», – dedi u. // U hech narsaga tushunmaganini aytib, ...

3. «Voy, siz o'qituvchimisiz, men sizni talaba deb o'ylabman», – dedi Qodir. // Qodir uning o'qituvchiligini bilib juda ..., uni talaba deb o'ylaganini aytdi.

4. «Eh, yana ulgurmadim», – dedi Nodira. //Nodira ulgurmagani-ni aytib, juda...

5. «Buncha chiroyli gullar... mengami?.. Katta rahmat!» – dedi o'qituvchimiz. // O'qituvchimiz gullarni ko'rib, juda ...

6. «Uzr, ming bor uzr, sizni xafa qilmoqchi emasdim», – dedi Alisher. // Alisher uni xafa qilmoqchi emasligini aytib, ...

9.5. Qavs ichidagi so'zlarni to'g'ri shaklda yozing.

1. U ertalab nonushta (qilmoq) aytib, oshxonaga kirib ketdi.
2. U o'zbek tilini yaxshi (bilmoq) aytib, mendan yordam so'radi.
3. Men Yodgorga qo'ng'iroq qildim, u hozir (ishlamoq) aytdi.
4. Shokir yo'q, biroz kutib turing. U yarim soatlarda (qaytmoq) aytib, yugurib chiqib ketdi.
5. Uning (kelmoq) bilmagan edim, shuning uchun ko'rib juda hayron qoldim.
6. Siz achchiq choyni (yomon ko'rmoq) bilaman.
7. Men sizning (kelmoq) ko'rmabman, qachon keldingiz?
8. U qayerda (yashayapsiz) so'rayapti.
9. U nima uchun (kechikdingiz) bilmoqchi.
10. Men nima (dedim) eshitmadingizmi?

9.6. To'g'risini tanlang.

- | | |
|---|-----------------------|
| 1. U mendan yurtim haqida ... so'radi. | A. yopilishini |
| 2. U hech qachon o'zbek milliy taomlarini... aytdi. | B. kimligimni |
| 3. U ... juda xursand bo'ldi. | D. so'zlab berishimni |
| 4. Do'konlar soat nechada ...bilmoqchi edim. | E. kelishini |
| 5. Nima ... bilaman. | F. bilganlarimni |
| 6. U qachon ... menga qo'ng'iroq qilib aytadi. | J. kelganingizdan |
| 7. ... sizga aytib berdim. | K. yeb ko'rmaganini |
| 8. U men ... sizga aytdimi? | L. demoqchiligingizni |



Matnni o'qing. Yangi so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

«QOLGAN ISHGA QOR YOG'AR»

Vaqt – inson uchun haqiqiy boylik. Shuning uchun o'zbeklarda «Oltin topiladi, vaqt topilmaydi» degan maqol bor. Juda ko'p o'zbek xalq maqollarida vaqtning qadriga yetishni, har bir ishni o'z vaqtida bajarish kerakligini, ishni keyinga surmaslikni maslahat beradilar. Buning aksi yomon oqibatlarga olib kelishini har xil maqollar bilan tushuntiradilar. Masalan, «Yozda bitmagan tom qishda bitmaydi», «Vaqtning ketdi – baxting ketdi» kabi.

Bizning xalqimiz ko'p asrlar davomida dehqonchilik bilan shug'ullangan. Shuning uchun maqollarimiz ham shu mavzu bilan bog'liq. Ekinni erta ekish kerakligi, qish g'amini yozda yeyishni, yerni kuzda haydash zarurligi haqida ko'plab maqollarimiz bor. Bu maqollarni biz dehqonchilik bilan bog'liq bo'lmagan boshqa sohalarda ham qo'llaymiz. Masalan, «Erta ekkan erta o'rar» deydilar. Har bir ishni o'z vaqtida bajargan odam natijasini ham vaqtida oladi. Xalqimiz orasida eng mashhur maqollardan biri –« Bugungi ishni ertaga qo'yma».

«Osh qolsa – davlat, ish qolsa – mehnat» degan maqol ham juda to'g'ri. Chunki bugundan qolgan ish odamga ortiqcha mehnat bo'ladi. Ertangi kunning o'zining ishlari yetarli. Shuning uchun xalqimiz har bir ishni o'z vaqtida bajarish eng to'g'ri yo'l ekanini uqtiradi. Axir aytadilar-ku: «Qolgan ishga qor yog'ar», – deb.

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

1. O'zbek xalqi qadimda nima bilan shug'ullangan?
2. Nima uchun o'zbek xalq maqollari dehqonchilik bilan bog'liq?
3. «Erta ekkan erta o'rar» maqolini qanday tushundingiz?
4. Nima uchun bugungi ish ertaga qolsa, davlat emas, mehnat bo'ladi?
5. «Qolgan ishga qor yog'ar» maqolini misollar bilan tushuntirib bering.
6. Shu mavzuda qanday maqollarni bilasiz?

10-mavzu. MIQDORNI IFODALASH YO'LLARI

Theme 10: WAYS OF EXPRESSING QUANTITY

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

hayot, orqa, old, o'lchamoq, kesmoq, yetti, bir og'iz, ko'kat, tarvuz, tilim, qism, roman, iborat, pishloq, non, shingil, nol, butun, to'qson, to'qqiz, taqsim, nimchorak, o'n, besh, eslab qolmoq, do'st, ekologiya, masala, bag'ishlamoq, xalqaro, anjuman, ommabop, axborot, vosita, jurnalist, ishtirok etmoq, taxminan, istak, xorij, javon, yigirma, test, nafar, kartoshka, kilo, qop, turshak, dasturxon, ushatmoq, ekmoq, axir, hovuch, burda, tup, kam, ko'p, oz, biroz, jindek, ko'rsatuv, sevimli, tuz, yana, dono, piyoz, so'm, hayotiy, tajriba, mashq qilmoq, katak, sakkiz, qalam, yigirma, sifat, santimetr, o'ttiz, chizg'ich.



Suhbatni o'qing.

Do'konda

- Yaxshimisiz?
- Keling, xizmat?
- Menga katak daftar bering.
- Bizda o'n ikki varaqli, o'n sakkiz varaqli, yigirma to'rt varaqlisi bor. Qaysi biridan beray?

- Hammasidan ikkitadan bering. Rangli qalamlaringiz ham bormi?
- Ha, oltita, o'n ikkita, yigirma to'rttaligidan bor. Hammasining sifati juda yaxshi.
- Yigirma to'rttaligidan bitta bering. O'ttiz santimetrli chizg'ich bormi?
- Ha, mana, ikki xili bor.
- Menga mana shunisini bering.
- Bittami?
- Yo'q, ikkita.
- Yana nima?
- Hozir, bir daqiqa. Ro'yxatim bor edi, qaray-chi...

Grammatik qurilma

Son yordamida			
Miqdor son // <i>Cardinal number</i>		1, 2, 3, 4, 5...	bir, ikki, uch, to'rt, besh... // <i>one, two, three, four, five...</i>
Dona son ²⁸ // <i>Single-piece number</i>	-ta	1 ta, 2 ta, 3 ta	bitta ²⁹ , ikkita, uchta // <i>one, two, three</i>
Taqsim son // <i>Dividing number</i>	-tadan	1 tadan, 2 tadan	bittadan, ikkitadan // <i>one (to each of them), two (to each of them)</i>
Jamlovchi son // <i>Collective numbers</i>	-ov, -ala, -ovlon	2 + ov, 5+ala, 7+ovlon	ikkov, beshala, yettovlon // <i>two of them, five of them, seven of them</i>

²⁸ NOTE: -ta = dona // a piece, nafar // a person,

6 ta gul (6 ta gullar=incorrect), 10 nafar talaba (10 nafar talabalar=incorrect)

10, 100, 1000 + -larcha, -lab = o'nlab, yuzlarcha, minglab about 10, 100, 1000 + -larcha, -lab // tens of, hundreds of, thousands of

Ikki, uch, ... olti, veti + -ov, -ovlon. -ala = ikkala, beshovlon, to'rtala, uchala // two, three, ...six, seven, + -ov, -ovlon. -ala = both, five, four, three

yarim = 0,5; chorak = 1/4; nimchorak = 1/8 (yoki bir taqsim sakkiz / sakkizdan bir), 1,6 (bir butun o'ndan olti) // half = 0,5; quarter = 1/4 eighth part = 1/8 (or one eighth), 1,6 (one sixth)

beshta-beshta = beshtadan. Masalan, Dugonam bilan beshta-beshta (beshtadan) daftar sotib oldik. // Five = five (to each of them). My friend and I bought five notebooks each.

²⁹ EXCEPTION: bir + -ta= bitta

Chama son // <i>Indefinite numbers</i>	-tacha, -larcha, -lab	2+tacha, 10+lab, 100+larcha	ikkitacha, o'nlab, yuzlarcha // <i>about two, tens of, hundreds of</i>
Kasr son // <i>Fractional numbers</i>	taqsim, yarim, -dan	1/3; 0,5; 1/6	bir taqsim uch, yarim, oltidan bir // <i>one third, half, one sixth</i>
Tartib son // <i>Ordinal numbers</i>	-(i)nchi	2 + nchi, 5 + inchi	birinchi (<i>first</i>), beshinchi (<i>fifth</i>)

Ravish yordamida // *By means of adverbs*

ko'p, kam, oz³⁰, ozgina, bir qancha, bir nechta, biroz, ancha, uncha, juda, sal // <i>Many/much, few, little/few, rather, few, several, a good deal of, some</i>	Orzularim ko'p. Ko'p gapirma, ishlagin. Ancha odam yig'ildi. Ozgina charchadim. Bir nechta talaba keldi. Bir qancha masala ko'rildi.
Qancha..., shuncha ... // <i>The (more) ..., the (better) ...</i>	Qancha desangiz, shuncha olib kelaman. // <i>I will bring how much you want.</i>

³⁰ NOTE:

Kam – me'yorga yetmagan // Few – not enough
Oz – ko'p emas. // Little, few – not many/much

Hisob so'zlar // Counting words		
SON + hisob so'z + OT	dona nafar tup bosh bog' burda bo'lak shingil siqim/qism chimdim hovuch tilim juft kilogramm, gramm, tonna qadam piyola, choynak ho'plam qultum qoshiq...	bir dona gul, ikki dona qalam uch nafar talaba, o'n nafar qiz ikki tup ko'chat bir bosh uzum, ikki bosh piyoz uch bog' ko'kat bir burda non uch bo'lak go'sht bir shingil uzum bir siqim tuproq bir chimdim tuz bir hovuch un ikki tilim qovun ikki juft olma 10 kg guruch, 200 gr shakar, 50 tonna paxta 2 qadam yo'l 1 piyola suv, 1 choynak choy 1 ho'plam suv 2 qultum suv 1 qoshiq suv...
SON+hisob so'z+FE'L	marta	bir marta gapirmoq uch marta qaytarmoq ikki marta tushuntirmoq



Mashqlar

10.1. To'g'ri yozing.

2,5; 0,5; 2014-yil, 99; $1/4$; $1/5$; 6,7; 1-dan.

10.2. Nuqtalar o'rniga mosini qo'ying.

O'nta, o'ninchi, o'nlab, o'ntacha, o'ntadan, o'n, o'nlarda.

1. Keling, ertalab ...universitet oldidagi qahvaxonada uchrashib, birga nonushta qilamiz.

2. Matnni ... marta o'qib chiqdim, ancha so'zlarni eslab qoldim.

3. O'qituvchimiz har birimizga ... topshiriq berib, ikki kundan keyin topshirishimiz kerakligini aytdilar.

4. Do'stim shu binoning ... qavatida ishlaydi.

5. Bugun universitetimizda ekologiya masalalariga bag'ishlangan xalqaro anjuman bo'ldi, unda turli ommaviy axborot vositalaridan ... jurnalistlar ham ishtirok etdilar.

6. Taxminan ... talaba xalqaro tanlovda ishtirok etish istagini bildirib, tayyorgarlikni boshladilar.

7. Iltimos, menga ... daftar bering.

10.3. Sonlarning yozilishidagi xatolarni toping va ularni to'g'ri shaklda yozing.

1. Universitetimizga xorijdan to'rt talaba o'zbek tilini o'rganish uchun keldi.

2. Do'stim bilan ikkilamiz birga dars tayyorladik.

3. Siz uchchalangiz shu guruhda birga o'qiysizmi?

4. Javonda yigirma beshlarcha kitob bor.

5. Guruhimizdagi o'nlab talaba testni juda yaxshi topshirishdi.

6. Guruhimizda yigirmata nafar talaba bor.

7. – Uning yoshi nechada?

– Taxminan yigirmatachada.

8. Menga kartoshka kerak emas, uyda ikkitacha kilo kartoshka bor.

10.4. Nuqtalar o'rniga mos hisob so'zlarni qo'ying.

1. U qopga ikki qo'lini tiqib bir ... turshak olib, dasturxonga tashladi.

2. Yaponiyadan O'zbekistonga 20 ... talaba o'zbek tilini o'rganish uchun keldi.

3. Bir ... non ushatib yedim.

4. Choyga bir ... novvot solib iching.

5. Bir ... daraxt eksang, ming marta rahmat eshitasan.

6. Bir narsani necha ... tushuntirish mumkin, axir?

10.5. Nuqtalar o'rniga mos so'zni qo'ying.

kam, ko'p, oz, biroz, ancha, jindek, bir nechta, bir qancha

1. ... bilgan oz so'zlar.
2. Ertaga ishimiz bugungidan ... ko'p, shuning uchun juda band bo'laman.
3. O'nta ... sakkizda mening sevimli ko'rsatuvim boshlanadi.
4. Kechirasiz, hali shaharni yaxshi bilmayman, shuning uchun ... kechikdim.
5. Ovqatingiz juda mazali bo'libdi, lekin men uchun ... tuzi kam.
6. Stol ustida ... kitob va daftardan boshqa hech narsa yo'q edi.
7. ... vaqt o'tib, u yana o'z ishiga qaytdi.
8. ...-...o'rganib dono bo'lasan.

10.6. To'g'rimi yoki noto'g'rimi?

1. Piyoz qancha so'm?
2. Yangi mavzu ancha qiyin ekan, kam tushundim-u, lekin yana o'qishim kerak.
3. Hayotiy tajribasi katta odamlar haqida ko'pni ko'rgan inson deb gapiradilar.
4. U menga qaraganda ko'p tajribali.
5. Bu vazifani bajarish uchun sizga necha vaqt kerak bo'ladi?
6. Qancha ko'p mashq qilsangiz, shuncha yaxshi natijaga erishasiz.

10.7. To'g'risini tanlang.

1. Hayotda ... orqaga yursang, ... oldinga yur.
A. bir og'iz
2. ...o'lchab, ... kes.
B. ikki qism
3. Sizga ... gapim bor edi.
D. bir tilim
4. Menga ... ko'kat bering.
E. ikki bog'
5. Qovun juda mazali ekan, siz ham ... yeng.
F. bir shingil

6. Bu tarixiy roman ...dan iborat.

G. yetti marta, bir marta

7. Nonushtada ... pishloq bilan non yedim.

H. ikki bo'lak

8. ... uzum bilan bir burda issiq non men uchun eng yaxshi nonushta.

I. bir qadam, ikki qadam



Matnni o'qing.

ICHAN QALA

Xiva shahrining Ichan qal'a qismi Markaziy Osiyoda saqlanib qolgan yagona shahar-yodgorlikdir. O'zbekistonning muzey-qo'riqxonasini 26 gektar maydonda joylashgan bo'lib, Ichan qal'a ko'hna devor bilan o'ralgan. Muzey-qo'riqxona hududida 54 ta tarixiy-me'moriy obidalar bor, 360 xonadonda 2600 aholi istiqomat qiladi.

Ichan qal'a hududi miloddan avvalgi V asrda paydo bo'lgan. Shahar XVI asr boshlaridan 1924-yilgacha Xiva xonligining poytaxti bo'lgan. XVI asr boshlaridan shahar har tomonlama rivojlanib, ma'muriy binolar ham qurila boshlangan. 1616-yili Arab Muhammadxon tomonidan birinchi madrasa, keyin yana ikkita madrasa: Xo'jamberdibiy va Sherg'ozixon madrasalari qurilgan.

XIX asrga kelib shahar kengaygan. U ikki qismdan iborat: Ichan qal'a va Dishan qal'a. Shahar atrofida esa o'nlab qishloqlar joylashgan edi.

Ichan qal'a o'ziga xos yaxlit me'moriy inshoot. U baland paxsa devor bilan o'ralgan. To'rtta darvozasi – Ota darvoza, Polvon darvoza, Tosh darvoza va Bog'cha darvoza to'rt tomonga qaratib qurilgan. Ichan qal'a devorlari vaqt o'tishi bilan bir necha bor buzilgan va qayta ta'mirlangan.

Devor aylanasi uzunligi 2200 metrgacha, balandligi 7–8 metrga, poydevorining qalinligi esa 5–6 metrga teng. Ichan qal'a to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, uzunligi 650 metr, eni 400 metr.

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

1. Ichan qal'a qayerda joylashgan?
2. Ichan qal'a nimasi bilan mashhur?
3. Ichan qal'ada nechta tarixiy yodgorliklar bor?
4. Shahar qachon paydo bo'lgan?
5. Ichan qal'ada qanday madrasalar bor?
6. Shahar nima bilan o'ralgan?
7. Devorning balandligi qancha?
8. Shahar qanday shaklda?

11-mavzu: ISTAK-XOHISH MA'NOSINING IFODALANISHI

Theme 11: EXPRESSING VOLITION AND INTENTION

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

boshqa, qolmoq, koinot, ko'z, muzdek, ichimlik, ko'rinmas, uchmoq, atrof, qaniydi, orzu, tugamoq, reja, amalga oshmoq, qorin, ta'lim olmoq, yapon, xabar, norozilik, indamoq, xursand qilmoq, istak, universitet, dugona, ispan, o'quv kursi, bahslashmoq, raqs, to'garak, qatnashmoq, yetarli, mutolaa qilmoq, qolgan, mashg'ulot, ovqatlanmoq, jon, soz, shinam, norin, mashhur, taom, rost, san'atkor, qo'shiq, raqs, chipta, havza, urush.



Suhbatni o'qing.

– Bugun kechqurun nima qilmoqchisiz? Balki, birga ovqatlarnamiz. Uyda bir o'zim ovqatlangim kelmayapti.

– Jonim bilan. Men ham bugun juda charchadim, kechki ovqatni tayyorlagim kelmayapti.

– Juda soz. U holda biror-bir shinam joyga boraylik.

– Men anchadan beri o'zbek milliy taomlaridan biri – norinni yeb ko'rmoqchi edim. Norinni yaxshi ko'rasizmi?

– Men samarqandlikman. Biz tomonlarda bu taomni tayyorlashmaydi. Lekin Toshkentda bu juda mashhur taom. Bir marta yeganman. Men issiq ovqat yegim kelyapti.

– Qayerga borishni xohlaysiz?

– Keling, milliy taomlar oshxonasiga boraylik. Hamma taomlari juda mazali. Norinni qanday tayyorlashlarini ham ko'rishingiz mumkin.

– Chindanmi? Rosa ko'rgim kelayotgandi.

Grammatik qurilma

Grammatik materiallar				Misollar
FE'L	-moqchi [emas]	-man	-miz	Men o'zbek tilini o'rgan moqchiman. // <i>I would like to learn Uzbek.</i> (that's: I will)
		-san	-siz	
		–	-lar	

FE'L	-moqchi	[emas edi]	-m	-k	U bugun siz bilan gaplash- moqchi edi. // <i>He would like to talk to you.</i>
			-ng	-ngiz	
			–	-lar	

FE'L	-(i) sh	-ni xohlamog/ istamoq // <i>to want, to intend</i>	Men o'zbek tilini o'rganishni xohlayman/ istayman. // <i>I want to learn Uzbek</i> Men dam olishni xohlayman. // <i>I want to have a rest.</i>		

FE'L	-gim	-gimiz	Kel	zamon qo'shimchasi (III shaxsda bo'ladi) <i>tense affix (for the third person)</i>	Dam ol gim kelyapti. // <i>I want to have a rest.</i> O'q iging kelyaptimi? Uyga ket gisi keldi.
	-ging	-gin-giz			
	-gisi	-gilari			

FE'L [-ma]+ -SA	-m	-k	bo'lardi	Uyga qaytsang bo'lardi. // <i>You had better go back home.</i> Siz dam olsangiz bo'lardi. U o'zbek tilini o'rgansa bo'lardi.
	-ng	-ngiz		
	–	-lar		

FE'L	-m	-k	edi	U meni tushunsa edi. //
[-ma]+	-ng	-ngiz		<i>If only he/she understood you.</i>
-SA	-	-lar		<i>(but she/he can't)</i>

«Qani endi...» so'zlari bilan // <i>With «if, if only...»</i>	+ -SA + egalik qo'shimchasi	Qani endi hozir muzdek suv bo'lsa. //
		<i>I wish I had cold water /if only I had cold water</i>
		Qani endi yosh bo'lib qolsam.
		Qani endi meni tushunsang...
		Qani endi dengiz tomonga borsak...



Mashqlar

11.1. Berilgan gaplardagi tushirib qoldirilgan istak-xohish ma'nosini anglatuvchi qo'shimchalarni qo'ying.

1. Siz ham dam ol... bo'lardi.
2. Akmal ingliz tilini o'rgan... xohlaydi.
3. Nargiza, Xitoyga bor... kelyaptimi?
4. U yerga boshqa qayt... xohlamayman.
5. Men bugun Nargiza bilan ko'rish... edim.
6. Ular bir necha kunga biznikida qol...
7. Nafisa sen bilan gaplash... edi.
8. Men xitoy tilini o'rgan... xohlayman.
9. Dunyo bo'ylab sayohat qil... kelyapti.
10. Bizning qishlog'imizga ham kel... bo'lardi.

11.2. Gaplarni istak-xohish ma'nosini ifodalaydigan shakl bilan almashtiring.

Namuna: Uning orzusi ko'p tillarni o'rganishdir. – U ko'p tillarni o'rganishni xohlaydi.

1. Nafisa uyga **ketmoq**, lekin hali ish vaqti tugamadi.
2. Aziza bugun darsdan keyin soat beshlarda u bilan **ko'rishmoq**.
3. Hoziroq siz bilan **gaplashmoq**, iltimos, ikki daqiqa vaqtingizni ajrating.

5. Akmal Turkiyada **dam olib kelmoq**, lekin uning rejasi hech amalga oshmaypti.

6. Juda qornim ochdi, issiq ovqat **yemoq**, lekin tayyorlashga erin-yapman.

7. Yevropada **ta'lim olmoq**, shuning uchun astoydil harakat qil-yapman, ikki yildan beri tayyorlanyapman, lekin imtihonlar juda qiyinligini bilaman.

8. Kecha siznikiga **bormoq**, lekin ishdan juda kech qaytdim, shu-ning uchun ulgurmadim.

11.3. Xatoni toping.

1. U kecha sen bilan uchrashmoqchi.

2. U uyga ketishga xohladi.

3. Aziza turk tilini o'rganib xohlaydi.

4. Laziza juda ko'p kitob o'qigani xohlaydi.

5. Qattiq charchadim, juda uxlagisi kelyapman.

6. Bugun ishim juda ko'p, lekin hech ishlagim kelmayapman.

7. Iltimos, ikki daqiqaga tashqariga chiqib kelay edi, suv ichishni xohlayman.

8. Meni kechiring, sizni xafa qilmoqchimasman edi.

11.4. Tanlang.

1. Men Toshkentga...man. **qani endi**

2. Aziza yapon tilini o'rganishni ... **gaplashmoqchi bo'lgan**

3. ... orzularim amalga ohsa. **istagi**

4. Menimcha,u siz bilan ... **qaytmoqchiman**

5. Saidada Parijga borish ... tug'ildi. **xohlaydi**

6. Sizga bu xabarni aytib, ... **aytmoqchiman**

7. Juda jahlim chiqdi, unga noroziligimni ..., lekin indamadim.
xursand qilmoqchi edim

8. Bugun darsdan keyin unga hamma gapni... **aytgim keldi**

11.5. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

1. *O'qi... kelyaptimi? Harakat qilsang universitetga o'qishga kirasan. Dugonang ham kir... edi. Birga harakat qilasizlarmi?*

- a) -ging; -moqchi
- b) -moqchi; edi
- d) -moqchi; -moqchi

2. *Biz ispan tilini o'rgan..., qachon o'quv kurslari ochiladi?*

- b) -moqchi edi
- c) -moqchi
- d) -moqchimiz

3. *Men kinoga do'stlarim bilan ...*

- a) borishni xohlayman
- b) ko'rishni xohlayman
- d) borgim kelmoqchi

4. *Biz Akmal bilan Turkiyada dam ol...juda ham ...*

- a) -ishimizni ... istaymiz
- b) -ishni... istardik
- d) -ib ... istaymiz

5. *Anvar ertaga sen bilan uchrash...*

- a) -moqchi aytdi
- b) -moqchi
- d) -ish istagi bor

6. *Bolaligimda shifokor bo'lishni juda ..., lekin kimyo fanini o'zlashtirishda juda qiynalдим.*

- a) xohlardim
- b) xohladim
- d) xohlayman

11.6. Gaplarni bo'lishsizlik shaklida yozing.

Namuna:

Men siz bilan bahslashmoqchiman. – Men siz bilan bahslashmoqchi emasman.

1. U sizni xafa qilmoqchi edimi?
2. O'zbekiston bo'ylab sayohat qilishni xohlayman.
3. Aziza yapon tilini o'rganishni xohlaydi.
4. Biz kinoga birga bormoqchi edik.
5. Azamat ingliz tilini o'rganishni istaydi.
6. Akmal Moskvadan qaytib kelmoqchi edi.
7. Menimcha, hamma darsda yaxshi baho olishni xohlaydi.
8. Mixo: «O'zbek tilini o'rganishni xohlayman», – dedi.

11.7. Gaplarni savol shakliga aylantiring.

Namuna: Men o'zbek tilini o'rganmoqchiman. – Siz o'zbek tilini o'rganmoqchimisiz?

1. Kecha hech narsa qilishni xohlamadim.
2. Shunaqa uxlagim kelyapti.
3. Matnni lug'atsiz o'qib tushunishni xohlayman.
4. Do'stlarim bilan darsdan keyin uchrashmoqchi edim.
5. Alpomishdek kuchli bo'lishni xohlayman.
6. Sharbat ichgim kelyapti.
7. Ertaga stadionda futbol o'ynamoqchi edim.
8. Men dadamdek yaxshi inson bo'lmoqchiman.

11.8. Gapning mazmuniga mos ravishda «-moqchi», «-moqchi edi», «-ishni xohlamoq», «-sa bo'lardi», «qani endi» shakllarini qo'ying.

1. Men raqsni juda yaxshi ko'raman. O'zbek milliy raqsi menga juda yoqadi. Hozir talabaman. Har kuni darsim ko'p, juda bandman. Darslardan keyin raqs to'garagiga qatnash..., lekin hech ulgurmayapman.

2. Har bir inson baxtli bo'l..., lekin hamma ham buning uchun yetarlicha harakat qilmaydi.

3. Biz har kuni darsdan keyin o'zbek tilida kitob mutolaa qilaymiz, bittamiz o'qiymiz, qolganlarimiz eshitamiz, tushunmagan

so'zlarimizni lug'atdan topamiz, juda qiziqarli mashg'ulot. Sen ham kel...

4. Bugun bayram. Unda yosh san'atkorlar o'z qo'shiq va raqslari bilan ishtirok et...lar.

5. Anvar, ... birga Toshkentga qaytsak, onam juda xursand bo'lar edilar.

6. Shanba kuni Samarqandga sayohat qil..., lekin chipta yo'q ekan, juda afsuslandim.

7. Bugun suv havzasida odam juda kam edi, sen ham kel..., maza qilib suzardik.

8. Butun dunyoda tinchlik bo'lishini istayman, ... hech qachon va hech qayerda urush bo'lmasa.



Matnni o'qing. Yangi so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

NAVRO'Z

«Navro'z» so'zi «yangi kun» deb tarjima qilinadi. Bayram 21-mart kuni nishonlanadi. Bahorning aynan ushbu kunida tabiat qishki uyqudan uyg'onadi va bu yangi yilning boshlanishidan darak beradi. Navro'z – qadimiy bayram, ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, 3000 yil oldin ham nishonlangan ekan.

Navro'z katta bayram. Shuning uchun bayram dasturxoni ham to'kin-sochin bo'lishi lozim. Xalqda shunday odat bor: dasturxon qanchalik to'kin-sochin bo'lsa, kelasi yil ham shunday boy bo'ladi. Bayram taomnomasi ham ajoyib. Dasturxonda turli xil shirinliklar, mevalar, ko'k chuchvara, yupqa, halim kabi mazali taomlar ham bo'ladi. Ammo bu kunning bosh mehmoni – likopchada undirilgan bug'doydir! U har bir bayram dasturxonida bo'ladi.

Undirilgan bug'doydan bayramning shoh taomi – sumalak tayyorlanadi. Sumalak tayyorlash juda qiziqarli marosim bo'lib, unda asosan ayollar ishtirok etadilar. Sumalak uzoq vaqt tayyorlanadi.

Hozir Navro'zni qanday nishonlaydilar? Erta tongdan bayram boshlanadi. Navro'z – oilaviy bayram, yaqinlar va qarindoshlar davrasida nishonlanadi. Bayram kunlari an'anaga ko'ra bog'larda mevali nihollar o'tqaziladi.

O'zbekistondagi shahar va qishloq aholisi ushbu bayramga oldindan tayyorgarlik ko'radi. Mahallalarda hashar qilinadi, hamma-yoq tozalanadi. Har bir mahallada bayram dasturxoni yoziladi, katta qozonlarda bayram palovlari pishiriladi, qo'shiq, raqs va musiqa tinmaydi. Bu bayram umumxalq xursandchiligidir.

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

1. «Navro'z» so'zining ma'nosi nima?
2. Nima uchun Navro'z bayrami 21-mart kuni nishonlanadi?
3. Bayramda qanday milliy taomlar tayyorlanadi?
4. Sumalak nimadan tayyorlanadi?
5. Hasharda nima qiladilar?
6. O'zbek mahallalarida bu bayram qanday nishonlanadi?

12-mavzu: MAJBURIYAT, ZARURIYAT VA IMKONIYATNI IFODALASH

Theme 12: EXPRESSING OBLIGATION, NECESSITY AND ABILITY

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

majburiyat, zaruriyat, imkoniyat, boshqaruvchi, dasturxon, ko'rk, yog', doska, musobaqa, g'olib bo'lmoq, aeroport, pasport, xat, sho'rva, sholg'om, xotira, ma'lumot, garmdori, o'lka, tarjimon, uyalmoq, savdolashmoq, ekologik, jigar, imtihon, uyg'otmoq, to'la, jamoat.



Suhbatni o'qing.

A: Salom, yaxshimisiz?

B: Rahmat, siz-chi?

A: Rahmat, yomon emas. Sizga mening yordamim kerakmi?

B: Ha, kecha kitob do'koniga bordim, lekin qidirayotgan lug'atimni topa olmadim. Menga dars uchun yaxshi lug'at kerak.

A: Sizga qanday lug'at kerak? Ruscha-o'zbekchami yoki inglizcha-o'zbekchami?

B: Yo'q, unday lug'atlarim bor. Menga o'zbekcha-koreyscha lug'at kerak. Sizda bormi?

A: O'zbekcha-koreyscha lug'at kutubxonamizda bor, lekin hozir yonimda yo'q. Menda elektron lug'at bor, beraymi?

B: Rahmat, yaxshisi, hozir kutubxonaga boraman. Men bilan birga borasizmi?

A: Albatta.

Grammatik qurilmalar

Grammatik materiallar					Misollar
FE'L	-(i)sh / -maslik(g)	-im	-imiz	kerak // need zarur // must/have to shart // must/have to lozim // must	Men ketishim kerak/ kerak emas. // I must/ <i>mustn't go</i> Borishing zarur/ zarur emas. Ertaga kelishimiz shart emas. Ketishim lozim/ zarur. Men ketmasligim kerak. // Men ketishim kerak emas. <i>I mustn't go.</i> U yerga bormasligim kerak <u>edi</u> // <i>I shouldn't have gone</i> <i>there (alas, I went there)</i>
		-ing	-ingiz		
		-i	-lari		
FE'L	-(i)sh / -maslik(g)	-im	-imiz	mumkin // may	Ertaga kirishingiz mumkin/mumkin emas. Bu kitobni olish(im) mumkinmi?
		-ing	-ingiz		
		-i	-lari		

FE'L	-sa	-m	-k	bo'ladi	Ertaga uchrashsak bo'ladi. // <i>We could meet tomorrow (we have the opportunity)</i> Ertaga uchrashmasak ham bo'ladi. // <i>We shall not have to meet tomorrow. (that is: absence of necessity)</i> Bu kitobni menga erta- ga bersangiz bo'ladi (bugun shart emas) <i>(it isn't necessary today)</i>
		-ng	-ngiz		
		-	-lar		
FE'L	-sa	-m	-k	mayli (mi)	- So'rasam maylimi? / So'rasam bo'ladimi? <i>May I ask you? (is it possible?)</i> - Mayli, so'rang.
		-ng	-ngiz		
		-	-lar		
FE'L		-a/- (y)	olmoq		Bugun kechqurun bora olaman. // <i>I may not go there tonight. (but I have the opportunity but probably won't take the advantage of it)</i> U bilan uchrasha oldingizmi? Siz arabcha matnni o'qiy olasizmi?



Mashqlar

12.1. Mos qo'shimchani qo'ying.

1. Siz boshqaruvchisiz, shuning uchun ishga kechik... kerak.
2. Dasturxonda non bo'l... shart, non dasturxonning ko'rkidir.
3. Bu taom juda yog'li ekan, men yog'li ovqatlarni ye... olmayman.

4. Siz albatta Xivaga bor... kerak.
5. Ishimiz ko'p, vaqtimiz esa juda oz, lekin ulgur... bo'ladi.
7. Boshim qattiq og'riyapti, uyga ket... maylimi?
8. Uzoqni yaxshi ko'rmayman, shuning uchun doskadagi gaplarni o'qi... olmadim.
9. Bugun juda bandman, siz bilan ertaga gaplash... bo'ladimi?

12.2. To'ldiring(-sa mayli, -ish zarur,-maslik mumkin,-a/-y olmoq, -sa bo'ladi).

1. Men Toshkentga bormaganman. Toshkent katta va juda chiroyli shahar, buni borib ko'r...
2. Biz musobaqada albatta ishtirok et...
3. Men musobaqada qatnashmoqchiman, lekin yaxshi tayyorlanmadim, shuning uchun g'olib bo'l ...
4. Aziza tashqariga chiqmoqchi edi, shuning uchun o'qituvchidan «kechirasiz, chiq...» deb so'radi.
5. Kechirasiz, umuman imkoniyatim yo'q, sizga hech yordam ber...
6. Oyijon, bugun darslardan keyin do'stlarim bilan uchrash...?
7. Kecha kuni bo'yi Azizning mazasi bo'lmadi. Menimcha, u bugun darsga kel...

12.4. Quyidagi so'zlardan gap tuzing.

1. Uchrashmoq, bilan, u, biz, yerda, mumkin?
2. Ertaga, uchrashmoq, mayli (biz)?
3. Mumkin, dars, qolmoq, kech, emas.
4. Shart, aeroport, pasport, kelmoq, bilan.
5. Xat, unga (siz), shart, ko'rsatmoq, emas.
6. Uyga, tezroq, qaytmoq, qani endi (biz).
7. Yevropada, ingliz tilini, uchun, yaxshi, lozim, bilmoq, o'qish.
8. Xato qilmoq, kerak, qo'rqmoq, emas.

12.5. Berilgan gaplar qanday savolga javob bo'ladi?

Namuna: Mayli, kiring. – Kirsam maylimi?

1. Mayli, javob bering.
2. Ha, albatta, qila olasiz.
3. Yo'q, kechirasiz, sizga yordam bera olmayman.
4. Yo'q, ertaga, albatta, keling.
5. Yo'q, sho'rvaga sholg'om solmasa ham bo'ladi.
6. Yo'q, mumkin emas. Eshikni yoping. Dars boshlandi, siz kechikdingiz.
7. Ha, bo'ladi, kiring, bermalol.
8. Ha, soat 9 ga kela olaman.

12.6. Gaplarni o'tgan zamon shakliga aylantiring.

Men sizga bugun kerakmanmi? – Men sizga kecha kerak edimmi?

1. Sizga yordam bera olmayman.
2. Ko'proq mashq qilishingiz kerak.
3. Ertaga kelmasa ham bo'ladi.
4. Siz bizga juda keraksiz.
5. Vazifani ertaga topshirishingiz kerak.
6. Uning gaplarini to'g'ri tarjima qila olasizmi?
7. U o'zbek tilida fikrini tushuntira oladimi?
8. Xona juda issiq, shuning uchun uxlay olmayapman.

12.7. To'g'rimi yoki noto'g'rimi?

1. Bugun ertaroq ketsangiz mayli.
2. Ertaga kelmasangiz ham bo'ladi.
3. Kechirasiz, juda band edim, hozir siz bilan gaplashishim mumkin emas.
4. Ertaga darsga ozgina kechroq kelsam mumkinmi?
5. Vazifani to'liq bajardik, ana endi dam olsak ham bo'ladi.
6. O'zbek tilini endi o'rganyapman, hali ko'p narsani bilmayman, shuning uchun bu so'zlarni tushunmadim, menga tarjima qilib berishingiz mumkinmi?

7.– Kechirasiz, so‘rasam maylimi?

– Ha, mayli.

8.– Kechirasiz, kirsam maylimi?

– Yo‘q, mayli emas, men bandman.

12.8. Qila oladimi yoki qila olmaydimi?

U bugun juda band, kechgacha ishlamoqchi, ishi juda ko‘p. Demak, u bugun biz bilan uchrasha olmaydi.

1. Uning xotirasi juda kuchli, yangi ma‘lumotlarni juda zo‘r eslab qoladi, demak, u har kuni 20 ta so‘zni (yodlamoq).

2. U achchiq narsalarni juda yaxshi ko‘radi, demak, u garmdorini (yemoq).

3. Men yomg‘irni juda yomon ko‘raman, demak, men yomg‘ir ko‘p yog‘adigan o‘lkalarda (yashamoq).

4. Siz ovqat tanlamaysiz, demak, hamma o‘zbek milliy taomlarini (yemoq).

5. Menga tarjimon kerak, siz ko‘p tillarni bilasiz, demak, menga ham (yordam bermoq).

6. Shanbada u ishlamaydi, demak, shanba kuni biz bilan (tushlik qilmoq).

7. Pasportingiz yo‘q, demak, siz Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonaga (kirmoq).

8. Men o‘zbek tilini endi o‘rganyapman, gapirishga juda uyalaman, demak, bozorda (savdolashmoq).

12.9. Gaplarni «mumkin» so‘zini qo‘shib davom ettiring.

Chekmoq, yog‘moq, kelmoq, tayyorlamoq, ichmoq, uxlab qolmoq, tomosha qilmoq, foydalanmoq, tushunmoq

Bizning universitetimiz ekologik toza hudud, shuning uchun ...
(chekish mumkin emas).

1. Shanbada dars yo‘q, siz bo‘shsiz, bimalol shaharni...

2. Uning jigari kasal, shuning uchun umuman...

3. U mening chet ellik talabam. O'zbek milliy urf-odatlarini bilmaydi, shuning uchun bizni ...

4. Havo bulut, yomg'ir...

5. Darsda ko'p o'qiydiz, yangi so'zlarni yodlaymiz, shuning uchun menga lug'at juda kerak, lekin imtihonda lug'atdan...

6. Kecha o'qituvchimiz biroz shamollagan edi, shuning uchun bugun...

7. Yotoqxonada oshxona bor, o'zingiz ovqat...

8. Iltimos, meni ertalab uyg'oting, juda charchaganman, ...

12.10. «-a/-y olmoq» yoki «-ish mumkin»

1. Iltimos, ertaroq keling, darsga qo'ng'iroqdan keyin kirish mumkin emas// kira olmaysiz.

2. Bu muammoni hal qilish mumkin, lekin sizga men emas, Nodir yordam berishi mumkin // yordam bera oladi.

3. Bu xonada imtihon bo'lyapti, u yerga kirish mumkin emas // kira olmaysiz.

4. Kecha uyimiz to'la mehmon edi, shuning uchun dars qila olmadim // dars qilishim mumkin emas edi.

5. Bu taom juda mazali, lekin achchiqroq, siz yeyishingiz mumkinmi// yeya olasizmi?

6. Bu juda qiziqarli film, lekin o'zbek tilida. Siz tushuna olasizmi// tushunishingiz mumkinmi?

7. Jamoat joylarida chekish mumkin emas// cheka olmaysiz.

8. O'zbek tilidan ona tilimga tarjima qila olaman// tarjima qilishim mumkin, lekin, aksincha, o'zbek tiliga tarjima qilishga qiynalaman.



Matnni o'qing. Yangi so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

«MASLAHATLI TO'Y TARQAMAS»

O'zbeklarda mashhur bu maqolni faqat to'y qilishda emas, umuman, har bir ishni boshlashda aytish mumkin. Bu maqolda bir ishni boshlashda boshqalar bilan, yoshi katta, tajribali insonlar bilan maslahatlashish kerakligi aytiladi. Haqiqatan ham, oldin o'rganib, keyin ish boshlasa, albatta, yaxshi natijaga erishish mumkin. Shunday maqollar xalqimizda juda ko'p. Ular xalq orasida ko'p ishlatiladi.

«Maslahatli to'n tor kelmas», «O'z bilganingda bo'lma, el bilgani-dan qolma», «Ikki kengash bir bo'lsa, ellik yigit yuz bo'lar», «Kenga-shib kesilgan qo'l og'rimas», «Kengashmay tenglashma» kabi maqollarda har bir ishni maslahatlashib qilish kerakligi ta'kidlanadi. Chunki ko'p bilishing mumkin, lekin ko'pchilikdek bila olmaysan.

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

1. «Maslahatli to'y tarqamas» maqolini qanday tushundingiz?
2. Ish boshlashdan oldin kim bilan maslahatlashish kerak?
3. «Maslahatli to'n tor kelmas» maqolini tushuntirib bering.
4. Shu mavzuda qanday maqollarni bilasiz?

13-mavzu: SHART MA'NOSINING IFODALANISHI

Theme 13: EXPRESSING OBLIGATION

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

charchamoq, qo'shni, siqilmoq, chora, ko'hna, unumli, rioya, falokat, nizo, mabodo, xiyobon, meva-cheva, hormang, xushvaqt, xonadon, mezbon, gavjum, buyurmoq, sharq, bozor, qalampir, guvohnoma, bemor, oson, muloqot, shamol, aksirmoq, bajonidil, yuz bermoq.



Suhbatni o'qing.

– Nodir, agar dam olish kunlarida bo'sh bo'lsangiz, men bilan birga Samarqandga bora olasizmi?

– Bajonidil borardim. O'zim ham anchadan beri sayohatga chiqishni xohlayotgan edim. Lekin bu yakshanbada do'stimnikida to'y. Agar bormasam, juda noqulay bo'ladi. Agar xohlasangiz, sizni to'yga olib boraman. Samarqandga esa kelasi haftada ham borsak bo'ladi.

– To'ylaringizda hech qachon bo'lmaganman. Juda chiroyli bo'lsa kerak. Lekin do'stingizni tanimayman-ku. Taklif qilinmagan joyga borish mumkinmi?

– Albatta. U juda xursand bo'ladi. Biz uchun mehmon juda aziz. Siz esa chet ellik mehmonimsiz. Agar borsangiz, do'stimning boshi osmonga yetadi. Juda mehmondo'st yigit.

– Rahmat, agar shunday bo'lsa, albatta, boraman. O'zbeklarning to'y marosimini juda ko'rgim kelyapti.

– Juda chiroyli urf-odatlarimiz bor. Agar ertaroq kelsangiz, hammasini ko'rasiz.

Grammatik qurilmalar

Grammatik materiallar				Misollar
(Agar) (...) FE'L[-ma] (Unless) VERB or (If not) (...) VERB	-sa ³¹	-m	-k	U ertaga kelmasa , nima qilamiz? // <i>What shall we do if he/she will not come tomorrow?</i>
		-ng	-ngiz	U kelmasa , bu ishni qila olmaymiz. Agar ulgursam kelaman. Agar kela olmasang qo'ng'iroq qil. Agar/mabodo/bordi-yu kela olmasam qo'ng'iroq qilaman. // <i>In case I can't come, I will phone you. (strong likelihood)</i>
		-	-lar	

(Agar) (...) OT-KESIM	bo'lsa	-m	-k	Vaqtim bo'lsa , boraman. // <i>If I have time, I will go there.</i>
		-ng	-ngiz	Agar havo sovuq bo'lsa , issiq kiyining. // <i>If it is cold, wear your warm clothes (It is cold – wear your warm clothes)</i>
		-	-lar	Katta bo'lsang kim bo'lmoqchisan? – Katta bo'lsam, shifokor bo'laman. // <i>Who are you going to be when you grow up? – When I grow up, I will be a doctor.</i>

³¹ Constructions, like «Kim ... -sa, u/unga/uni...», «Nima ...-sa, ...o'sha, shu» have more emphasizing meanings. *Kim harakat qilsa, u maqsadiga erishadi. Agar harakat qilsangiz, maqsadingizga erishasiz // who tries, he achieves.*

(Agar) (...) FE'L [-ma]	-sa	-m	-k	edi, FE'L	-ar [mas] di	Agar kelsangiz edi, gaplashardik. // <i>If only you came, we should talk.</i>
		-ng	-ngiz			
		-	-lar			

(Agar) (...) FE'L [-ma]	-gan	-im	-imiz	-da edi	FE'L -ar [mas] di	Meni to'g'ri tushunganingizda (edi), bunday muammolar bo'lmasdi. // <i>If you hadn't got me wrong, you wouldn't have had such problems (but you got me wrong and you had such problems)</i> Agar havo ochiq bo'lgani- da edi, sayr qilardik.
		-ing	-ingiz			
		-i	-lari			

Shart-buyruq mayli shaklida //in conditional/ imperative mood	bo'lmasa/ yo'qsa... // <i>if not/unless/ otherwise/or</i>	Tezroq keling, bo'lmasa, biz ketamiz. // <i>Come quickly or/otherwise we shall go.</i> Ertaga vazifani ko'rsating, yo'qsa, siz bilan boshqacha gaplashaman.
--	---	---

O'tgan zamon shakli //Past tense form						
(Agar) (...) FE'L [-ma]	-gan bo'lsa	-m	-k	, ...		Agar bu kitobni o'qigan bo'lsangiz, sizga boshqa kitob beraman. // <i>If you have finished reading this book, I will give you another one.</i>
		-ng	-ngiz			
		-	-lar			

Hozirgi zamon shakli // Present tense form						
(Agar) (...) FE'L [-ma]	-yotgan bo'lsa	-m	-k	, ...		Agar bu kitobni o'qiyotgan <u>bo'lsangiz</u> , sizga hozircha boshqasini bermayman. // <i>If you <u>are reading</u> this book, I won't give you another one.</i>
		-ng	-ngiz			
		-	-lar			

Kelasi zamon shakli // Future tense form				
(Agar) (...) FE'L [-ma]	-moqchi bo'lsa	-m	-k	, ...
		-ng	-ngiz	
		-	-lar	
(Agar) (...) FE'L [-ma]	(-a/-y) digan bo'lsa	-m	-k	, ...
		-ng	-ngiz	
		-	-lar	
Kim / kimki...	fe'l	-sa	u..., uni..., unda..., unga...	Kim ko'p o'qisa, u ko'p biladi.// <i>Those who read a lot, know a lot.</i> Kimki mehnat qilsa, u rohat ko'radi.// <i>Those who work hard, enjoy their lives.</i>



Mashqlar

13.1. -sa qo'shimchasini ega va kesimga moslab to'g'ri qo'ying.

1. Agar tushunmagan bo'l..., savol bering.
2. Agar harakat qil..., albatta, ulgurasiz.
3. Yomg'ir yog'..., men sayr qilishga chiqmayman.
4. Bayramni guruhimiz bilan birga talabalar uyida nishonla..., siz ham kelasizmi?
5. Menga yordam bera ol..., sizdan juda minnatdor bo'laman.
6. Agar u dam olayotgan bo'l..., uni bezovta qilmang.
7. Agar ertaga darsingiz bo'lma..., birga kutubxonaga borishimiz mumkin.
8. Xato qil..., albatta, o'zinga ayting, xatoyimni tuzatishga harakat qilaman.

13.2. Shart maylini o'tgan zamon shakliga aylantiring.

Kelsa, gaplashamiz – Kelgan bo'lsa, gaplashamiz.

1. Agar vazifani bajarsangiz, bimalol ketaverasiz.

2. Agar tushunmasangiz, yana tushuntirib beraman.
3. Sizga yoqmasa, boshqasini beraman.
4. Agar charchasangiz, qo'shni xonaga kirib, dam olishingiz mumkin.
5. Agar muammolaringizni hal qila olmasangiz, siqilmang, birga biror chorasini topamiz.
6. U sizni kechki ovqatga taklif qilsa, albatta, boring, aks holda, u juda xafa bo'ladi.

13.3. -sa, -yotgan bo'lsa, -gan bo'lsa, -sa edi, -ganda edi shakllarining mosini qo'ying.

1. Samarqandga hali borma..., albatta, biz bilan birga bu go'zal va ko'hna shaharga sayohat qiling.
2. Vaqtdan unumli foydalan..., hamma ishingizni bajarishga ulgurasisiz.
3. Derazadan qara-chi, yomg'ir yog'..., yaxshisi, bugun uyda qolamiz, boshqa kuni shaharni sayr qilarmiz.
4. U yo'l harakati qoidalariga rioya qil..., bu falokat yuz bermasdi.
5. Qani endi odamlar bir-birlarini tushunishga harakat qil..., dunyoda nizolar bo'lmasdi.
6. Har kuni yomg'ir yog'yapti, ertaga ham yog'sa kerak, mabodo havo ochilib ket... edi, sayr qilar edik.

13.4. Quyidagi ikki gapdan bitta shart ma'noli gap tuzing.

Havo ochiq. Xiyobonda uchrashamiz. – Agar havo ochiq bo'lsa, xiyobonda uchrashamiz.

1. Juda bandsiz. Ertaga kelaman.
2. Sizga yordam kerak. Biz tayyormiz.
3. U kecha kechgacha ishladi. Bugun kelmasligi mumkin.
4. U uxlayapti. Telefonni ko'tarmaydi.
5. Meva-cheva olmoqchimisiz? Yaxshisi, bozorga boramiz.
6. Muammolaringiz bormi? Bemalol menga ayting, qo'limdan kelsa, albatta, yordam beraman.

7. Ertaga ishga kelish shart emasmi? Men do'stlarim bilan Chimyonga chiqaman.

8. Ishni ertaga ertalab boshlaymiz. Ikki kunda tugatamiz.

13.5. Mosini tanlang.

1. Agar vaqtdan to'g'ri foydalansangiz,...

A. unga «hormang» deyish kerak.

2. Mabodo ertaga kela olmasam,...

B. unga «sog' bo'ling» deymiz.

3. Agar xafa bo'lmasangiz,...

D. «salomat bo'ling» deb javob bering.

4. Agar sizga «hormang» desalar, ...

E. «xush kelibsiz» deb qarshi oladilar.

5. Agar odam biror ish bilan band bo'lsa, ...

F. hamma ishga ulgurish mumkin.

6. Agar odam aksirsa, ...

J. mehmon «xushvaqt bo'ling» deb javob beradi.

7. Agar o'zbek xonadoniga mehmon kelsa, ...

I. mening o'rnimga ishlay olasizmi?

8. Agar mezbon «xush kelibsiz» desa,...

K. men o'z fikrimni ochiq aytaman.

13.6. Xatoni toping.

1. Imkoniyatim bo'lsa edi, juda ko'p sayohat qilaman.

2. Mabodo sizga bu taom yoqmasangiz, boshqasini buyurishingiz mumkin.

3. Lug'atingiz borsa, menga berib turing.

4. Agar ertalab bozorga borasiz, gavjum bo'lgan haqiqiy sharoit bozorini ko'rishingiz mumkin.

5. Juda chiroyli taom ekan, lekin agar qalampir solinsa, men yey olmayman.

6. Agar sizning talabalik guvohnomangiz bor, poyezdga chiptani arzonroq olishingiz mumkin.

13.7. Qavsni oching.

1. Bir kuni shifokor bemorga shunday debdi: «Qara, biz uchta-miz: men, sen va kasallik. Agar sen mening tomonimga (o'tmoq), biz ikkimiz uni oson yengamiz. Lekin sen uning tomonida (bo'lmoq), men bir o'zim uni yenga olmayman».

2. Agar shamol (bo'lmoq), daraxtning uchi qimirlamaydi (maqol).

3. Kecha shu ishni ikkalimiz birga (boshlamoq), bugun hamma-siga ulgurardik.

4. Agar odamlarni tushunishga (harakat qilmoq), odamlar bilan oson til topishasan.

5. Agar sizga tarjimon (kerak), yuqori kurs talabalari sizga yor-dam beradilar.

6. Kecha Chorsu bozoriga (bormoq), unda bugun sizni Qo'yliq bozoriga olib boraman.

13.8. Gaplarni shart ma'noli (Agar...) gaplarga aylantiring.

Masalan: Keling, gaplashamiz. – Agar kelsangiz, gaplashamiz.

1. Yaxshilab tekshirsin, albatta, xato topadi.

2. Chin ko'ngildan gapirsin, hamma so'zsiz ishonadi.

3. Unga ham bir marta imkoniyat bering, o'zini ko'rsatadi.

4. Har kuni o'n-o'n besh daqiqa lug'at varaqla, so'z boyliging ancha oshadi.

5. Bir kun ishga bormay, menimcha, ofisda hayot to'xtab qolsa kerak. Chunki juda kerak xodimman.

6. Keling, darsga har kuni kechikadigan talabalarni bir marta darsga kiritmaylik, keyin ko'rasiz, har kuni o'z vaqtida keladilar.

7. Vaqt va pulni to'g'ri sarflaydigan odam rejalashtirilgan ishlarini har doim bajara oladi.

8. O'z ona tilini bilmaydigan odam boshqa tillarni ham mukammal o'rgana olmaydi.



Matnni o'qing. Yangi so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

TIL QILICHDAN O'TKIR

Har bir inson so'zlash odobiga rioya qilishi zarur. O'ylamasdan gapirish yoki kerakli-keraksiz gaplarni aytish har bir millatda ham madaniyatsizlik hisoblanadi. Til bilan odamni davolash ham, o'ldirish ham mumkin. Tig' (pichoq yoki qilich) jarohati bitadi, lekin til jarohati bitmaydi. Tilingiz bilan birovni xafa qilsangiz, uning qalbini yaralasangiz, bu jarohat hech qachon tuzalmaydi. Shuning uchun «Avval o'yla, keyin so'zla» degan maqol bor. Shakar ham tilda, zahar ham tilda. Agar birovga yaxshi gap gapirsangiz, undan ham yaxshi gap eshitasiz, lekin qo'pol muomala qilsangiz, shunday javob olasiz. «Tilning suyagi yo'q» degan maqol ham bor. Shuning uchun: «Tilingizga erk bermang, ehtiyot bo'lib so'zlang», – deydilar.

«Kechirasiz», «ma'zur tuting», «meni afv eting», «agar mumkin bo'lsa», «xijolat bo'lmang», «bezovta qilmadimmi?», «ko'nglingizga og'ir botmasin», «ming bor uzr», «ruxsatingiz bilan», «ijozat bersangiz», «bosh ustiga», «bajonidil» kabi chiroyli so'zlar har bir tilda bor va ulardan foydalanish insonning yuksak madaniyatini ko'rsatadi. Inson madaniyati, avvalo, uning nutqida ko'rinadi.

Qaysi bir tilda gaplashsangiz ham, so'zlarni to'g'ri tanlashga, muomala madaniyatiga rioya qilishga intiling. **«Siz bilan tanishganimdan bag'oyat xursandman», «maroqli suhbat uchun tashakkur», «vaqtingizni olgan bo'lsam, ming bor uzr», «kuttirib qo'yganimdan xijolatdaman», «e'tiboringizdan boshim osmonga yetdi», «noto'g'ri tushunmaysiz degan umiddaman», «qo'limdan kelsa, albatta, yordamga tayyorman», «tushunmovchilik bo'lgan bo'lsa, kechiring», «mendan o'tgan bo'lsa, uzr so'rayman»** kabi jumalarni ishlatish insonning tarbiyasi va muomala madaniyatini ifodalaydi.

Qo'pollik bilan bir natijaga erishsangiz ham, lekin jamiyatda hurmatga ega bo'la olmaysiz. Qattiqqo'llik, talabchanlik faoliyat-

da bo'lishi kerak, ammo insonlar bilan muomalada qo'pol gapirish hech bir odob doirasiga to'g'ri kelmasligini unutmang.

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

1. O'ylamasdan gapirish nimalarga olib kelishi mumkin?
2. Til bilan jarohatlash deganda nima nazarda tutilgan?
3. «Til suyaksiz» deganda nimani tushundingiz?
4. «***Ko'nglingizga og'ir botmasin***» gapi o'rniga nima deyish mumkin?
5. «***Bosh ustiga***» iborasi o'rniga nima deyish mumkin?
6. ***Bag'oyat*** so'zining sinonimi nima?
7. «***Xato qilgan bo'lsam, kechiring***» ma'nosidagi gapni matndan toping.
8. «***Kuttirib qo'yganimdan xijolatdaman***», «***e'tiboringizdan boshim osmonga yetdi***», «***noto'g'ri tushunmaysiz degan umiddaman***», «***qo'limdan kelsa, albatta, yordamga tayyorman***», «***tushunmovchilik bo'lgan bo'lsa, kechiring***», «***mendan o'tgan bo'lsa, uzr so'rayman***» kabilar bilan gap tuzing. Ularni qanday vaziyatlarda qo'llaysiz? Misollar bilan tushuntirib bering.

14-MAVZU: PAYT MA'NOSINING IFODALANISHI

THEME 14: EXPRESSING TIME

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

zal, hanuz, tunov kuni, indin, ajratmoq, iqlim, moslashmoq, tikmoq, xavotir olmoq, ikkilanmoq, kuyinmoq, pardozi, to'y, dasturxon, tandirxona, tarqalmoq, mish-mish, navbatchi, pul, buzmoq, qurmoq, niyat qilmoq, intilmoq, javon, ayblamoq, xolisona, darrov, darhol.



Suhbatni o'qing.

- Keling, bugun darsda kun tartibingiz haqida gaplashamiz. Odatda, nechada uyg'onasiz?
- Men soat oltida, ba'zan olti yarimda turaman.
- Soat nechada nonushta qilasiz?
- Agar nonushtam tayyor bo'lsa, soat yettida nonushta qilaman. Agar o'zim nonushtani tayyorlasam, yetti yarimlarda nonushta qilaman.
- Keyin-chi?
- Nonushtadan keyin kiyinaman. Men, odatda, kechqurun uxlashdan oldin ertaga kiyadigan kiyimlarimni dazmollab tayyorlab qo'yaman.
- Bu juda yaxshi odat. Ertalab vaqt kam bo'ladi. Hamma ishga ulgurish qiyin.

- To'g'ri.
- Soat nechada uydan chiqasiz?
- Odatda, sakkiz yarimda. Uydan chiqishimdan oldin, agar vaqtim bo'lsa, sakkizda boshlanadigan yangiliklarni ko'raman.
- Metroda kelasizmi?
- Yo'q, uyim yaqin. Piyoda kelaman. Universitetga kelayotganimda ko'p tanishlarimni ko'raman. Ba'zan ular bilan birga kelamiz. Dars boshlanguncha yigitlar bilan yo'lakda gaplashib turamiz. Ko'pincha futbol haqida gaplashamiz.

Grammatik qurilmalar

Grammatik materiallar	Misollar
So'roq olmoshlari yordamida // <i>By means of interrogative pronouns</i>	
Qachon?// Qachongacha?// Qachondan buyon? <i>When? How long? Since when?</i> Qachondan beri? Qachondan boshlab?// <i>When? Since when?</i>	Qachon keldingiz?// <i>When did you come?</i> Qachondan beri bu shaharda yashaysiz?// <i>How long have you lived in this city?</i> Ta'til qachongacha davom etadi?// <i>How long will the holiday continue?</i>

Ravish yordamida // <i>By means of adverb</i>		
o'tgan kun(i), keyin, so'ng, avval, oldin, ilgari, kuni bilan, hozir, ertalab, kechqurun, o'tmishda, allaqachon, yildan yilga, kechqurun, kechasi, tunda (tun payti), har doim, hamisha, tunov kun(i), kecha, bugun, erta, indin(ga), ertaga, har kuni, bugun-erta,	<i>the day before yesterday, then, after that, before, long ago, all day, now, in the morning, in the evening, in the past, already, year after year, in the afternoon, at night, always, on that day, yesterday, today, early, the day after tomorrow, tomorrow, every day,</i>	Avval o'yla, keyin so'zla. Indinga (ertadan keyin) uchrashamiz. Kecha kinoga bordim. Ertalab u bilan uchrashdim. Bugun imtihon topshiramiz.

kun sayin, endi, hali, hanuz, saharlab, peshin, oqshom, tush paytida, qachondir, bultur	<i>day after day, now, then, still, early morning, noon, evening, dusk, afternoon, once, ever, last year</i>	Kuni bilan (kun bo'yi, kun davomida) sizni kutdim. Uy ishini al-laqachon yozib bo'lganman.
--	--	--

Vaqtни ifodalash // Time		
Soat • dan • daqiqa o'tdi // It is • past •	4:10	4 dan 10 daqiqa o'tdi
Soat • dan • ta o'tdi	4:10	4 dan 10 ta o'tdi
Soat • dan 30 daqiqa o'tdi	4:30	4 dan 30 daqiqa o'tdi
Soat • yarim // it is half past •	4:30	4 yarim
Soat • dan 15 daqiqa o'tdi	4:15	4 dan 15 daqiqa o'tdi
Soat • dan chorak o'tdi // it is quarter past •	4:15	4 dan chorak o'tdi
Soat • daqiqa kam •	4:40	20 daqiqa kam 5
Soat • ta kam •	4:40	20 ta kam 5
Soat • -u •	4:40	to'rt-u qirq
Soat 15 ta kam •	4:45	15 ta kam 5
Soat 15 daqiqa kam •	4:45	15 daqiqa kam 5
Soat chorak kam •	4:45	chorak kam 5
Soat roppa-rosa •	4:00	roppa-rosa 4
	Soat yigirmata kam 3 da keling. Soat roppa-rosa to'rt bo'ldi. // <i>It is 4 o'clock sharp.</i> Soat ikki yarim (ikki-yu o'ttiz)da dars boshlandi.	

RAVISH, SON // ADVERB, NUMERAL	-gacha	Ertagacha xayr! // <i>See you tomorrow!</i> Beshgacha kutaman. Kechgacha tugatish kerak.
FE'L [-ma]	-gun+(-ega-lik qo'shimchasi)cha ³²	Uchrashguncha xayr! // <i>See you!</i> Yomg'ir tingunicha uyda o'tir. Sen kelguningcha kutaman.

FE'L	-ish/-mas	-im	-imiz	-dan oldin/ avval	Men bu yerga kelishimdan oldin yaxshilab o'ylab ko'rdim. // <i>I thought it over before I came here.</i>
		-ing	-ingiz		
		-i	-lari		
FE'L	-gan	-im	-imiz	-dan keyin/ so'ng	Sen kelganingdan keyin boshlaymiz. // <i>We shall begin when you come.</i>
		-ing	-ingiz		
		-i	-lari		
FE'L	-ish	-im	-imiz	bilan (oq)	Sen kelishing bilan (oq) boshlaymiz. // <i>We shall begin as soon as you come</i>
		-ing	-ingiz		
		-i	-lari		

FE'L	-gan -ayotgan	-im	-imiz	-da	Men kelganimda u ketdi // <i>When I came, he left.</i> Men kelayotganimda u chiqib ketayotgan edi. // <i>While I was coming she was leaving</i>
		-ing	-ingiz		
		-i	-lari		

FE'L	-gan	-im	-imiz	-dan beri/ buyon	U kelgandan beri (buyon) hali hech qanday o'zgarishlar bo'lmadi. // <i>There haven't been any changes since he/she came here</i>
		-ing	-ingiz		
		-i	-lari		

FE'L	-gach // <i>as soon as</i>	Men kelgach, sen ketasan. // <i>As soon as I come, you will go.</i> Siz kelgach, boshlaymiz. Ular kelgach, hammasini tushuntirib berasan.
------	----------------------------	---

³² -guncha qo'shimchasining «qiyoslash» ma'nosi ham bor: **Bu verda o'tirguncha yaxshisi. kutubxonaga boring** // *The suffix «-guncha» also has comparative meaning. Instead of sitting here, go to the library.*



Mashqlar

14.1. Qavsni to'g'ri oching.

Bugun (12:45) darsim tugaydi – Bugun o'n beshta kam birda// o'n ikkidan qirq besh daqiqa o'tganda darsim tugaydi.

1. Agar vaqtingiz bo'lsa, (14:15) metro bekati yonida uchrashaylik.
2. Ertalab (9:20) universitetda ko'rishsak bo'ladi.
3. Har kuni (1,5 soat) sport zalida shug'ullanaman.
4. Hozir darsdaman, (10:55) tanaffusga chiqamiz.
5. Nima uchun kelmadingiz, men sizni (9:00–11:30) universitetda kutdim.
6. Ish kuni (8:30) boshlanadi.

14.2. Nuqtalar o'rniga mos so'zni qo'ying.

Bugun, hanuz, hali, o'tgan kuni, indinga, hamisha, kun bo'yi, erta-indin

1. ... havo juda yoqimli! Yuring, birga sayr qilaylik. **(bugun)**
2. ... hech qayerga chiqmay, uning qo'ng'irog'ini kutdim, lekin, menimcha, endi qo'ng'iroq qilmasa kerak, ancha kech bo'ldi.
3. Hozir juda bandman, ... gaplashamiz. Biror soatdan so'ng kela olasizmi?
4. Uning bugun ham, ertaga ham vaqti yo'q ekan, balki ... biz uchun vaqt ajratishini iltimos qilarmiz?
5. Ikki yildan beri u xorijda yashaydi, lekin ... u yerning iqlimiga moslasha olmayapti.
6. Yurtimizda ... tinchlik bo'lishini istaymiz.
7. Bayram uchun ko'ylak tiktirypaman, menimcha, ... tayyor bo'ladi.
8. ... siz bilan bu haqda gaplashgan edik, esingizdami?

14.3. Quyidagilardan mosini tanlab, gaplarni to'ldiring.

-ganda/ -guncha/ -ayotganda/ -ish bilan/ -gandan beri/ -gandan keyin

1. Ozgina kech qolyapman. Lekin dars boshlan... yetib kelaman.
2. Biror qarorga kela olmay, ikkilan..., doimo u bilan maslahatlashaman va u menga to'g'ri yo'l ko'rsatishiga ishonaman.
3. Dars qil..., xonamga do'stim kirib, meni kechki ovqatga taklif qildi, darsim ko'p edi, lekin unga «yo'q» deya olmadim.
4. Iltimos, mendan xavotir olmang, uyga bor..., darhol sizga qo'ng'iroq qilaman.
5. Vazifani bajar..., bermalol ketishingiz mumkin.
6. U sayohatdan qayt..., hali bir marta ham u bilan ko'rishmadik.

14.4. Quyidagilarga mos keladiganini tanlang.

1. Ikkilanganimda	A. to'y tarqaydi.
2. Mana shu dorini ichayotganimdan beri	B. u xonada edimi?
3. Siz kelganingizda	D. o'zimni ancha yaxshi his qilyapman.
4. Biror narsadan foydalanganingdan keyin	E. doimo onam bilan maslahatlashaman.
5. Sen kiyinib, pardoz qilguningcha	F. hech kim hech qayerga ketmaydi.
6. Bu qarorni qabul qilishdan oldin	J. biror marta ham qo'ng'iroq qilmadingiz-a?
7. Men juda xafaman. Toshkentga kelganingizdan beri	I. uni o'z joyiga qo'yishga o'rgan.
8. Mana shu vazifani bajarmagun(mgiz)cha	K. yaxshilab o'ylab ko'rdingizmi?

14.5. Xatoni toping.

1. Siz kelmasdan oldin ham bu muammo bor edi.
2. Otam kelgach oldin dasturxonga o'tirmaymiz.
3. U kelganida gaplashamiz.

4. Dars tugashidan keyin birga kutubxonaga kiraylik.
5. U O'zbekistonga kelgach beri ikki yil bo'ldi.
6. Iltimos, kelganingizda tandırxonadan issiq non olib keling.

14.6. Mosini tanlab qo'ying. -ganda // -(a)yotganda

1. Choy ich... tilim kuydi, juda issiq ekan.
2. Men bir qarorga kel... sizga o'zim qo'ng'iroq qilaman.
3. Televizor ko'r... do'stim kelib qoldi.
4. Ishdan juda charcha... biz do'stlarimiz bilan mana shu yerga kelamiz, bu yerning havosi juda toza va kichkina qahvaxona ham bor.
5. Qizlar bilan universitet hovlisida o'tir... o'qituvchimiz bizga er-taga imtihon bo'lishini eslatdi va biz uy-uyimizga tarqaldik.
6. Odatim bor: bozorga bor... nima uchun kelganimni unutib, boshqa narsalarni sotib olaman, menimcha, men rejali emasman.
7. Iltimos, do'stingiz gapir... uning fikrini bo'lmang, oxirigacha tinglang, keyin o'z fikringizni ayting.
8. Sizdan bir iltimosim bor, Nodirni ko'r... unga katta salomimni ayting.

14.7. Mosini tanlab qo'ying.

-ishdan oldin// -(ma)guncha

1. Biror ishni qil... yaxshilab o'ylab ko'raman.
2. O'qituvchi bajargan vazifamni tekshir... men boshqa talabalar bajargan ishlarni ko'rdim.
3. O'z ko'zim bilan ko'r... bunday mishmishlarga ishonmayman.
4. Birovnikiga bor..., albatta, qo'ng'iroq qilish kerak deb o'ylayman.
5. «Kitobni oxirigacha o'qi... xonangdan chiqmaysan», – dedi onam.
6. O'zbek tilini o'rgan...O'zbekistondan ketmayman.
7. Xulosa chiqar... masalani har tomonlama batafsil o'rganish kerak.
8. Bugun navbatchiman. Darslar tuga... keta olmayman.

14.8. Mosini tanlab qo'ying.

-guncha// -gacha

1. Dushanba... xayr, yaxshi dam oling.
2. Dushanbada ko'rish... xayr, yaxshi dam oling.
3. Keling, u kel... shu yerda o'tirib qahva ichamiz.
4. Majlis... hali vaqt bor, balki, birga tushlik qilarmiz?
5. Bu muammoni hal qilma... ko'nglim tinchimaydi.
6. O'qituvchi ruxsat berma... xonadan chiqish mumkin emas.
7. Soat besh... qaytasizmi?
8. O'z ko'zingiz bilan ko'rma... ishonmaysizmi?

14.9. Qaysi gaplarga «yaxshisi» so'zini qo'shish mumkin?

1. Bu yerda vaqtni bekor o'tkazguncha kutubxonaga bor.
2. Yaxshilab tushunmagunimcha qayta-qayta o'qiymen.
3. Pulni shunchaki mayda-chuyda narsalarga sarflaguncha kitob sotib oling.
4. Yangini qurmaguncha eskini buzmay deydi donolar.
5. Tiz cho'kib yashaguncha tik turib o'lgan yaxshi.
6. Dunyo turguncha turing deb o'zbeklar niyat qiladilar.
7. Nimanidir kutib yashaguncha o'zing istagan narsaga intilishga harakat qil.
8. Yaqinlarim bilan maslahatlashmagunimcha qaror qabul qila olmayman.

14.10. Payt ma'noli gap tuzing.

-gach, -guncha, -(a)yotganda, -ganda, -(i)shdan oldin, -gandan beri

Namuna: O'qituvchi keldi. Dars boshlandi. – O'qituvchi kelgach, dars boshlandi.

1. Vazifani to'liq bajarasiz. Aks holda, ketmaysiz.
2. Javondagi lug'atlardan foydalaning. Keyin ularni joyiga qo'yishga o'rganing.

3. U sayohatdan qaytdi. Men hali uni ko'rmadim.
4. Birovni ayblamang, hamma narsaga xolisona baho bering.
5. Men sizga qo'ng'iroq qilgan edim. Shu vaqt qayerda edingiz?
6. Dars tayyorlayapman. Xalaqit bermang, iltimos.



Matnni o'qing. Yangi so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

NAHORGI OSH MAROSIMI

Xalqimizning betakror va go'zal an'analaridan yana biri nahorgi osh marosimidir. Bu marosim turli xil sabablarga ko'ra o'tkaziladi. Ulardan eng tantanalisi to'y munosabati bilan beriladigan oshdir. Bunday marosim juda dabdabali bo'ladi. To'y egalari nahorgi oshning kuni va vaqtini avvaldan mahalladagi hurmatli qariyalar va qarindoshlar bilan maslahatlashib belgilaydilar. Qarindoshlar, qo'shnilar va tanishlarga taklifnomalar tarqatadilar.

Bir kun avval uyda «sabzito'g'rar» marosimi bo'ladi. Bu marosimga, odatda, qo'shnilar va yaqin qarindoshlar keladilar. Sabzi to'g'rab bo'lganlaridan keyin mezbbonlar ularni dasturxonga taklif etadilar. Dasturxon atrofida oqsoqollar kelganlar o'rtasida ishlarni taqsimlaydilar. Ertalabki osh erta tongda tayyor bo'lishi kerak. Bu paytda karnay-surnay va nog'ora ovozlari nahorgi osh boshlanganidan xabar beradi. Mehmonlar dasturxonga o'tirib, fotiha o'qiganlaridan keyin ularga non va choy tortiladi. Shundan keyingina laganlarda ikki kishiga bir lagandan osh olib kelinadi. Ovqatdan keyin laganlar olib qo'yiladi, mehmonlar yana yoshlar baxti uchun fotiha o'qib, mezbonga minnatdorchilik bildirib ketadilar. Ular ketganidan keyin dasturxon yangi mehmonlarning tashrifi uchun qaytadan tayyorlanadi. Nahorgi osh, odatda, ko'pi bilan bir yarim-ikki soat davom etadi. Shu vaqt davomida taklif etilgan xonandalar qo'shiq aytadilar.

Ma'raka oshi marhum xotirasi uchun o'tkaziladi. Mehmonlar dasturxonga o'tirganlarida Qur'on suralarini o'qiydilar va o'tgan odamni xotirlaydilar. Osh yeb bo'lganlaridan keyin ham Qur'on su-

ralari o'qiladi. Ma'raka oshida qo'shiq-musiqqa bo'lmaydi, dasturxon bayram to'y oshiga qaraganda oddiyroq bezatiladi.

Bu marosimlarda faqat erkaklar xizmat qiladilar, unga faqat erkaklar taklif etiladi.

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

1. Osh marosimi qanday munosabat bilan o'tkaziladi?
2. Marosim o'tkaziladigan kunni kim belgilaydi?
3. «Sabzito'g'rar»da nima qiladilar?
4. Hamma osh marosimlarida hofizlar qo'shiq aytadilarmi?
5. Osh marosimiga kimlar taklif qilinadi?

15-mavzu: O'RIN-JOY MA'NOSINING IFODALANISHI

Theme 15: EXPRESSING PLACE

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

o'rta, o'ng, allaqayer, do'kon, mehmon, yo'l, tinchlik, xotirjamlik, taraqqiyot, o'smoq, tartib, intizom, hamjihatlik, qo'ymoq, sayil, gavjum, ost, go'zallik, salon, favvora, doim, bugun, belgilamoq, jihozlamoq, tegmoq, eski, masjid, qadimiy, tarixiy, madaniy, obida, to'liq, majmua, taksi, transport, qulay.



Suhbatni o'qing.

- Bugun siz bilan shaharni aylanmoqchi edim. Vaqtingiz bormi?
- Albatta, qayerlarni ko'rmoqchisiz?
- Eski binovamajsidlarnitomoshaqilaylik. MengaO'zbekistondagi qadimiy tarixiy-madaniy obidalar juda yoqadi.
- Juda yaxshi, birinchi qayerga boramiz?
- Siz qayerga desangiz, o'sha yerga.
- O'zingiz ko'rishni xohlagan joylaringiz bormi? Kecha sotib olgan kitobingizda Toshkentdagi eng chiroyli obidalar haqida to'liq ma'lumot berilgan. O'qidingizmi?
- Ha, o'qidim.

- Menga ham bu kitob juda yoqadi. Unda birinchi Hazrati Imom majmuasiga boramiz. U qayerda joylashganini bilasizmi?
- Xaritada u yerga nechanchi avtobuslar borishi ham ko'rsatilgan.
- Taksida bormaymizmi?
- Yo'q, taksida bormaymiz. Shahar transportlari juda qulay va transportda yurish, menimcha, juda qiziqarli. Yuring, avtobus bekatiga boramiz.

Grammatik qurilmalar

Grammatik materiallar	Misollar
So'roq olmoshlari yordamida // <i>By means of interrogative pronouns</i>	
Qayerda? Qayerga? Qayerdan? Qani? // <i>Where? Where? Where from? Where?</i>	Qayerda yashaysiz? Qayerga ketyapsiz? Qayerdan keldi? U qani?

O'rin ravishi yordamida // <i>By means of adverbial modifier of place</i>				
bu yerda u yerda shu yerda yuqorida pastda quyida oldida qarshisida orqada unda-bunda shu yerga uzoqda o'rtada oldinda	<i>here</i> <i>there</i> <i>here</i> <i>up</i> <i>down</i> <i>following</i> <i>in front of</i> <i>behind</i> <i>seldom</i> <i>here</i> <i>here</i> <i>far</i> <i>between</i> <i>ahead</i>	yaqinda har qayer- da hech qa- yerda allaqayer- da qayerdadir olg'a o'ngda chapdan ichkariga tashqarida uyoq-bu- yoqqa qayoqqa- dir	<i>near</i> <i>everywhere</i> <i>nowhere</i> <i>somewhere</i> <i>forward</i> <i>ahead</i> <i>to the right</i> <i>from the left</i> <i>side</i> <i>inside</i> <i>outside</i> <i>here and</i> <i>there</i> <i>somewhere</i>	Sizning oldingizga keldim. Tashqarida qor yog'moqda. Allaqayerdan musiqa ovozi eshitildi. O'rtada stol turibdi. Soat uchda shu yerga keling. O'ngdagi bino, shahar hokimiyati binosi. Tashqari juda sovuq, tez ichkariga kiring.

Ko'makchilar yordamida // By means of postpositions							
OT	-ning	old ust yon tag orqa o'rta ich ora qosh ost ro'para	front, on, side, bottom, back, middle, top, mid, on, bottom, in front of	-im	-imiz	-da/ -ga/ -dan	Uyimizning yonida metro bor. // <i>There is a metro near our house.</i>
				-ing	-ingiz		Binoning ro'parasida bog' joylashgan. Ustingizga biror narsa kiying. Stol ustida choynak va piyola turibdi.
				-i	-lari		

Qayer -da/-ga/ -dan	FE'L	-gan bo'lsa	-m	-k	o'sha yer -da/- ga/- dan ³³	U qayerda o'qiyotgan bo'lsa, men ham o'sha yerda o'qishni xohlayman. // <i>I also want to study there, where she is studying.</i>
		-ayotgan bo'lsa	-ng	-ngiz		Qayerga desangiz, o'sha yerga boraman.
		-sa	-	-lar		U qayerga ketgan bo'lsa, siz ham o'sha yerga boring.

FE'L	-gan -ayot- gan -di- gan	joy/yer ³⁴	-ga/-da/- dan	Sen aytgan joyga bordim. // <i>I went the place where you said.</i> U o'qiyotgan yerda chet elliklar ko'p. Biz boradigan joydan bir kilometr narida katta suv havzasi joylashgan.
------	--------------------------------------	-----------------------	------------------	---

³³ NOTE: Not a certain place (This pattern is not used when speaking about a certain place).

³⁴ NOTE: A certain place which is not necessary to be mentioned or with no any particular name.

Qayerdaki u o'qiyotgan bo'lsa, u yerda chet elliklar ko'p=incorrect // Where he is studying has many foreigners.

U o'qiyotgan yerda chet elliklar ko'p=correct // The place where he is studying has many foreigners.



Mashqlar

15.1. Gaplarning mazmunini tog'rilab, to'ldiring.

1. Uyimizning... metro bekati bor.
2. Universitet ... yangi stadion qurildi.
3. Tashqarida havo juda sovuq.... qalin kiyim kiying.
4. Keng xonaning ... katta stol qo'yilgan.
5. Stol ... choynak, piyola va non turibdi.
6. Ichkarida havo issiq, ... esa salqin.
7. Bozorning chap tomonida katta ko'cha, ... tomonida esa stadion bor.
8. Ikki daryo ... katta tekislik joylashgan.

15.2. Nuqtalar o'rniga mos so'zni qo'ying.

bu yerda /allaqayerda /qayerdan /hech qayerdan /shu yerga / o'sha yerda

1. Shahardagi hamma kitob do'konlariga bordim, ammo... siz aytgan kitobni topa olmadim.
2. O'zbekistonda mehmonmisiz? O'zingiz ...siz?
3. Hali uch soat vaqtimiz bor, shaharni aylanishingiz, do'konlarga kirishingiz mumkin, lekin ikki soatdan keyin hamma mana... qaytib kelsin, iltimos, kechikmang.
4. Hozir eslay olmayapman, lekin ... shu narsani ko'rgan edim.
5. ... bizdan boshqa ham kimdir bormi?
6. Ertaga mana shu yo'l bilan metro bekatiga borasiz. Sizni ... soat 10:00 da kutaman.

15.3. Tanlang.

1. Qayerda tinchlik-xotirjamlik bo'lsa,
A. hamma narsa rejali bo'ladi.
2. Kitobni qayerdan olgan bo'lsang,
B. o'sha yerdan bizga, albatta, sovg'a olib keladi.

3. Qayerga desangiz, D. taraqqiyot ham bo'lmaydi.
4. U qayerga sayohat qilsa, F. o'sha yerda o'sish bo'ladi.
5. Qayerda tartib-intizom bo'lsa,
E. o'sha yerga boraman.
6. Qayerda birlik, hamjihatlik bo'lmasa,
I. o'sha yerga qo'y.

15.4. Xato qo'llangan so'zni toping.

1. Mana bu xona katta va yorug'. O'sha xonada siz bilan darslari-mizni o'tamiz.
2. Bugun sayil. Ko'cha juda gavjum, unda-bunda odamlar ko'rinadi.
3. Men ko'p qavatli uyda yashayman. Uyimizning ostida, 1-qavat-da, go'zallik saloni joylashgan.
4. «Oybek» metro bekati yonida kichkinagina qahvaxona bor; soat beshlarda men sizni shu yerda kutaman. Kelasiz-a?
5. Yuqorida bizning ofisimiz joylashgan, quyida esa o'quv marka-zi bor.
6. Universitet kutubxonasi yaqin, derazadan qarasangiz, ko'rina-di. Ana bu bino kutubxona.

15.5. To'g'rimi yoki noto'g'rimi?

1. Qayerda Alisher Navoiy nomidagi teatr joylashgan bo'lsa, uning yonida katta kitob do'koni bor.
2. Qayerda favvora bo'lsa, o'sha yer doim gavjum bo'ladi.
3. Siz qayerda sumkangizni qoldirgan bo'lsangiz, uni o'sha yer-dan topib oldim.
4. Siz aytgan joyga bordik.
5. Boshqa shaharlardan kelgan talabalar yashaydigan joy «tala-balar uyi» deyiladi.
6. Qayerda siz bilan kecha uchrashdik, bugun Nodir bilan o'sha yerda ko'rishmoqchimiz.
7. Qayerdan olgan bo'lsang, o'sha yerga qo'y.

8. Qayerga uchrashuv belgilangan bo'lsa, o'sha joyni mehmonlar uchun chiroyli qilib jihozlash kerak.

9. Kitoblarni kecha qo'ygan joyingizdan olishingiz mumkin, o'sha yerda turibdi, hech kim tegmadi.

10. U o'qiyotgan joyda chet ellik talabalar ko'p.



Matnni o'qing. Yangi so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

CHOY

An'anaga ko'ra, har qanday ovqatlanish choy ichish bilan boshlanib, choy ichish bilan tugaydi. Choy marosimi O'zbekiston xalqi hayotida alohida o'rin egallaydi. Choy damlash va dasturxon atrofiga yig'ilganlarning barchasini bu ajoyib ichimlik bilan mehmon qilish uy egalari vazifasiga kiradi. Dasturxon ustiga har xil shirinliklar va mevalar qo'yiladi, choy esa kichik choynakda damlanib, kichik piyolalarga quyiladi. Choyni mehmonlarga uzatishdan oldin uch marotaba qaytariladi. Uy egasi sizga piyolani to'ldirmasdan quysa, hayron bo'lmang. Bu mehmondo'stlik belgisi hisoblanadi. Buni tushuntirish juda oson. Yarim to'la piyolani qo'lingizda ushlash qulay hamda qo'lingiz kuyishi xavfi ham yo'q, choyni ham issiq-issiq ichasiz.

Choyxona o'zbek xalqining an'anaviy choy ichish joyi hisoblanadi. Choyxonalar, odatda, salqin joylarda hamda daraxtlarning soyasi tagida joylashadi. An'anaviy choyxonalar gilamlar, past o'rindiqlar va xontaxtalar bilan bezatiladi. Choy va taom tayyorlanadigan joy, ya'ni o'choq turgan joyga alohida e'tibor qaratiladi. Choyxona jihozlari qulay va shinam bo'ladi. Bu yerda hayot qaynab turadi, chunki choyxonaga kelganlar nafaqat choy ichish, taom yeyish va dam olish uchun, balki turli voqealarni muhokama qilish, yangiliklarni aytib berish uchun ham yig'iladilar.

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

1. Choyni kim tayyorlaydi?
2. Nima uchun choy kichkina choynakka damlanadi?
3. Piyolaga choyni qancha quyish kerak?
4. Choyxonada faqat choy ichiladimi?

Bilib qo'ygan yaxshi!

«Bir piyola choy ichmoq» birikmasida o'zbek milliy urf-odatlarining naqadar chiroyliligi o'z aksini topgan. Bir piyola choyga taklif qilinganda faqat choy ichish nazarda tutilmaydi. Odatda, choy turli shirinliklar, quruq va ho'l mevalar, issiq non bilan birga ichiladi. O'zbeklar bir piyola choyga taklif qilib, keyin dasturxonga somsa, suyuq va quyuq, issiq taomlar tortishlari odatiy hol. O'zbek tilida «sizni tushlikka taklif qilaman», «kechki ovqatga taklif qilmoqchiman», «birga ovqatlanmoqchi edim» kabilardan foydalanilmaydi. Odatda, bunday taklif «bir piyola choyga taklif qilmoqchi edim», «bir piyola choy ichib keting», «bir piyola choy ustida gaplashaylik», «birga bir piyola choy ichaylik», «choy ichib keting» yoki «bir piyola choyimiz bor» shaklida aytiladi.

16-mavzu: **SABAB MA'NOSINING IFODALANISHI**

Theme 16: **EXPRESSING CAUSE/REASON**

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

sabab, ifodalash, madaniyatli, kamgap, piyoda, chunki, kiyinmoq, boshlanmoq, guruch, sabzavot, uchrashuv, yutuq, behad, minnatdor bo'lmoq, qulflamoq, uyalmoq, mamnun bo'lmoq, bo'yin, xushchaqchaq, chiniqtirmoq, bo'yniga olmoq, nohaqlik, aynan, dakki eshitmoq.



Suhbatni o'qing.

- Yaxshimisiz, Naoko? Nima uchun kecha darsga kelmadingiz?
- Assalomu alaykum. Kechirasiz, kecha mazam bo'lmadi. Kechasi isitmam chiqib, boshim qattiq og'ridi. Boshim qattiq og'riganidan uy vazifalarini ham qila olmadim. Shamolladim, shekilli.
- Shifokorga ko'rindingizmi?
- Yo'q, shifokorni qanday chaqirish kerakligini bilmayman.
- Yotoqxonaning yonida tibbiyot xonasi bor. Har doim navbatchi shifokor bo'ladi. Agar o'zingizni juda yomon his qilsangiz, tez yordamni chaqirish kerak.
- Ha, eshitgan edim. Lekin tez yordamning telefon raqamini bilmaganim uchun chaqira olmadim.
- Nima uchun menga qo'ng'iroq qilmadingiz?

– Soat o‘n ikkidan oshgan edi, shuning uchun sizni bezovta qilgim kelmadi. Xijolat bo‘ldim.

– Bunday hollarda bemalol qo‘ng‘iroq qiling, hech tortinmang. Bu yerda oilangiz, yaqinlaringiz yo‘q, shuning uchun muammolaringizni bizga aytishingiz kerak.

– Katta rahmat, lekin hozir yaxshiman. Onam bergan dorilar bor, isitma tushiradigan dorini ichdim.

– Sizga asal, malina murabbosi, limon olib kelaman.

– Nima uchun?

– Chunki shamollaganda bular juda foydali.

Grammatik qurilmalar

Grammatik materiallar	Misollar
So‘roq olmoshlari yordamida // <i>By means of interrogative pronouns</i>	
Nega? Nimaga? Nima uchun? Nima sababdan? <i>Why?</i>	Nega kecha sen uyda qolding? // <i>Why did you stay at home yesterday?</i> Nimaga u kecha kelmadi? Nima uchun bugun siz kelmadingiz? Nima sababdan siz kecha soat 11:30da uchrashuvga kelmadingiz? // <i>Why didn't you come to the appointment at 11:30 yesterday?</i>

Sabab ravishi yordamida // <i>By means of adverbial modifier of reason</i>	
chorasizlikdan, noilojlikdan, noiloj // <i>because of a hopeless position</i>	Chorasizlikdan sizning oldingizga keldim.

Ko‘makchilar yordamida // <i>By means of postpositions</i>	
uchun, sababli, tufayli // <i>because, because of, owing to, due to, for</i>	O‘zbekistonni yaxshi ko‘rganim uchun/ sababli/ tufayli o‘zbek tilini o‘rganyapman. // <i>I am learning Uzbek, because I like Uzbekistan.</i>

VOQEA-HODISA	chunki /negaki	SABAB	Bugun kela olmadim, chunki ishim ko'p edi. Kecha men kelmadim, negaki kasal edim.
SABAB	shuning uchun (shu bois/ shu sababli/ shu tufayli)	VOQEA-HODISA	Kecha men kasal edim, shuning uchun kelmadim. Ishim ko'p edi, shuning uchun kela olmadim.

SABAB	-gan, -ayot-gan	-im	-imiz	uchun, sababli, tufayli	Ishim ko'p bo'lgani uchun kela olmadim. // <i>I couldn't come, because I had a lot to do.</i> Kasal bo'lgani sababli darsga qatnasha olmadi.
		-ing	-ingiz		
		-i	-lari		

Modal so'zlar yordamida // By means of modal words

TAXMINIY SABAB // HYPOTHETICAL REASON	shekilli		VOQEA-HODISA	Xafa bo'ldi, shekilli , bugun kelmadi. // <i>Apparently he was sad so he didn't come.</i> Xafa bo'lgan bo'lsa kerak , bugun qo'ng'iroq ham qilmadi. // <i>He must have been angry with me so he didn't even phone me.</i>
	FE'L	-sa kerak		

Grammatik shakllar yordamida // By means of grammatical forms

RAVISH, SIFAT // ADJECTIVE, ADVERB	-lik	-im	-imiz	-dan	Ish ko' pligidan hech narsaga ulgurmadim. // <i>I didn't manage to do anything because I had a lot to do.</i> Uning go'zalligidan hayratlandim.
		-ing	-ingiz		
		-i	-lari		

FE'L [-ma]	-gan	-im	-imiz	-dan	Xijolat bo'lganidan xonadan chiqmadi. // <i>She didn't go out of the room because she was embarrassed.</i> Tanish ganimdan xursandman.
		-ing	-ingiz		
		-i	-lari		

Yuklama yordamida // By means of particles				
TAXMINIY SABAB HYPOTHETICAL REASON	FE'L	-mi	VOQEA- HODISA	Xafa bo'ldimi, bugun menga qo'ng'iroq qilmadi. // <i>She may have been angry with me so she didn't phone me.</i>



Mashqlar

16.1. Mos so'zni qo'ying.

sovuq, tor, madaniyatli, kamgap, salqin, uzoq, yaqin, ochiq, qiziqarli, band.

1. U yerga piyoda borishingiz ham mumkin, chunki...
2. Issiqroq kiyining, chunki havo ...
3. Men bu romanni ikki kunda o'qib chiqdim, chunki juda ... ekan.
4. Universitetda darslarim soat 9:00da boshlanadi, men uyimdan soat 7:30 da chiqaman, chunki universitetim ...
5. Akam ishda bo'lsa, hech qo'ng'iroqlarimga javob bermaydi, chunki juda... bo'ladi.
6. Nodir juda yaxshi yigit, lekin men o'n marta gapirganimda u bir marta javob beradi, chunki juda...
7. U hech qachon sizni xafa qiladigan gaplarni gapirmaydi, yetti marta o'ylab bir marta gapiradi, chunki juda ...yigit.
8. Xona juda sovuq, chunki derazalar ...
9. Bu ko'chaga mashina bilan kira olmaysiz, chunki juda ... ko'cha.
10. Yozda, odatda, metroda yuraman, chunki metro juda... bo'ladi.

16.2. chunki//shuning uchun shaklini to'g'ri qo'llang.

1. Mening boshim og'ridi, ... uy ishini qila olmadim.
2. Men sayohat qilishni yaxshi ko'raman, ...bu yozgi ta'tilda Yaponiyaga bormoqchiman.
3. Kecha men darsdan keyin Nodirnikiga bordim, ... u bugun dars-ga kelmadi.

4. Bu ovqat juda yog'li ekan, ...menga yoqmadi.
5. U darsni tushunmadi, ... o'qituvchiga savol berdi.
6. Biz kecha tog'ga bordik, ... juda charchadik.
7. Kecha darsga ham kelmadingiz, qo'ng'iroqlarimga ham javob bermadingiz, ... juda xavotir oldim.
8. Men unga «katta rahmat» dedim, ...u menga yordam berdi.
9. O'zbekistonga yaqindagina keldim, ... hali ko'p joylarni ko'rganim yo'q.
10. Kecha qo'ng'iroqlaringizga javob bermaganim uchun uzr, ... juda band edim.

16.3. «-gan uchun» shaklini to'g'ri qo'llang.

1. Matnni to'g'ri tarjima qila olma... dakki eshitdim.
2. Kecha siz kelma... biz o'zimiz ishni tugata olmadik.
3. Kechik... ming bor uzr so'rayman.
4. Siz taklif qilma... Anvar bu tadbirga kelmadi.
5. Lug'atim bo'lma... maqolani tarjima qila olmadim.
6. Nodir tushlikka chiqmay ishla...kechqurun juda charchadi.
7. Kalitim bo'lma... uyga kira olmadim.
8. Ovqat juda yog'li bo'l... yeya olmadim.

16.4. Tanlang.

1. Anchadan beri ko'rishmaganimiz uchun	A. u o'tirgan xonaga kirmadim.
2. Anchadan beri shug'ullanmaganim uchun	B. oldingizga yordam so'rab keldik.
3. Kecha dam olmaganingiz uchun	D. xiyobonda rosa gaplashib o'tirdik.
4. U bilan uchrashishni xohlamaganim uchun	E. bugun ko'rinishingiz yaxshi emas.

5. Juda ikkilandim, shuning uchun	F. birinchi mashg'ulotda juda tez charchadim.
6. Kechirasiz, muammoni o'zimiz hal qila olmaganimiz uchun	J. aniq bir qarorga kela olmadim.

16.5. Sabab munosabatli gaplar tuzing («-gan uchun» yordamida).

Namuna: Kecha kelmadingiz. Men xavotir oldim – Kecha kelmagingiz uchun juda xavotir oldim.

1. Siz vazifani yaxshi tushuntira olmadingiz. Men uni noto'g'ri bajardim.

2. U kecha mening qo'ng'iroqlarimga javob bermadi. U mendan xafa deb o'yladim.

3. Siz meni do'stingiz bilan tanishtirmadingiz. Ozgina xafa bo'ldim.

4. Odatda, faqat ruscha gapirasiz. Men o'zbek tilini bilmaysiz deb o'ylardim.

5. Sizga bu ro'mol yoqmadim. Men uni boshqasiga almashtirdim.

6. Havo juda sovuq. Tashqariga chiqqim kelmayapti.

7. Menga bu film yoqmadim. Uni oxirigacha ko'rmadim.

8. Undan iltimos qildik. U bizga yordam berdi.

9. Darsda o'qituvchining gaplarini yaxshi eshitmadingiz. Mavzuni ham tushunmadingiz, shekilli?

10. Vazifalarni o'z vaqtida bajarmadim. Hozir hech narsaga ulgura olmayapman.

16.6. -lik+dan // -gan+dan

1. Ishim ko'p... hech narsaga ulgura olmayapman.

2. Undan uyal...o'z fikrimni ayta olmadim.

3. Charcha... kinoni ko'rmasdan uxlab qoldim.

4. Ularning milliy urf-odatlarini bilma... juda uyaldim.

5. Xiyobonda odamlar ko'p... hech kimni topa olmadim.

6. Havo sovuq... darsga ham borgim kelmadi.

16.7. Gapni to'g'ri tuzing.

Namuna:

Kecha, juda charchadim, ishladik, shuning uchun, ko'p. – Kecha ko'p ishladik, shuning uchun juda charchadim.

1. sovuq, issiq, kiydim, havo, kiyim, shuning uchun, bugun.
2. sabzavotlar, kerak, bozor, shuning uchun, ovqat uchun, edi, bordim.
3. Samarqand, menga, yana, chunki, bormoqchiman, bir marta, yoqdi, juda.
4. uchrashuv, juda, chunki, bora olmadim, band, do'stlarim, edim, bilan.
5. yozgi, sayohat qilmoqchiman, ta'til, O'zbekiston, shuning uchun, bo'ylab, kerak, shaharlarning xaritalari, menga.
6. darsim, ertaga, mumkin, shuning uchun, siz bilan, yo'q, uchrashishimiz.
7. do'stlarim, osh, bilan, shuning uchun yaxshi, tayyorlamoqchimiz, kerak, guruch, sotib olishim.
8. mazam bo'lmaganidan, kela olmadim, darsga.

16.8. Mos shaklni qo'ying.

-ganim uchun; -ganim uchun; -ligimdan; -ganimiz uchun; shekilli; -ganidan; -ganingizdan; -tufayli

1. Yangi mavzuni yaxshi tushunma...***-ganim uchun*** uy vazifasini ham yaxshi bajara olmadim.
2. Menimcha, u sizdan xafa bo'lgan ... men bilan siz haqingizda gaplashishni xohlamadi.
3. Juda xursand... bu yaxshi xabarni aytish uchun onamga qo'ng'iroq qildim.
4. Juda charcha... ko'zingizni ham ocha olmayapsizmi?
5. Siz... mana shunday yutuqlarga erishdim. Sizga katta rahmat!
6. Shunday natijalarga erish... sizdan behad minnatdorman.
7. Nodir darsga shosh... eshikni qulflashni ham unutibdi.
8. Boshidan reja bilan ish qil... mana shunday natijalarga erishdik.

16.9. Savolga javobni toping.

1. Nima uchun doimo darsga kechikaman?	1. Chunki mas'uliyatni his etmaysiz.
2. Nima uchun o'z fikrimni aytishga uyalaman?	2. Chunki tanangizni chiniqtirmaysiz.
3. Nima uchun topshirilgan ishni oxirigacha yetkaza olmayman?	3. Chunki erta turmaysiz yoki vaqtni to'g'ri rejalashtira olmay-siz.
4. Nima uchun hech narsaga ulgura olmayman?	4. Chunki o'zingizga ishonmay-siz.
5. Nima uchun tez-tez kasal bo'laman?	5. Chunki u o'z hayotidan juda mamnun.
6. Nima uchun u har doim ko'tarinki kayfiyatda (juda xushchaqchaq) yuradi?	6. Chunki ishingizni o'z vaqtida bajarmaysiz yoki o'z imkoniyatlaringizni to'g'ri baholay olmay, ko'p ishni zimmangizga olasiz.

16.10. «-gan uchun» shakliga almashtiring.

Namuna: Mazam bo'lmadi, shuning uchun ishga bormadim. – Mazam bo'lmagani uchun ishga bormadim.

1. Menimcha, unga hech kim aytmagan, shekilli, u tadbirga kelmadi.

2. Men u bilan bahslashmadim, chunki nohaqligimni o'zim tushundim.

3. Men bu yo'ldan qaytmayman, chunki tanlagan yo'lim to'g'riligiga ishonaman.

4. Kechirasan, senga yordam bera olmayman, chunki o'zim ham hech narsani tushunmadim.

5. Menga bu yoqmadi, shuning uchun uni almashtirmoqchiman.

6. Havo sovuqligidan qo'llarim ishlamayapti.

7. Bugun juda ham band bo'lib, sizga qo'ng'iroq ham qila olmadim.

8. Bizdan jahli chiqdi, shekilli, gaplashgisi ham kelmadi.



Matnni o'qing. Yangi so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

REGISTON

Qadimiy Samarqand shahrining rasmiy markazi Registon maydoni bo'lib, bu yerda uchta madrasa qad ko'targan: Ulug'bek madrasasi (1417 – 1420), Sherdor madrasasi (1619 – 1636), Tillakori madrasasi (1647 – 1660). Registon ta'lim muassasalari joylashgan maskan bo'lib, Sharqdagi shahar qurilishi san'atining eng ko'zga tashlanadigan namunalaridan biri hisoblanadi. U haqda Amir Temur faxr bilan: **«Kim bizning kuch-qudratimizga shubha qilsa, kelib biz qurgan binolarni ko'rsin»**, – degan.

2001-yilda bu uch madrasa YUNESKOning butun dunyo yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan.

Qadimiy Samarqandga tashrif buyurgan sayyohlar bu shaharning yuragi bo'lgan ushbu maydon va uch madrasaning chiroyidan, salobatidan hayratga tushadilar. Uning nafis go'zalligini soatlab tomosha qiladilar, sehrli oqshomlarida sukunatni tinglaydilar.

Registon. Bu nom har bir o'zbekistonlik uchun juda tanish. Registon maydoni qadim-qadimdan Samarqandning boshidan kechgan quvonchli va qayg'uli kunlarining guvohidir. Mirzo Ulug'bek zamonidan beri bu maydon Samarqand aholisi uchun bosh maydon hisoblanadi. Samarqand hukmdorlarining farmonlari shu yerdan e'lon qilingan. Dushmanga qarshi jangga otlangan jasur lashkarlar aynan shu maydonda qasamyod qilib, keksalardan duo-fotiha olganlar...

Registon maydonida olib borilgan arxeologik tekshiruvlarga ko'ra, o'tgan zamonlarda bu yerda ulkan changalzor bo'lib, eng qadimgi ovchilar har xil yovvoyi hayvonlarni ovlaganlar. Qazilma ishlari paytida Registon maydonining eng pastki qatlamlaridan ibtidoiy odamlarning ov qurollari topilgan. Antik davrda esa hozirgi Registon maydonidan Afrosiyob shaharchasi tomonga katta ariq o'tkazilgan ekan. VIII–X asrlarda Registon maydoni o'rnida juda ko'plab

imoratlar paydo bo'la boshlaydi, chunki Samarqandni bosib olgan arablar Afrosiyobdan bir necha minglab mahalliy aholini majburlab ko'chirgan edilar. Aynan shu davrlarda bu yerda hunarmandlarning ustaxonalari, savdo rastalari qurilgan. XI–XII asrlarda hozirgi Registon maydoni o'rne va atrofidagi mahallalar tashqi mudofaa devori bilan o'ralib, «tashqi shahar» nomi bilan atala boshlangan.

1220-yili Afrosiyob Chingizxon tomonidan vayron qilingach, bu yerda yashashning iloji qolmagan, tirik qolgan xalq hozirgi eski shahar tomonga, ya'ni Registon maydoni atrofiga ko'chib o'tgan. Bu yerdan oqib o'tuvchi kanal ancha kengayib, sayozlasha boshlagan. Shundan so'ng yangi kanal qazilgan. Kanalning eski o'rnida juda ko'p qum to'plangani uchun bu joy Registon, ya'ni «qumloq joy» deb atala boshlangan.

Sohibqiron Amir Temur davrida Registon maydoni o'rnida markaziy bozor joylashgan, shuningdek, bu yerda usti yopiq savdo rastalari qurilgan edi. Registon maydonining me'moriy tomondan shakllanishi Mirzo Ulug'bek hukmronligi davridan boshlangan. Samarqandga 40 yil (1409 – 1449-y.) hukmronlik qilgan ulug' olim Mirzo Ulug'bek bu shaharning obodonchiligi uchun hech narsani ayamagan.

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

1. Registonda qanday madrasalar bor?
2. Sayyohlarga bu maydonda nimalar yoqadi?
3. O'tgan zamonlarda bu maydonda nimalar bo'lgan?
4. Nima uchun bu maydon Registon deb ataladi?

17-mavzu: MAQSAD MA'NOSINING IFODALANISHI

Theme 17: EXPRESSING PURPOSE

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

xalqaro, aloqa, qasos, qasd, ilinj, umid, shug'ullanmoq, moslashuvchan, izlanish, ezgu, iz, tatib ko'rmoq, atayin, vaziyat, xodim, qoida, ko'zoynak, mas'uliyat, isbot qilmoq, isbotlamoq, bahona, ezgu, yondashmoq, mukammal.



Suhbatni o'qing.

- O'zbekistonga o'zbek tilini o'rganish uchun keldingizmi?
- Ikki yildan beri men Markaziy Osiyodagi qadimiy obidalarni o'rganyapman. Seul universitetida tadqiqotchiman. Bir yil davomida shu yerda ilmiy ishimni davom ettirish uchun Toshkentga keldim. Yana bir maqsadim o'zbek tilini mukammal o'rganish.
- O'zbek tilini oldin qayerda o'rgangansiz?
- Bu mening O'zbekistonga birinchi kelishim emas. 3 yil oldin Toshkent davlat sharqshunoslik instituda bir yil davomida o'zbek tilini o'rganganman. Keyinchalik ham tilni unutmaslik uchun doim o'zbek tilida kitoblar o'qidim. Ustozlarim bilan aloqani uzmadim.

– Barakalla, juda chiroyli gapiryapsiz. Tilni mukammal egallash uchun muntazam shug’ullanish kerak. Kitob, gazeta-jurnallarni o’qish, radio tinglash, teleko’rsatuvlarni ko’rish, kinofilmlarni tomosha qilish, qo’shiqlarni o’rganish, she’r yodlash juda katta yordam beradi.

– To’g’ri, shuning uchun siz bilan maslahatlashay deb oldingizga kirgan edim. Menga o’qish uchun qanday badiiy asarni tavsiya qila olasiz?

– Abdulla Qahhor, G’afur G’ulom, O’tkir Hoshimovlarning hikoya va qissalaridan boshlang. Ham qiziqarli, ham tili juda chiroyli.

Grammatik qurilmalar

Grammatik materiallar		Misollar
So’roq olmoshlari // <i>Interrogative pronouns</i>		
Nima uchun? Nima niyatda? Nima maqsadda? // Nimaga? <i>Why? For what reason? For what purpose?</i>		Nima uchun O’zbekistonga keldingiz? // <i>Why did you come to Uzbekistan?</i> Nima maqsadda O’zbekistonga tashrif buyurdingiz? // <i>For what purpose did you visit to Uzbekistan? (bookish style)</i>
Maqsad ravishlari yordamida // <i>By means of adverbial modifier of purpose</i>		
maqsadda qasddan ataylab atayin jo’rttaga niyatda umidda ilinida	<i>on purpose</i> <i>purposely</i> <i>intentionally</i> <i>deliberately</i> <i>intentionally</i> <i>on purpose</i> <i>with hope</i> <i>hopefully</i>	Nima uchun bunday qildingiz? // Atayin qildim. // <i>I did it deliberately.</i> Men siz bilan gaplashmoqchi edim. Shu maqsadda keldim.

Maqsad ravishdoshi yordamida //
By means of adverbial participle of purpose

FE'L	-gani + -ma + -gani	Siz bilan uchrash gani keldim // <i>I came to meet you</i>
Fe'l va uning shakllari yordamida // By means of verbal forms		
FE'L	-(a)digan bo'lmoq	Ertaga boradigan bo'ldim. <i>I am going tomorrow.</i>
FE'L	-(i)shga qaror qilmoq	Ketishga qaror qildim (o'zim shu xulosaga keldim ma'nosida). <i>I decided to leave.</i>
FE'L	-(i)sh [-mas- lik]	uchun Bu vazifani bajarish uchun siz- ga 2 kun muhlat beraman. // <i>I</i> <i>will give you two days to do your</i> <i>homework.</i> Sizni bezovta qil maslik uchun xonaga kirmadim.
FE'L	-(i)sh	-ga Toshkentga o'zbek tilini o'rganish ga (= o'rganish uchun) keldim. // <i>I came to Tashkent to learn</i> <i>Uzbek.</i>
FE'L	-(i)sh [-mas- lik]	maqsa- dida/ niyatida/ ilinjida/ umidida Til o'rganish maqsadida o'quv kursiga yozildim. // <i>I have been</i> <i>enrolled to the English course to</i> <i>learn English.</i> Uni ko'rish umidida keldim.

FE'L [-ma]	-(a)y	-(a)ylik	deb	Siz qiynalmang deb sizga lug'at sotib oldim. // <i>I bought you a dictionary thinking you wouldn't have any difficulties.</i> Uni ko'ray deb keldim. U o'qisin deb men yana bir necha kitob olib keldim. Do'stim xato qilmasin deb men unga yordam berdim.
	-gin	-ng		
	-sin	-sinlar		
FE'L + -a, -y	-man	-miz	degan maq-sadda/ niyatda/ ilinjda/ umidda	Ishni o'z vaqtida bajaramiz degan maqsadda muhandislar tinimsiz ishlashdi. // <i>The engineers worked without stopping hoping to finish the work in time.</i> Uni ko'raman degan umidda keldim.
	-san	-siz		
	-di	-dilar		



Mashqlar

17.1. Mos so'zni qo'ying.

ataylab, maqsadida, qasddan, ilinjida, umidda

1. Anchadan beri do'stim bilan ko'rishmadik, u juda band, qo'ng'iroq qilsam, javob bermaydi, shuning uchun, balki, uyidan toparman degan... kechqurun uning uyiga bordim.

2. Xalqaro aloqalarni yana ham mustahkamlash ... juda katta loyihalar amalga oshirilyapti.

3. Do'stim uchrashuvimizga doim kech keladi. Odatda, men uni bir soat kutaman, shuning uchun bugun men ham... kech bordim, lekin u hali kelmagan ekan.

4. Kecha juda qiziqarli film ko'rdim. Unda bir yigit otasidan qattiq xafa bo'lib, boshqa mamlakatga ketadi va o'n yil uyga qaytmaydi. Uning onasi o'g'lini ko'rish... yashaydi va uni topish uchun o'sha mamlakatga boradi. Bu onaga ko'p begona odamlar yordam beradilar, chunki u chet tilini bilmas edi. Bu filmni albatta ko'ring. Chunki u insoniy munosabatlar haqida.

5. Ba'zan odamlar yomonlikni unuta olmaydilar va qasos olishga harakat qiladilar. ... qilingan harakat qattiq jazolanadi.

17.2. -(i)sh uchun shaklini qo'llang.

1. Ishlarimni tezroq tugat... uni yordamga chaqirdim.
2. Nodir siz bilan birga bor... unga rahbarimiz ruxsat berishi kerak.
3. Ishga o'z vaqtida kel... uydin ertaroq chiqish kerak.
4. Bizga bu taomni tayyorla... sizga qanday masalliq kerak?
5. Sizni ko'r... uyingizga borgan edim, lekin yo'q ekansiz.
6. O'zbek tilida bemalol gaplash... necha oy shug'ullanishim kerak?
7. Talabalar yaxshi bilim ol... universitetimizda hamma sharoitlar yaratilgan.
8. Biz bu vazifani bajar... kamida ikki oy vaqt kerak.

17.3. Qavslarni ochib, «-ish uchun» shaklini to'g'ri qo'llang.

1. Men sizga (yordam bermoq) keldim. – *Men sizga yordam berish uchun keldim.*
2. Bu ishlarni (bajarmoq) sizga qancha vaqt kerak?
3. Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarini (ko'rmoq) juda ko'p sayyohlar har yili yurtimizga keladilar.
4. Fikrimni (isbotlab bermoq) menga imkon bering.
5. Mehmonlarni (kutib olmoq) aeroportga borishim kerak.
6. Xorijda (yashamoq) odam moslashuvchan bo'lishi kerak.
7. Sizni bugungi kechamizga (taklif qilmoq) keldim.
8. Bu matnni (tarjima qilmoq) sizga bir soat vaqt beraman.

17.4. «-ish uchun» shaklini bo'lishsizlik shaklida qo'llang.

Namuna: Dars qilish uchun mingta bahona qidirdi. – Dars qilmaslik uchun mingta bahona qidirdi.

1. U bilan ko'rishish uchun bugun o'qishga ham bormadim.
3. Uni noqulay ahvolga solish uchun unga e'tibor bermaslikka harakat qiling.
4. Bir yerda qolib ketish uchun doimo izlanishda bo'lish kerak.
5. Darsga kechikish uchun uydan soat nechada chiqish kerak?
6. Vaqtingizni behuda sarflashingiz uchun sizga juda ko'p kitoblar sotib oldim.

17.5. Qaysi gaplarda grammatik shaklni «-gani» shakliga almashtirish mumkin?

Namuna: Suv olish uchun do'konga kirdim. – Suv olgani do'konga kirdim.

1. Yaxshi yashash uchun inson o'zi harakat qilishi kerak.
2. Sizni xafa qilmaslik uchun bu gaplarni sizga aytmagan edim.
3. Hazillashish uchun boshqa odam topa olmadingmi?
4. Ertangi rejamizni bilish uchun uning oldiga kirdim.
5. O'zbekiston madaniyati bilan yaqindan tanishish uchun yurtingizga keldim.
6. Hayotda iz qoldirish uchun ezgu ishlar qilish kerak.
7. O'zbek tilida erkin gaplashishim uchun qancha so'zni bilishim kerak?

17.6. Quyidagilardan mosini qo'llab, gapni to'ldiring.

-ay//-gin//-sin//-aylik//-ing//-sinlar deb

1. Vaziyatni sizga tushuntir...o'zim oldingizga keldim.
2. Siz ham tatib ko'r... pishirgan taomimdan olib keldim.
3. O'zbek urf-odatlar bilan tanishsinlar... xorijdan kelgan talabalarni beshik to'yiga taklif qildim.
4. Har bir talaba vazifani xatosiz bajar... o'qituvchi yana bir marta qoidani eslatdi.

5. Birinchi darsga kechikma... bugun hammamiz juda erta turdik.
6. Xijolat bo'lma... senga bu xabarni aytmagan edim.

17.7. To'g'rimi yoki noto'g'rimi?

1. Tilni yaxshi egallagani juda ko'p shug'ullanish kerak.
2. Non olgani do'konga chiqdim.
3. O'zbekistondan sizga esdalik bo'ling deb buni atayin siz uchun sotib oldim.
4. Bu masalani hal qilish uchun uning oldiga kirdim.
5. Sog'ligingiz yaxshi bo'ling uchun to'g'ri ovqatlanish kerak.
6. Noqulay vaziyatga tushmaslik uchun o'ylab gapirish kerak.
7. U bilan yaqinroq tanishim uchun uni mehmonga taklif qildim.
8. O'zbek milliy taomlarini tayyorlashni o'rganishni uchun o'quv markaziga bordim.
9. Sizni bayram bilan tabriklashi uchun kelibdi.
10. O'zbekistonga sayohat qilgani keldim.

17.8. «-gan uchun» // «-ish uchun» shakllari yordamida gaplar tuzing. Aniqlang: bu sababmi yoki maqsadmi?

1. Bayramni nishonlamoqchimiz. Katta tayyorgarlik ko'ryapmiz.
2. Unga ishonmadim. Ma'lumotlarni qayta tekshirdim.
3. Do'stim bilan maslahatlashmoqchi edim. Uning oldiga bordim.
4. Kecha kelmadingiz. Sizdan juda xavotir oldim.
5. Haydovchi yo'l qoidasini buzdi. Davlat avtomobil nazorati xodimi uni to'xtatdi.
6. Universitetga o'qishga kirmoqchiman. Juda jiddiy tayyorlanishim kerak.
7. Nodirga kecha sotib olgan ko'zoynagi yoqmadi. Uni almashtirmoqchi.
8. U har bir ishga mas'uliyat bilan yondashadi. Doimo ko'zlagan maqsadiga erishadi.



She'rni o'qing. Yangi so'zlarni daftaringizga yozing.

Kamtarlik

Garchi shuncha mag'rur bo'lsa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibr-u havo nimaga kerak?
Kamtarin bo'l, hatto bir qadam
O'tma g'urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning-chun
O'par doim peshonasidan.

Erkin Vohidov

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

1. *Kamtarlik, manmanlik, kibr-u havo, g'urur so'zlarining ma'nosini tushuntirib bering.*
2. *She'rning ma'nosini so'zlab bering.*
3. *She'rni yodlang.*

18-mavzu: TO'SIQSIZLIK MA'NOSINING IFODALANISHI

Theme 18: EXPRESSING CONCESSIVENESS

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

to'siq, hayrat, ko'nikma, shinam, baribir, marotaba, tengdosh, kasb, qoniqmoq, tetik, matbuot, duch kelmoq, chora, ayb, ag'darmoq.



Suhbatni o'qing.

– Nodir aka, dam olish kunlari yomg'ir yog'ib, havo ancha sovuq bo'lar ekan. Nima qilamiz? Samarqandga ketaveramizmi?

– Nima bo'lsa ham, sayohatimizni qoldirmaylik. Chunki buyog'i qish. Yog'ingarchilik ko'p bo'ladi.

– Gapingiz to'g'ri, ob-havoga qaramay, sayohat qilaverish kerak.

– Albatta, hali siz ko'rmagan joylar juda ko'p. Fumoto, dam olish kunlaringizni bekor o'tkazmang. Ish kunlarida darslaringiz ko'p, hech qayerga bora olmaysiz.

– Shunday bo'lsa ham, darsdan chiqib, deyarli har kuni shahar aylanyapmiz. Muzey va tarixiy obidalar, masjidlarga bordik. Taassurotimiz juda ko'p. Vaqtimiz kam. Ikki oydan keyin uyga qaytamiz.

– Juda yaxshi. Qisqa muddatga kelgan bo'lsangiz ham, vaqtingizni juda unumli o'tkazayotgan ekansiz, xursandman.

– Ha, menga yurtingiz juda yoqdi. Ikki yil oldin Vaseda universitetida o'zbek tilini o'rgana boshlaganimda tilingiz, xalqingiz, madaniyatingizga juda qiziq boshladim. O'zbekiston haqida ko'p kitoblar o'qidim. Ma'lumotlar to'pladim. Haqiqatan ham, juda go'zal yurt ekan. O'zbekistonga tashrif dasturimiz qisqa muddatli bo'lsa ham, taassurotlarimiz katta.

– Fumoto, bugun darslaringiz tugaganidan keyin, kechroq bo'lsa ham, sizlarni Chorsu bozoriga olib boraman. Menimcha, sizga juda yoqadi.

Grammatik qurilmalar

Grammatik materiallar					Misollar
(qancha/ qanchalik/ naqadar/ garchi/ garchand) // (no matter how)	FE'L -ma	-saz	-m	-k	U kechirim so'ramasa ham, (baribir) men uni kechirdim. // <i>I forgave her even if she didn't apologize to me.</i> Uni diqqat bilan eshit-sam ham, (baribir) hech nimani tushunmadim. Uni qanchalik diqqat bilan eshitsam-da, tushunmadim. // <i>I didn't understand her even if I listened to her carefully.</i>
			-ng	-ngiz	
			-	-lar	
				ham /-da/ hamki, baribir	

FE'L [-ma]	-gan	-im	-miz	bilan	U o'zbek tilini ko'p o'rgangani bilan, (baribir) yaxshi gapira olmayapti. (=o'rgansa ham) // <i>She can't speak Uzbek well even though she learnt this language much.</i>
		-ing	-in-giz		
		-i	-lari		

FE'L [-ma]	-gan	-im	-miz	-da ham /-yam	FE'L	-(a)r /-mas + di	U mendan iltimos qilma- gandayam// qilmaganda ham, (baribir) men unga yordam berardim. // <i>I would help him/her even though he/she didn't ask me for help.</i>
		-ng	-ngiz				
		-i	-lari				

O'tgan zamonda // In the past

FE'L [-ma]	-gan	-im	-miz	-ga qara- may // -ga qara- masdan	Qancha tushuntir ganimga qara- may , u vazifani noto'g'ri bajardi. // <i>No matter how well I explained the task to her, she did it wrongly.</i>
		-ing	-ingiz		
		-i	-lari		

Hozirgi zamonda // In the present

FE'L [-ma]	-(a) yotgan	-im	-miz	-ga qaramay /-ga qara- masdan	Kelayot ganiga qara- masdan , uni kutmadim. // <i>I have not waited for her even though she is coming.</i>
		-ing	-in- giz		
		-i	-lari		

Kelasi zamonda // In the future

FE'L [-ma]	-ish	-im	-miz	-ga qara- may /-ga qara- masdan	Ertaga imtihon bo'lish iga qa- ramay , ular kechgacha sayr qilishdi. // <i>They strolled till late though they have an exam tomorrow.</i>
		-ing	-ingiz		
		-i	-lari		

OT SIFAT, RAVISH (+ekan, +emas) // NOUN, ADJECTIVE, ADVERB	-lik	-im	-miz	-ga qara- may /-ga qara- masdan	Odam ko'p ligiga qaramay , bo'sh joylar hali bor edi. // <i>There were some vacant seats in spite of a lot of people.</i> Chaqqon ligingizga qara- may , ishni kech tugatdingiz. U bo'sh ekanligiga qara- may , uchrashuvga kelmadi. U band emasligiga qara- may , uchrashuvga kelmadi.
		-ing	-in- giz		
		-i	-lari		

FE'L	-sin, (-sa), (-sa ham)	FE'L takrorlanadi // <i>VERB is repeated</i>	-masin, (-masa), (-masa ham) baribir	Kelsin, kelmasin, baribir hech narsa o'zgarmaydi. // <i>Nothing will change whether she/he comes or not. So'rasa, so'ramasa, baribir aytaman.</i>
------	---	--	---	--

FE'L	-gan/ -(a) yot- gan -(i)sh	-im	-miz	-dan qat'iy nazar	Kim bo'lishingizdan qat'i nazar , avvalo, yaxshi odam bo'ling. // <i>No matter who you are, first of all, be a good man.</i>
		-ing	-ingiz		
		-i	-lari		



Mashqlar

18.1. Mosini tanlang.

Hozir	bir necha marta bo'lgan	odamni hayratda qoldiradi-
Kecha	bo'lsam ham,	gan chiroyli joylar ko'p.
Darsga	hamma narsani tushun-	mavzuni tushunibsiz.
Samarqandda	gan bo'lsangiz ham,	kunduzi juda isib ketadi.
Darsda	havo ancha salqin bo'lsa	hammamizdan erta turibdi.
	ham,	turg'izaman.
Ertalab	bultur kelgan bo'lsangiz	bir yil davomida juda ko'p
O'zbekistonga	ham	narsani o'rganibsiz.
O'zbekistonda	dengiz bo'lmasa ham,	uyda yana bir necha bor
	kech yotgan bo'lsa ham,	takrorlash kerak, shundagina
	kelmagan bo'lsangiz	bilim ko'nikmaga aylanadi.
	ham,	har safar o'zim uchun bir
	uxlayotgan bo'lsa ham,	yangi dunyoni ochaman.

18.2. «-(lik)ga qaramay» shakli yordamida gaplarni bog'lang.

1. Havo ancha salqin, ammo ko'chada odamlar ko'p.
2. Ishim juda ko'p, lekin baribir unga yordam berishga qaror qildim.

3. Mavzu juda qiyin edi, lekin talabalar juda tez tushundilar.
4. Xona biroz qorong'i, lekin juda shinam edi.
5. Siz betobsiz, lekin baribir darsga keldingizmi?
6. Ular tengdoshlar, lekin hayotga qarashlari juda har xil.

18.3. «-sa ham» shakli yordamida gaplarni bog'lang.

1. Havo ochiq bo'l... sovuq shamol bor.
2. Mavzuni 3-4 marta o'qib chiq..., yaxshi tushunmadim.
3. Ishimda juda charcha..., o'z kasbimni juda yaxshi ko'raman.
4. O'zingiz kelma..., iltimos, hujjatlarni biror kishidan berib yuboring.
5. Ustoz har darsda tushuntir..., men yana shu xatoni qilyapman.
6. Ba'zida talabalarning javoblaridan qoniqma..., buni uncha sezdirmayman.
7. Gaplarimdan xafa bo'l..., baribir aytmoqchiman.

18.4. Quyidagilardan mosini tanlang va gapni davom ettiring. -gan bo'lsa ham// -ayotgan bo'lsa ham// -sa ham, bo'lsa ham savoli qani?

buni unga hech sezdirmadi; yoshlarning qiziqishlarini juda yaxshi tushunar ekansiz; bugun o'zimni tetik his qilmayapman; hamma ishingni qo'yib, tez yetib kel; hal qilinmagan masalalar hali juda ko'p; oldinga intilishga harakat qiling; uni juda sog'indim; hali matbout tilini yaxshi tushunmayman.

1. Uning to'satdan kirib kelganidan juda hayron bo'l... **(-gan bo'lsa ham)...**, buni unga hech sezdirmadi.
2. Katta qiyinchiliklarga duch kel...,...
3. Kecha kun bo'yi dam ol..., ...
4. Do'stim bilan o'tgan haftada ko'rish..., ...
5. Hozir nima bilan shug'ullan..., ...
6. Hozirgi kunda ekologik muammolarga jiddiy e'tibor qaratil...,

7. Ikki yildan beri o'zbek tilini o'rgan...,

8. Yoshingiz ancha katta...,...

18.5. Qaysi biri to'g'ri?

1. *Qimmatligidan // qimmatligiga qaramay*, sotib oldim.

2. *Charchaganidan // charchaganiga qaramay*, o'tirgan joyida uxlab qoldi.

3. *Ishim ko'pligidan // ko'pligiga qaramay*, dam olishga ham, albatta, vaqt ajrataman.

4. *Shoshilganimdan // shoshilganimga qaramay*, zarur hujjatlarni stolim ustida unutib qoldiribman.

5. *Odam ko'pligidan // ko'pligiga qaramay*, hammaga bayram sovg'alarimiz yetdi.

6. *Jahlim chiqqanidan // jahlim chiqsa ham, o'zimni bosdim*.

7. *Hayajonlanganimdan // hayajonlanishimga qaramay*, gapirmoqchi bo'lgan gaplarimni butunlay unutdim.

8. *Sizni juda qattiq hurmat qilganim uchun // qilishimga qaramay*, sizga yana bir imkoniyat berishga qaror qildim.

18.6. «-sa ham» shakliga aylantiring.

Namuna: Havo sovuqligiga qaramay, ko'chaga chiqdim. – *Havo sovuq bo'lsa ham, ko'chaga chiqdim.*

1. Keladimi, kelmaydimi, men baribir hech qayerga bormayman.

2. Shuncha iltimos qilganimga qaramay, u baribir «yo'q» dedi.

3. Xona top-tozaligiga qaramay, u hammayoqni arta boshladi.

4. Xafa bo'lsin, bo'lmasin, men unga baribir to'g'risini aytaman.

5. Nima bo'lishidan qat'i nazar, munosabatlarimiz o'zgarmaydi deb umid qilaman.

6. Chorasiz qolganingda ham, aybni birovga ag'darma.

7. U qanday ahvolda bo'lmasin, hech qachon o'zini oqlashga harakat qilmaydi.

8. Ertaroq kelganimizda ham, baribir, ulgura olmasdik.

18.7. Dialog tuzing. «-sa ham» shaklidan foydalaning.

Namuna: Soat o'nlarda ofisimga keling, lekin sizga uzoq vaqt ajrata olmayman. – Mayli, menga uzoq vaqt ajrata olmasangiz ham, soat o'nlarda ofisingizga boraman.

1. Bu kitobni sizga topib beraman, lekin qimmatroq bo'lishi mumkin. – Mayli, ...
2. Olasizmi, lekin biroz ezilgan-da. (meva haqida) – Mayli,...
3. Qahva ichasizmi, ammo sovib qolibdi? – Mayli, ...
4. Ko'tara olasizmi, lekin og'ir. – Ha,...
5. Bu testlarni ishlab ko'rasizmi, lekin qiyin. – Mayli, ...
6. Sizni olib boraman, lekin yo'l uzoq. – Mayli, ...
7. Bu taomdan ham tatib ko'rasizmi, lekin achchiq. – Mayli, ...

18.8. To'g'rimi yoki noto'g'rimi?

1. Ertaga yomg'ir yog'ganiga qaramay, milliy bog'ga boradigan bo'ldik.
2. Bugun kelganingiz bilan, uni hozir topa olmaysiz, yaxshisi, ertaga keling.
3. Yosh bo'lsa ham, milliy urf-odatlariningizni juda yaxshi bilar ekansiz.
4. Bu haqda ko'p marotaba gapirsam ham, bugun yana bir bor eslatmoqchiman.
5. Milliy taomlarimiz biroz yog'li bo'lsa ham, juda mazali.
6. Undan iltimos qildim, qilmadim, baribir, hech narsa o'zgar-maydi.
7. Unga tushuntirganim bilan, baribir, fikrini o'zgartirmaydi.
8. Qanday natija bo'lganidan qat'i nazar, biz kurashni davom et-tiramiz.



Matnni o'qing. Yangi so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

MAQOLLARDA YASHIRINGAN HAQIQAT

Tarixdan bizning zamonimizgacha yetib kelgan hikmatlar xalqning hayot tajribasidan kelib chiqqan haqiqatdir. Maqollarda butun bir kitoblarga teng chuqur ma'no bor. Shuning uchun har bir maqolni yetuk badiiy asar deyish mumkin.

Hikmat degani nima? Bu – donolik bilan aytilgan chuqur ma'no-li gap. Har bir xalq asrlar davomida katta hayotiy tajriba to'playdi va shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqol va hikmatli so'zlar har bir xalqning ana shunday merosidir. Maqollarni og'zaki ensiklopediya deyish mumkin. Ular kishilarning aqlini o'tkirlashtiradi, nutqini ta'sirchan qiladi, hayotda to'g'ri yo'lni tanlay olishga, hayotiy muammolarni yechishga o'rgatadi va qimmatli maslahatlar beradi. Insoniyat yaratgan maqollar hamma mavzularni qamrab olgan. O'zbek xalqining asrlar davomida hayotiy tajribasi bilan yaratilgan maqollari hozirgi kunda ham juda foydali. Bir qarashda maqolning mavzusi zamonaviy hayotimizga mos kelmagandek tuyuladi, ammo chuqurroq o'ylasangiz, u hozirgi kunda ham juda foydali maslahat bo'la oladi. Masalan, «Yer haydasang kuz hayda. Kuz haydamasang yuz hayda» degan maqolning ma'nosi shunday: yerni kuzda haydash kerak, agar kuzda haydamasang, keyin yuz marta haydasang ham, befoyda. Demak, har bir ishni o'z vaqtida qilish kerak, chunki keyin kech bo'ladi.

Keling, yana bir maqolning ma'nosini tushunishga harakat qilib ko'ramiz: «Dunyo ko'rmay dunyo kishisi bo'lmaysan». Inson sayohat qilsa, ko'p tajriba orttiradi. Safar ham insonni ilimli qiladi. Har bir xalqda shunday mavzuda yuzlab maqollar bor. Chunki sayohat inson dunyoqarashini kengaytirishi hech kimga sir emas. «Musofir bo'lmay musulmon bo'lmaysan» deydi o'zbek xalqi. Og'zaki nutqda, maqollarda «musulmon» so'zi «haqiqiy odam», «axloqli odam» degan ma'noni ifodalaydi. Dunyoni ko'rib, musofirchilik-

ning qiyinchiliklarini tatib ko'rgan inson yetuk odam bo'lib tarbiyalanadi. Haqiqatdan ham, qancha ko'p sayohat qilsangiz, shuncha yangi ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Sizga notanish bo'lgan urf-odatlar, an'analar, madaniyat bilan tanishasiz. Har yerni bilgan yaxshi. Ko'p yerni ko'rgan, ko'p narsani bilgan bo'lsangiz ham, bu bilan to'xtab qolmang, hali dunyoda ko'rmagan, bilmagan narsalaringiz ko'p, shuning uchun dunyoni ko'rish va bilishda davom etavering. «Yurgan – daryo, o'tirgan esa bo'yraga o'xshaydi» deydi o'zbeklar.

(«Hikmatlar» kitobidan)

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

1. Maqollarni kim yaratadi?
2. Maqollar nimaga o'rgatadi?
3. Nima uchun maqollarni bilish foydali?
4. Yerni kuzda haydash kerak deganda nima nazarda tutilgan?
5. Musofir odam kim?
6. Musulmon odam deb kimlarga aytiladi?
7. Nima uchun ko'p sayohat qilish kerak?
8. Sayohat qilgan odam nimaga o'xshaydi?
9. Bo'yra nima degani?
10. Qanday maqollarni bilasiz? 5 ta maqol yozing.

19-mavzu: QIYOSLASH VA O'XSHATISH MA'NOSINI IFODALASH

Theme 19: EXPRESSING COMPARISON

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

tulki, gul, asal, qush, tosh, e'tibor, nok, yong'oq, ravshan, tushunmovchilik, ayyor, yengil, mehr, fasl, quruq, yoqimtoy, to'y-moq, g'uncha, suhbat, tuz, mushuk, go'yo, yelka, qismoq, batafsil, ishtaha, soyabon.



Suhbatni o'qing.

- Yaxshimisiz, Kyung Hu?
- Assalomu alaykum, ustoz, rahmat, yaxshi.
- Vaalaykum assalom. Qayerga ketyapsiz?
- Kutubxonaga. Koreyadagi ustozim O'zbekistonga kelayotganimizda vazifa berganlar. Koreyaga qaytgach, bu ishni topshirishimiz kerak.
- Qanday vazifa?
- Bu kurs ishidek yoki referatga o'xshagan ish.
- Nima mavzuda?
- Biz O'zbekiston bilan Koreya madaniyati, turmush tarzi, tili, milliy taomlari, san'ati yoki yana boshqa sohalarini qiyoslab, o'z fikrlarimizni yozishimiz kerak.

- Juda qiziqarli ish. Ha, buning uchun sizga ancha ma'lumot kerak.
- Ha, shuning uchun men kutubxonaga kirmoqchiman. O'zimning shaxsiy fikr va taassurotlarimni ham yozsam bo'ladimi?
- Albatta, lekin ma'lumotlaringiz aniq, to'g'ri bo'lsin.
- Ha, albatta. Men o'zbek tili bilan koreys tili grammatikasidagi o'xshash va farqli tomonlar haqida yozmoqchiman.

Grammatik qurilmalar

QANDAY? KIMDEK? NIMADEK? KIM (NIMA) -GA O'XSHAB? // WHAT? WHAT IS SHE /HE/ LIKE?				
Grammatik materiallar				Misollar
Bu/u (shaxs, narsa, payt, harakat nomi) // <i>This (Name of Person, Thing, Time, Action)</i>	u/bu (n)	-dan	qanday (-roq) [emas]	Bu lug'at undan ancha qimmat. // <i>This dictionary is more expensive than that.</i> Meva sabzavotdan qimmat(roq). // <i>Fruit is more expensive than vegetable.</i> Temir yog'ochdan mustahkamroq. // <i>Iron is more solid than wood.</i> Hozir havo o'tgan haftadan salqinroq. // <i>It is cooler than last week.</i> Yozish gapirishdan qiyinroq. // <i>Writing is more difficult than speaking.</i>
Bu/u (shaxs, narsa, payt, harakat nomi)	u/bu (n)	-ga qaraganda (sal, birmuncha, biroz, ancha) // <i>than (a little, far, much)</i>	SIFAT (-roq) [emas]	Bu unga qaraganda balandroq. // <i>This is higher than that.</i> Sizning universitetingiz biznikiga qaraganda ancha katta(roq).

Bu/u (shaxs, narsa, payt, harakat nomi)	u/bu (n) (shaxs, narsa, harakat nomi)	-dan ko'ra (sal, bir- muncha, biroz, an- cha) // than (a little, far, much)	SIFAT (-roq) [emas]	Bu bundan ko'ra yaxshi- roq (qiyoslash ma'nosi kuchli, ya'ni birinchisi ikkinchisiga qaraganda ancha afzal) // <i>This is better than that one.</i> U mendan ko'ra bu sohada ancha tajribali(roq). Sizdan ko'ra yaxshiroq bilaman. O'qishdan ko'ra yozish birmuncha qiyin.
Bu/u (shaxs, narsa, payt, harakat nomi)	u/bu (n)	-ga nisbatan (sal, bir- muncha, biroz, an- cha) // than (a little, far, much)	SIFAT (-roq) [emas]	Bu bunga nisbatan an- cha mustahkam. // <i>This is stronger than that one.</i> Bugun kechaga nis- batan ancha salqin(roq) (kechaga qaraganda). O'qishi nisbatan yomon emas. // <i>His reading is not bad in comparison.</i>
...,...esa // ...,...but...				Men vazifalarni to'liq bajardim, u esa to'liq bajarmadi.
...,...bo'lsa... // ...,... but...	-m	-k	Men mavzuni yaxshi tushundim, sen bo'lsang hatto eshitmading.// <i>I understood the topic well, but you didn't even listen to it.</i> Toshkentda havo ochiq, Samarqandda bo'lsa yomg'ir yog'yapti.	
	-ng	-ngiz		
	-	-lar		

OT	-dek (-day/-ga o'xshab/kabi/singari) // <i>as, like</i>			Muzdek suv bering. // <i>Give me cold water (cold like an ice).</i> Guldek qiz. // <i>The girl is beautiful (like a flower).</i> Bu narsa menga havodek zarur . Milliy qadriyatlarimiz kabi/singari tariximiz ham biz uchun qadrli. (<i>bookish style</i>)
FE'L [-ma]	-gan	-dek (-day/kabi/singari)		U hech narsani tushun magandek qaradi. // <i>He looked at me as if he didn't understand anything.</i> U meni ko'rmagandek boshqa xonaga kirib ketdi (lekin u meni ko'rdi).
FE'L [-ma]	-gan	-ga	o'xshab	U hech narsani tushun maganga o'xshab menga qaradi. // <i>He looked at me as if he didn't understand anything.</i>



Mashqlar

19.1. Mos so'zni qo'ying.

asal, havo, qush, tosh, gul, kun, tulki

1. ...dek chiroyli bu qiz hammaning e'tiborini tortdi.
2. O'zbekistonning mevalari dunyoga mashhur, ayniqsa, ...dek shirin noki menga juda yoqdi.
3. Bu yong'oqni qo'l bilan chaqa olmaysiz, ...dek qattiq ekan.
4. Menimcha, hammasi ...dek ravshan, hech qanday tushunmovchilik qolmadi.

5. Oramizda ...dek ayyor odamlar ham uchraydi, lekin, afsuski, ko'pchilik ularga ishonadi.
6. ...dek yengil bo'ling.
7. Insonga mehr ...dek zarur.

19.2. Mosini tanlang.

Universitetingiz O'zbekiston hududi Yozdan ko'ra Yoz kunlarida O'zbekiston iqlimi Chet tilini o'rganishda	Yaponiyanikiga nisbatan gapirishdan ko'ra bizning universitetimizdan avtobusdan ko'ra kuz faslida Koreyanikiga qaraganda	tinglab tushunish ancha qiyin. ancha kichkina ekan. kattaroq. ancha quruq. meva ko'p bo'ladi. metroda yurish ancha qulay.
---	---	--

19.3. Mosini qo'ying.

nisbatan, o'xshab, qaraganda, ko'ra, bo'lsa, misoli, -dek

1. Xonaga kirdi-yu bir narsani unutgan... yana yugurib chiqib ketdi.
2. Kecha ancha mazam bo'lmadi, lekin bugun kechagidan ... yaxshiman.
3. Hali ancha ustringizda ishlashingiz kerak, lekin... yomon emas.
4. Bu qizchaning yoqimtoyligidan unga qarab to'ymaysan, ... g'uncha.
5. Men ikki kitobni ham o'qib chiqdim, u ... hali birinchisini ham tugatmabdi.
6. Sizga ... men ham ikki yil maktabda ishlaganman.
7. Do'stingizga... siz o'zbek tilini ancha yaxshi bilar ekansiz.

19.4. Mos so'zni qo'ying.

charchaganga, tushunmaganga, yog'adiganga, eshitmaganga, kelganga, yoqmaganga, bormaganga, o'qimaganga.

1. Ko'zingizni ocha olmayotganingizdan juda charchaganga o'xshaysiz.

2. Kelmaganiga qaraganda u uchrashuvimiz haqida ... o'xshaydi, bo'lmasa, albatta, kelardi.

3. Kitob haqida gaplashganimizda u umuman suhbatimizga qo'shilmadi, menimcha, u bu kitobni ... o'xshaydi.

4. Havo bulutligiga qaraganda yomg'ir ... o'xshaydi.

5. Nima uchun ovqatni yemadingiz? Menimcha, sizga ... o'xshaydi.

6. O'zbekistonga yaqinda ... o'xshaysiz.

7. Rasmdagi tarixiy joylarni bilmas ekan. U hali Samarqandga ... o'xshaydi.

8. Vazifalarni noto'g'ri bajaribsiz, kechagi mavzuni yaxshi ... o'xshaysiz.

19.5. Tanlang.

xuddi yangi mavzuni tushuntirayotgandek, ikki kundan beri tuz totmagan odamdek, xuddi hech narsani tushunmagandek, suvga tushgan mushukdek, go'yo bizni ko'rmagandek, go'yo yettinchi osmonga chiqqandek

1. ... har bir berilgan savolga yelkasini qisardi.

2. ... yonimizdan salomlashmay o'tib ketdi.

3. O'qituvchi bu mavzuni oldin ham bir necha marta tushuntirgan bo'lsa ham, ..., boshidan batafsil gapira boshladi.

4. Bu xabarni eshitganimdan keyin xursandligimdan o'zimni ... his qilardim.

5. Xonaga kirsam, Nodir ... ishtaha bilan ovqatlanardi.

6. Yomg'ir tagida qolib, soyabonsiz ketganim uchun uyga ... kirib keldim.

19.6. Tanlang.

1. Nima uchun xuddi begona odam ... (***o'xshab/-dek***) hech kim bilan gaplashmay o'tiribsiz?

2. Menga ...**(qaraganda// o'xshab)** siz uni yaxshiroq bilasiz, shekilli?

3. Yigitlarga ...**(nisbatan// o'xshab)** qizlar ancha mas'uliyatliroq bo'ladilar deb o'ylaysizmi?

4. U yordam so'ragan... **(dek// o'xshab)** menga qaradi.

5. Bugun kechadan...**(nisbatan// ko'ra)** ancha salqin.

6. Yarim soat dars qilgan ... **(dek//kabi)** bo'ldi-yu do'stlari bilan uchrashish uchun ko'chaga chiqib ketdi.



Matnni o'qing. Yangi so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

O'ZBEKLAR

(asardan parcha)

Mahallada qaysi kampirning uyidan topolmasangiz, to'ppa-to'g'ri Otinoyinikiga boring! Otinoyining hovlisi past ko'chaning etagida. Uyi ham boshqalarnikidan ajralib turadi. Ikkita derazali pastak uy. Boshqalarning derazasi oldida gilos bo'lsa, Otinoyinikida ikki tup tut bor. Boshqalarning tomi tunuka bo'lsa, Otinoyining tomi shifer. Hammaning tomida televizor antennasi bor, Otinoyinikida yo'q. Ammo uning uyi hamisha hammanikidan gavjum bo'ladi. Doimo ochiq turadigan pastak darvozadan kirishingiz bilan eng avval dimog'ingizga gup etib rayhon isi uriladi. Keyin bir mahalla xotinning gangur-gungur suhbatini, bolalarning qiy-chuvini eshitasiz. Mashina sig'maydigan (unga mashinaning nimayam keragi bor) tor yo'lakdan o'tib, qutidekkina shinam hovliga kirasiz. Ariq tortib ekilgan rayhonlar belga uradi. Oshrayhon, sadarayhon, oqrayhon, qorarayhon. Hovli etagida, eski bostirma oldida bir tup o'rik bor. Dovuchcha tugganidan boshlab turshak bo'lguncha mahallaning qora-qura bolalari shoxdan-shoxga tarmashadi. Otinoyi o'rikni qizg'anganidan emas, bolalarga achinganidan chirqillaydi: «Hoy uyingga bug'doy to'lgur takalar, tush, yiqilib ketasan!». «Takalar» parvo qilmaydi. Biladiki, Otinoyining tuti ham, o'rigi ham ularniki!

Umuman, bu hovli hammaniki. Erta ko'klamda sumalak shu yerda bo'ladi. Ismaloq somsa, yalpiz somsa Otinoyining bostirmasidagi tandirda yopiladi. Keyin tut pishadi. Ketidan o'rik. Mahalladagi xotinoshi bormi, challarmi, beshik to'yi bormi, quda chaqiriqmi – hammasining maslahati shu yerda pishadi. Qancha non yopiladi, qancha guruch damlanadi. Qudalarga «to'qqiz-to'qqiz»da nimalar tortish kerak? To'g'ri, u otinlikdan ko'ra ko'proq xodimlik qilgan. Ammo uni xodim xola emas, Otinoyi deyishadi. Qolaversa, hozir dasturxonchilikni tashlagan. Uch yil bo'ldi. Keksayib, kuchi yetmay qoldi. Lekin haliyam Otinoyi deyishadi. Yozda o'rik tagidagi eski so'ri, qishda «chiylampa» suvoq qilingan pastak shiftli, tokchalariga barkashlar, chegalangan qadimiy «gardish» laganlar terib qo'yilgan uy hamisha gavjum bo'ladi...

...Otinoyi kelini uyg'onmasidan avval pechkaga ko'mir qalab qo'yar, ataylab tandirda non yopar, kechqurun er-xotin ishdan qaytishiga ovqat tayyor turar edi... Boshqa paytlarda u to'ygami, ma'ra-kagami chiqib ketar, allapallada bir lagan sovigan osh, bir kosa moxora, bir chekkasi ushatilgan qatlama olib kelib, o'rtaga qo'yar, tantana bilan e'lon qilar edi: «Olinglar, bolajonlarim! Sizlarniyam to'yga yetkazsin!».

O'tkir Hoshimov

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

1. Otinoyi kimligini tushundingizmi?
2. Uning uyi qanday?
3. Nima uchun bolalar Otinoyining hovlisidan ketmas edilar?
4. Otinoyi mahalladagi oilalarga qanday yordam berar edi?
5. Otinoyining oilasi haqida gapirib bering.
6. «Sizlarni ham to'yga yetkazsin!» gapini qanday tushundingiz?

20-mavzu: CHEGARALASH MA'NOSINING IFODALANISHI

Theme 20: EXPRESSING LIMITING

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ma'nosini bilib oling.

chegara, sabr, rostgo'y, rahmdil, sabab, savdo, savdolahmoq, samarali, samimiy, kelgunga qadar, toshmoq, o'ziga kelmoq.



Suhbatni o'qing.

- Salom, Nigora, yaxshimisiz?
- Salom, Yuna, ishlaringiz yaxshimi, o'qishlaringiz qalay?
- Rahmat, juda yaxshi. Yaqinda darslarimiz tamom bo'ladi. Keyin imtihonimiz bor.
- Darslaringiz qachongacha?
- Yigirma beshinchi iyungacha. Sizda-chi?
- Bizda ikkinchi semestr yigirmanchi iyungacha davom etadi, keyin imtihon haftasi boshlanadi. Birinchi iyulgacha hamma imtihonlarimizni topshirishimiz kerak.
- Men imtihondan ozgina qo'rqpapman. Lekin, albatta, yaxshi baho olishim kerak.
- Menimcha, imtihonda yaxshi baho olish uchun birinchi mavzudan boshlab oxirgi mavzugacha yaxshilab o'qib chiqishingiz kerak. Hali imtihongacha bir oy vaqtingiz bor, bemalol ulgurasiz.

- Ha, mavzularni yaxshi tushunganman, ularni yana bir marta takrorlayman. Lekin so'z boyligim yetarli emas deb qo'rqyapman. Biz 2500 dan 3000 tagacha so'zni yodlashimiz kerak.

- Bu unchalik ko'p emas. Menimcha, siz ancha so'zni bilasiz, chunki o'zbek tilida juda yaxshi va tushunarli gapiryapsiz.

Grammatik qurilmalar

QAYERGACHA? QACHONGACHA? // TILL WHAT PLACE? TILL WHAT TIME?		
Grammatik materiallar		Misollar
OT SON	-gacha ³⁵ till/untill	Ko'chag acha birga chiqdik. // <i>We walked as far as the road.</i> Bekatkacha birga bordik. Sizni soat besh gacha kutdim. // <i>I waited for you till 5.</i>
FE'L	-guncha till/untill	Men qaytgun(im)cha kutib turing. Sen kelgun(ingcha) kutib turaman. (payt ma'nosi va chegara ma'nosi)

(To/ toki)	FE'L [-ma]	-gun	-im	-imiz	-cha (-ga qadar)	Men kel gunimcha dam olib turing. / Men kelguncha dam olib turing. // <i>Have a rest till come.</i> Biz borg unimizcha kutib turing. Quyosh bot guncha qaytaman. Ular kel gunlariga qadar (=kelguncha) hammasini tayyorlab qo'ydik. To vazifani bajarm aguncha , ketmaymiz.
		-ing	-ingiz			
		-i	-lari			

³⁵ NOTE:

g → k: ...k + -gacha/ -guncha = -kacha/ -kuncha yo'lak+gacha = yo'lakkacha (as far as the pavement) tik + -guncha = tikkuncha,

g → q: ...q + -gacha/ -guncha = -qacha/ -quncha qishloq+gacha = qishloqqacha (as far as the village), chiq+ -quncha = chiqquncha

OT/ HARAKAT NOMI	-dan tortib (to) // from ...to	OT/ HARAKAT NOMI	-gacha	O'qituvchilardan tortib to talabalarga gacha bu dastur bilan tanishib chiqishlari shart. // <i>Both teachers and students should be acquainted with this programme.</i> Dushanbada n to jumaga gacha men navbatchiman. Chizish dan tortib/ to bo'yash gacha o'zim bajardim.
Qachon? // When? Qayer? // Where? Nima? // What?	-dan bosh- lab // from	QACHON? QAYER? NIMA?	-gacha // till/ to	Bugundan boshlab jumaga- cha tayyorlanamiz. // <i>We shall prepare for it from today till Friday.</i> Keyingi haftada n boshlab dam olishingiz mumkin. (Till when? = not clear)



Mashqlar

20.1. Mosini qo'ying.

dushanbagacha, yozgacha, damlagunimcha, bekatgacha, imtihon-
gacha, kelgunimcha, maoshgacha, turgunicha

1. Men ..., siz bemaolol dam olib o'tiring.
2. ... bu ishni tugatishga harakat qilaman.
3. Yuring, ... gaplashib ketamiz, sizni kuzatib qo'yaman.
4. Iltimos, menga ... yuz ming so'm berib tur.
5. Bugun seshanba, hali ... uch kun bor, tayyorlanib ulguramiz.
6. Oshni ..., sen pomidor va bodringni to'g'rab tur.

7.-O'zbeklar bir-birlariga «dunyo ... turing» deb aytganlarini eshitganmisiz? Bu juda chiroyli niyat, ya'ni «uzoq umr ko'ring» degan ma'noni bildiradi.

8. O'zbekiston o'quv yurtlarida II o'quv semestri qishdan to ... davom etadi.

20.2. Tanlang.

1. Dushanbadan juma **-guncha// -gacha** darsim bor.
2. To u safardan qayt **-gunicha// -gunigacha** biz ishning bir qismini yakunlashimiz kerak.
3. Kitobning birinchi bobini o'qib tugat **-guningizcha// -maguningizcha** sizga baho qo'ya olmayman.
4. Yangi bino quril **-gunicha// -magunicha**, biz eski binomizda o'qib turamiz.
5. Iltimos, ko'ylagimni dazmolla **-guncha// -gunimcha** siz bir piyola choy ichib turing.
6. Ularning fikrlarini eshitma **-gunicha// -gunimga qadar** o'zimning haqligimga juda ishonardim.

20.3. Gapning davomini toping.

to kelguningizcha, to hozirgi kunga qadar, Chorsu bozoridan to Navoiy ko'chasigacha, kelgunga qadar, faqat o'qituvchining o'zi gapirdi, to dori ichmagunimcha

1. Darsning boshidan to oxirigacha...
2. Hozir qayerda bo'lsangiz ham, ... dars tugaydi, yaxshisi, kel-mang.
3. Qulupnay yesam, qo'llarimga qizil narsa toshadi, ... ketmaydi.
4. Bu yerga ... Nodir qayerdadir ishlaganmi?
5. 1994-yildan ... shu universitetda ishlayman.
6. ... piyoda keldik.

20.4. -guncha// -gacha

1. Bugundan to 10-yanvar... ko'rgazma davom etadi.
2. Ertadan kech... bir xil ishdan zerikmaysanmi?
3. Bilasizmi, shu voqeadan keyin bir hafta ... o'zinga kela olmadim.
4. Sizni avtobus bekati ... kuzatib kelgan odam kim?
5. To o'zingiz ko'rma... hech kimning gapiga ishonmadingiz-a?

20.5. To'g'rimi yoki noto'g'rimi?

1. Soat o'n ikkigacha yetib kelaman.
2. U kelgunicha men sizga hech narsa deya olmayman.
3. Har kuni hovlimizni u boshidan bu boshigacha supuraman.
4. Bir necha kundan beri Nodir betoblighi uchun ofisda xatlarga javob berishdan tortib mijozlarimizga xizmat ko'rsatishgacha o'zim qilyapman.
5. Hov ana u qayrilishgacha meni kuzatib qo'ying.
6. Bu yerga kelguningizga qadar ham qayerdadir ishlaganmisiz?

20.6. Javoblarni tanlang va chegara ma'nosi shakllariga e'tibor bering.

1. Bir hafta davomida nima qilasiz?	Kech soat 8 gacha xonamda kutib o'tirmoqchiman.
2. Qachondan boshlab ta'tilga chiqasiz?	Yangi yil bayramiga yaqin ta'tilga chiqamiz.
3. Ikkalangiz ta'til tugaguncha qayerda bo'lasiz?	Oy boshidan oxirigacha 2 ta romanni o'qib tugatdim.
4. Bir oy ichida nechta kitob o'qiding?	Mehmonlar kelgunlariga qadar dasturxonni bezatib ulguramiz.
5. Uni qachongacha kutib o'tirmoqchisan?	Dushanbadan shanbagacha imtihonga tayyorlanaman.
6. Qachon dasturxonni bezatasiz?	Sayohat qilib, dam olmoqchimiz.



Matnni o'qing.

QORBOBO KELADI

– Qorbobo qayerda?

– O'rmonda.

(Jiyanlar suhbatidan)

Hovlimiz Kuytan tog'ining yonbag'rida bo'lib, atrofi past devor bilan o'ralgandi. Lekin ayvondan turib qarasangiz, devorlar ko'rinmaydi: daraxtlar shunaqa qalin. Bu daraxtlar orasida bir tup archa ham bor edi. Men shu hovlida to'rt faslni kuzatib, to'rt faslni kutib olardim. Ammo qish faslini juda yaxshi ko'rar edim. Chunki men qishda, yangi yil kechasi, Qorbobo kelishidan sal oldin tug'ilgan ekanman. Shuning uchun dunyoga kelganimda ko'zimni ochib, birinchi marta onamni, keyin esa qishni, qorni, Qorboboni ko'rganman. Xullas, bu to'rtalasini ham yaxshi ko'rardim. Biroq ko'p o'tmay fikrim o'zgardi.

Hovlimiz yonida joylashgan maktabda Yangi yil bayrami bo'ldi. Qorbobo keladi degan gapni eshitib, o'sha yerga uchdim. Maktab zali, o'rtada archa... Atrofda o'quvchilar. Hammasining og'zi qulog'ida. Bayram!

Nihoyat, Qorbobo keldi! Oppoq kiyingan, soqollari ham oq. Qo'li-da savatcha. Unda turli-tuman, qiziq-qiziq o'yinchoqlar... «Bayram muborak!» – dedi Qorbobo. U uzoq yurtlardan, notanish bolalardan salom aytdi, keyin bizga sovg'alar berdi, keyin ketdi... Ketdi!

– Qayerga ketdi? Qayerga? – deb so'radim. Kimdir:

– O'rmonga, – dedi.

– O'rmonga!

– Nimaga o'rmonga ketdi?

– Qorbobo o'rmonda yashaydi.

Maktabdan chiqib, uyga ketardim, lekin tinmay o'rmonga qarardim.

- Qorbobo o'rmonga ketdi! – dedim onamga. Onam kuldi.
- Qachon keladi?
- Keyingi Yangi yilda.

Men kuta boshladim. Bahorda ham, yozda ham, kuzda ham kutdim. Yana qor tushdi. Yana Yangi yil keldi. Maktabga yugurdim. O'sha zal. O'quvchilar. Archa... Yana Qorbobo keldi! Bizni tabrikladi, salomlar aytdi, sovg'alar berdi, yana... ketdi!

Tashqariga chiqib, o'sha qorli so'qmoqdan atrofga alanglab uyga borayotgandim, o'quvchilarning gapini eshitib qoldim:

– Mana, Qorbobo. Shu odam – Qorbobo.

– Qani? – so'radim men.

– Anovi ketayotgan muallim-da.

– Yolg'on! Qorbobo o'rmonga ketdi.

Bolalar ustimdan kulishdi, meni mazax qilishdi.

– Nega Qorboboning o'zi kelmadi?

– Kelibdi-ku maktabga.

– Yo'q. U odam muallim ekan. Bolalar shunaqa dedi.

– Shunaqa bo'ladi-da, odatda, – dedi onam.

– Nega? – alam bilan qichqirdim men. – Axir u kishi Qorbobo emas-ku. U kishi muallim-ku! Qorbobo o'rmonda-ku!

Onam menga qarab turdi-da:

– Rost, Qorbobo o'rmonda. Bu kishi muallim, – dedi.

– Nega kelmadilar o'zlari?

– U kishi boshqa maktablarga ketgan.

Quvonganimni ko'rsangiz! Hovliga chiqdim. Devordan o'sha o'rmonga ro'para bo'ldim. Sovuqda diydirab: «Qorbobo, nimaga kelmadingiz?» – dedim.

Nazarimda, u kishi javob berganday bo'ldi: «Kelgusi yil kela-man!» Lekin kelgusi yili ham kelmadilar. Undan keyingi yillarda ham. Bu orada o'zim ham o'quvchi bo'ldim va tushundim: Qorbobo degan kishi o'rmonda bo'lmas ekan, o'shanda meni aldashgan ekan, o'zim o'zimni aldab yurgan ekanman. Lekin baribir ishon-

masdim: Qorbobo bor, u o'rmonda yashaydi, Yangi yilda keladi, sovg'alar olib keladi, tabriklaydi deb o'ylar edim. Shuni o'ylasam, o'rmon ham, yangi yil ham, tug'ilgan kunim ham, qish ham, hammasi sirli bo'lib ko'rinar edi, yosh boladay quvonar edim. Qorbobo yo'q desam-chi? Sir g'oyib bo'lar, o'rmon o'rmondek, qish qishdek, yangi yil shunchaki bir bayramdek, tug'ilgan kunim esa tug'ili-shim kerak bo'lgan bir kundek tuyular, yuragim bo'shab qolardi. So'ng yana zo'r berib shivirlardim o'zimga: «Qorbobo bor.. u o'rmonda...».

Mana, o'smirlikdan ham o'tib qoldim. Qishlog'imdan, maktabimdan, hovlimiz, o'rmonimizdan uzoqdaman. Endi ko'p narsaga aqlim ham yetadi. Kishi o'zini o'zi aldashi yaxshi ish emasligini ham bilaman. Lekin nima qilay? Hamon o'sha ikkilanish bor menda. Hatto endi ko'proq ishonib qolganman: «Qorbobo bor, u o'rmonda, u sovg'a olib keladi, u salom olib keladi, u bizni tabriklaydi...»

Bilmadim, bu xayol agar chol bo'lib bukchayib qolsam ham, o'zgarmasa kerak.

Shukur Xolmirzayev

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

1. Nima uchun bola qish faslini yaxshi ko'rar edi?
2. Maktabga kelgan qorbobo kim edi?
3. Bola nimaga ishonar edi?
4. U qorboboga hali ham ishonadimi?



Mustaqil o'qish uchun matn.

TARIXINGDIR BIR JAHON...

Urmiya ko'li bo'ylari. Kech kuz. Qorong'i tushib qolgan, ko'l atrofi gavjum. Boshiga uchli qalpoq, egniga jundan yoki charmdan to'qilgan kamzul kiygan, sochlarini bitta qilib o'rgan, ko'zlaridan o't

chaqnagan askarlar to'p-to'p bo'lib alanga atrofida qizg'in suhbat quradilar. Maydon o'rtasida oq chodir qurilgan.

Askarlar jangovarligi shuhrat qozongan saklar – turklar, ikkinchi bir toifasi esa ko'zlari katta-katta, qorachadan kelgan eroniy xalqlar edi.

Chodirning hashamatli bezagi qandaydir tantanadan darak beradi. Ichkarida o'yin-kulgi, bazm avjida. Ammo ba'zilarining ko'zlarida tahlika. Odatda, tahlika qo'rquvdan yoki yovuzlikdan, fitnadan darak beradi. Ular eroniy sarkardalari, Kayxusravning ishongan odamlari.

Bugungi ziyofat turk hukmdori Afrosiyob sharafiga uyushtirilgan. Eroniylar Alp Er To'ngani shunday ataydilar. Alp Er To'nga o'z nomiga yarasha bahodir jangchi deb nom taratgan edi. Midiya shohi Kayxusrav Alp Er To'ngaga «sadoqat»ini bildirish maqsadida ushbu ziyofatni tashkil qilgan. Ammo hammasi oldindan rejalashtirilgan: maqsad – jahonshumul turk xoqonini yo'q qilish, shon-shuhratini yer yuzidan supurib tashlash, har jihatdan qudratli turk davlatiga barham berish edi.

Ziyofat allamahalgacha davom etdi. Lekin turklardan hech kim: na qo'mondonlar, na askarlar bu tun ularning qismatiga katta o'zgarishlar kiritishini bilmas edilar. Kayxusrav oxirgi qadahni yana bir marta Alp Er To'nganing shuhrati va kuch-qudrati uchun ko'tarishni so'radi. Alp Er To'ngaga uzatilgan qadah o'z ishini qildi. Qadahga zahar solingan edi...

Hali tong yorishmagan edi.

Kayxusravning yovuz rejasi amalga oshdi. U Alp Er To'nganing harbiy sirini oldindan bilar edi. Alp Er To'nga qo'shinni uch qismga bo'lib, bir qismini orqada qoldirgan, bir qismini oldinga jo'natgan, bir to'dasini o'zi bilan olib yurgan edi. Makkor Kayxusrav uning rejasidan yaxshi xabardor bo'lgani uchun dadil, hech ikkalanmay harakat qilgan edi. Kayxusrav sarkardalari, kelishuvga binoan, avvalo, turk sarkardalarini yo'q qildi.

Mash'um voqeadan keyin xoqonidan, lashkarboshilaridan ayrilgan sak turklari har tomonga tarqalib ketdilar.

Bu voqea miloddan oldingi 626-yilning kuzida bo'lib o'tdi.

*Nasimxon Rahmon,
«Turk xoqonligi» kitobidan.*

Matn bo'yicha savollarga javob bering.

1. Alanga atrofida kimlar o'tirar edi?
2. Nima uchun chodir chiroyli bezatilgan edi?
3. Bu kecha kimlar tomonidan qanday fitna uyushtirilgan?
4. Kimning ko'zlarida tahlika bor?
5. Kayxusravning maqsadi nima?
6. Alp Er To'nga qanday o'ldirildi?
7. Alp Er To'nga askarlari qayerda edilar?
8. Nima uchun Alp Er To'nga askarlari har tomonga qochib ketdilar?

ILOVALAR

1-ilova

OLMOSHLAR // PRONOUNS

	OLMOSHLAR/ PRONOUNS	MISOL/ EXAMPLES	IZOH/ NOTES
KISHILIK OL- MOSHI	MEN // I SEN // YOU U // HE/SHE/IT BIZ // WE SIZ // YOU ULAR // THEY	Men ertaga kela- man, siz-chi? Sizni juda hur- mat qilaman. Ular juda bilimli talabalar ekan.	<i>Pronouns siz, ular // you, they express respect when used in singular = Ular mening akam // he is my brother (as a sign of respect)</i>
KO'RSATISHOLMOSHI	BU // THIS U // THAT SHU // THIS O'SHA // THAT MANA BU // HERE ANA U // THERE MANA SHU // THAT ANA O'SHA // THAT BUNDAY // SUCH SHUNDAY // SUCH SHUNAQA // AS MUCH AS BUNCHA // SO BUNAQA // SO SHUNCHA // SO MUCH O'SHANCHA // SO MUCH	- Bu kitobni menga bering. - Shunimi? Hov ana u/ anavi uyda yashayman. Shunday lug'at bormi? Bunaqa gaplarni gapirmang.	
O'ZLIK OLMOSHI	O'ZIM // MYSELF O'ZIMIZ // OURSELVES O'ZING // YOURSELF O'ZINGIZ // YOURSELVES O'ZI // HERSELF/	Sizga kitobimni berib turaman, lekin keyin o'zim- ga qaytaring. (menga qaytaring deyish noto'g'ri)	O'zining uyi - o'z uyi. // <i>Sometimes they are used without posses- sive and case affixes. Her/his house - his/her own house</i>

	HIMSELF O'ZLARI // THEMSELVES		<i>Possessive affixes are added and used instead of personal pronouns, sometimes it can refer to person or thing</i> <i>Pronoun -o'z comes before nouns and is used to separate and give emphasize and emphasizing a thing it refers to the subject</i>
SO'ROQ OLMOSHI	KIM? // WHO? NIMA? // WHAT? QANDAY? // WHAT KIND OF? QAYSI? // WHICH? NECHA? // HOW MANY? QACHON? // WHEN? NEGA? // WHY? NIMAGA? // WHY? QANI? // WHERE?	Bu ikki kitobdan qaysi biri yaxshiroq? Nega buncha xafasiz?	Shaxsga (kim?) // (Who?) is used for person, narsa-buyumga (nima?) // (what?) is used for things, belgiga (qay-si? qanday?) // (what?which?) is used for quality miqdorga (necha?) // (how many?) is used for quantity, vaqtga (qachon?) // (when?) is used for time maqsad va sababga (nimaga? nega?) // (why?) is used for reason and cause, o'ringa (qani? qayerda?) // (where?) is used for place, harakatga

			(nima bo'ldi? nima qildi?) // (<i>what happened? What did smb do smth?</i>) is used for action
BELGILASH OLMOSHI	HAMMA, BARCHA, BARI, JAMI, BUTUN // <i>all of ...</i> HAR KIM, HAR NIMA, HAR BIR, HAR NARSA, HAR QAYSI // <i>everybody, everything, every, everyone</i>	Darsga hamma keldi. Hammasini tushundim. – Hamma gapni tushundim. Butun dunyoni ko'rishni xohlayman. Har kim ham bu vazifani bajara olmaydi. Har bir ishni mas'uliyat bilan bajarish kerak. Har narsani yeb bo'lmaydi. Har qaysi talaba alohida vazifani bajarishi shart.	These express people, things, qualities and actions collectively.
GUMON OLMOSHI	1. KIMDIR // <i>SOMEONE,</i> NIMADIR // <i>SOMETHING,</i> QANDAYDIR // <i>A KIND OF,</i> QAYSIDIR // <i>A SORT OF,</i> NEGADIR // <i>FOR SOME REASON,</i> NECHTADIR // <i>SOME, A FEW</i>	U mendan qandaydir kitobni so'ragan edi. Negadir uning kayfiyati yo'q. Bu kitobni qachondir o'qiganman, ammo muallifini eslay olmadim.	These define a vague imagination about events, qualities and things. Indefinite pronouns are used instead of a noun and adjective.

	QANCHADIR // <i>SOME, A FEW</i> 2. ALLAKIM // <i>SOMEbody,</i> ALLANIMA // <i>ANYTHING,</i> ALLAQANDAY // <i>A KIND OF,</i> ALLAQANCHA // <i>SOME, A FEW,</i> ALLANARSA // <i>SOMETHING,</i> ALLAQACHON // <i>ALREADY</i> 3. BIROV // <i>SOMEONE,</i> BA'ZILAR // <i>SOME</i>	Men bu kitobni allaqachon o'qib tugatganman, siz endi boshladingizmi? Bu gapni birov bilmasin.	
BO'LISHSIZLIK OLMOSHI	HECH KIM // <i>NOBODY,</i> HECH NIMA // <i>NOTHING,</i> HECH BIR // <i>NOT ANY,</i> HECH NARSA // <i>NOTHING,</i> HECH QAYSI // <i>NOT ANY,</i> HECH QANDAY // <i>NO, NONE, NOT ANY,</i> HECH QAYERDA // <i>NOWHERE,</i> HECH QACHON // <i>NEVER</i>	Bu shaharda hech kimni tani-mayman. Hech qachon bunday holat-ga tushmagan edim. Hech qaysisi yoqmadimi?	Inkor ma'nosini bildiradi. Hech so'zi yakka holda qo'llansa, gapda fe'llar oldida kelsa, ravish holi vazifasini bajaradi: <i>Bu to'g'rida hech tashvishlanmang.</i> // when the word hech is used alone and come before verbs, it serves the function of adverbs: <i>Don't worry about it. If the predicate of sentences are formed with indefinite pronouns, these sentences are negative.</i>

FE'L NISBATLARI

	FE'L	NISBAT QO'SHIMCHALARI			IZOH
MAJHUL NISBAT	BERILDI (WAS/WERE (GIVEN) SO'RALDI ISHLANDI ILINDI	FE'L	-n/ -in -l / -il	zamon qo'shimcha- si	<i>The doer of the action in verbs is not given.</i> Mukofot ber+il+di. // <i>The award was given.</i> <i>If the base of the verb ends in «l», -in is added, if it ends in «la», -n is added.</i> Dars boshla+n+di. // <i>The lesson has begun.</i>
O'ZLIK NISBATI	YUVINDIM (I WAS WASHED) KO'RINDI KIYINDIM	FE'L	-n/ -in -l / -il	zamon qo'shimcha- si	<i>The action is performed by oneself</i> U yuvindi, ya'ni o'zini o'zi yuvdi. // <i>He washed, that is nobody helped.</i> Bugun darsda ko'rin-madingiz. // <i>You weren't seen at the lesson.</i>
BIRGALIK NISBAT	BERISHDI (WAS/ WERE GIVEN) KELISH- YAPTI O'QISHADI	FE'L	-sh / -ish	zamon qo'shimcha- si	<i>The action is performed by several agents.</i> Menga bu kitobni sovg'a qilishdi. (=sovg'a qildilar)

ORTTIRMA NISBAT	O'QITDI // ([HE/SHE] TAUGHT [HIM/HER]) ICHIRDIM // ([SHE/ HE] [MADE HIM/HER] DRINK) KETKAZDI SO'RATDIK YOZDIR- DING	FE'L	-t/- tir/- dir/- gaz/- kaz/- qaz/- g'iz/- ir/-ar/- iz	zamon qo'shim- chasi	U bizni rosa kuldirdi. Vaqtingni behuda ket- kazma. Bolaga choy ichirdim. U meni o'tirgan joyimdan turg'izdi.
-----------------	--	------	--	----------------------------	--

KO'MAKCHI FE'LLI SO'Z QO'SHILMASI

AUXILIARY VERB

№	KO'MAKCHI FE'LLI SO'Z QO'SHILMASI			MISOLLAR/EXAMPLES	MA'NOSI/MEANING
	Fe'l	-b/-ib	olmoq ³⁶	Mavzuni o'zim o'qib olaman. // <i>I shall write the theme myself.</i> Kecha darsga bormadim, lekin mavzuni o'zim o'qib, tushunib oldim. Ustingizga kiyib oling, havo ancha sovuq.	<i>The action is performed by the doer.</i>
	Fe'l	-a/-y	olmoq	Men bu vazifani bajara olaman. // <i>I can do this task. (that is I have the ability to do it)</i> Men unga vaziyatni tushuntira oldim.	<i>It expresses the doer's ability to do something.</i>
	Fe'l	-b/-ib	bermoq	Men sizga ish topib beraman. // <i>I shall find it for you.</i> Iltimos, menga eshikni ochib bering. (for me)	<i>The action is performed for another person/subject.</i>
	Fe'l	-a/-y	bermoq	Men baribir yoza beraman. // <i>I shall write it all the same.</i> Men uni uyg'otsam ham, u uxlay berdi (= uxlayverdi).	<i>There is no any obstruction of the action</i>

³⁶ NOTE: the negative form of **-ma** is added to the auxiliary verb: *yoza olmaydi, o'qib chiqmagan*.

If the negative form is added to the main and auxiliary verb, the meaning changes to positive: *aytmay qo'ymaydi = aytadi (albatta aytadi)*

	Fe'l	-a/-y -b/- ib	bosh- lamoq	Men o'zbek tilini o'rgana boshladim.	<i>It expresses the beginning of the action</i>
	Fe'l	-b/- ib	bo'lmoq	Bu kitobni o'qib bo'ldim. // <i>I have read this book.</i> Yozib bo'ldingizmi? (yozishni tugatdingizmi)	The action is finished (perfect action)

	Fe'l	-b/- ib	turmoq ³⁷	Biz tez-tez uchrashib turamiz. // <i>We often see each other.</i> O'tirib turing (<i>for a while</i>), u hozir keladi.	<i>It expresses repeated actions</i>
	Fe'l	-a/-y	turmoq	Hozircha ishlay tur, keyin yana o'ylab ko'ramiz. // <i>You may work for the time being, but we shall think it over then.</i> Men kelgunimcha o'tira tur.	<i>The action is temporary and can continue until another thing happens.</i>
	Fe'l	-b/- ib	yur- moq ³⁸	Uni doimo kuzatib yura- miz. // <i>We will always watch her/him</i>	The action happens for a long time.
	Fe'l	-b/- ib	qo'ymoq	Vaqtim bo'lganda o'qib qo'yaman. // <i>If I have time, I read it.</i> Iltimos, unga shuni berib qo'ying (bu siz uchun qiyin emas) Piyolani sindirib qo'ydim.	<i>The action happens easily.</i> suddenly

³⁷ NOTE: but in this case a specific time is not shown in a sentence: *U kelguncha uni shu yerda kutib turaman.* // *I will wait for him until he comes.*

³⁸ NOTE: if the verb **yurmoq** // to go is in a negative form of the imperative mood, it expresses approval if the action of the main verb is not performed **gapirib yurmang** (gapirish ma'qul emas, gapirmang ma'nosida).

	Fe'l ³⁹	-b/-ib	chiqmoq	Kitobni o'qib chiqdim. // <i>I have read the book.</i> Akam falasfa, adabiyot fanini o'rganib chiqqan. // <i>My brother have learned philosophy and literature.</i>	<i>The action is performed fully. The action is performed fully, step by step, one by one.</i>
	Fe'l	-b/-ib	yubor ⁴⁰	U o'ylamasdan gapirib yubordi. // <i>She spoke impulsively.</i>	<i>The action is performed unexpectedly and in a short time.</i>
	Fe'l	-b/-ib	qol	Kecha bozorda do'stimni ko'rib qoldim (ya'ni tasodifan) // <i>I came across with my friend in a market. (accidentally)</i>	<i>The action is performed unexpectedly.</i>
	Fe'l	-a/-y	qol	Mayli, siz ham bora qoling. // <i>OK, you also may go.</i> Iltimos, menga yordam bera qol. // <i>Please, give it to me.</i>	<i>1) It expresses permission and agreement to another speaker's request.</i> <i>2) It also expresses request and begging.</i>

³⁹ NOTE: The difference from the auxiliary verbs «bo'lmoq» and «chiqmoq»

1) The auxiliary verb «**bo'lmoq**» can come with any verb.

The auxiliary verb «**chiqmoq**» can only come with verbs expressing actions performed on a ready subject.

Kitobni o'qib chiqdim. // I have read the book.

Mashqni yozib bo'ldim. // I have written the exercise.

2) Besides, verbs must have «kirish» // «the beginning» and «chiqish» // «the end».

Kitobni o'qib chiqdim. // I have read the book.

Kitobning boshi (kirishi) va oxiri (chiqishi) bor. There is the beginning and the end of a book.

⁴⁰ NOTE: when used in imperative mood it expresses «iltimos» request.

Eshikni **ochib yuboring** («**ochvoring**» **so'zlashuv uslubida**) // *Please, open the door.*

	Fe'l	-b/-ib	ko'rmoq	Bu taomni yeb ko'ring, juda mazali. // <i>Try this dish, it is very delicious.</i>	<i>The auxiliary verb matters to try what the main verb means</i>
	Fe'l	-a/-y	ko'rma ⁴¹	Bu yerga bora ko'rmang, juda xavfli. // <i>Don't go here, it's dangerous.</i>	<i>Not recommended, it is not advisable to do this</i>
	Fe'l	-b/-ib	ketmoq	Chanqab ketdim, charchab ketdim. // <i>I was thirsty; very tired</i>	<i>Intensified the meaning of the main verb</i>

⁴¹ NOTE: Sometimes when the auxiliary verb «**ko'r**» is used in an imperative meaning in negative, it expresses a strong prohibition to do something.

Masalan: Bu ishni qila ko'rma. Never do it.

Fel + -a/-y + ko'rmang / sin

MODAL SO'ZLAR/ MODAL WORDS

№	Modal so'z/ Modal words	Misol/Examples	Ma'nosi/Meaning
	Shubhasiz // Undoubtedly	<i>Shubhasiz, siz haqsiz. (sizning haq ekaningizga shubha yo'q)</i>	<i>Undoubtly action.</i>
	So'zsiz // Absolutely	<i>So'zsiz, bu vazifani bajarish qiyin, lekin biz harakat qilamiz.</i>	<i>Undoubtly action.</i>
	Albatta // Certainly	<i>Ertaga, albatta, universitetga boraman. – Ertaga keling. – Albatta.</i>	<i>It expresses belief.</i>
	Tabiiy(ki) // Naturally	<i>Tabiiy, siz bir o'zingiz bu vazifani bajara olmaysiz.</i>	<i>It means that it is natural occurrence of perceived reality.</i>
	Rostdan ham // Truly	<i>Rostdan ham, bu taom juda mazali ekan.</i>	<i>It means straightforwardness of the opinion.</i>
	Darvoqe // In fact	<i>Darvoqe, bu gapni oldin ham aytgandingiz.</i>	<i>It means straightforwardness of the opinion.</i>
	Aslida // Actually	<i>Aslida, men bu vazifa uchun mas'ul emasman.</i>	<i>It means straightforwardness of the opinion.</i>
	Shekilli // Probably	<i>Darsga kech qoldim, shekilli.</i>	<i>It expresses hypothetical opinion.</i>

	Chamasi // Apparently	<i>Vaqt bo'ldi, chamasi, endi boshlaylik.</i>	<i>It expresses hypothetical opinion.</i>
	Ehtimol // May be	<i>Ehtimol, shundaydir. U meni, ehtimol, tushunmayotgandir.</i>	<i>It expresses doubt.</i>
	Balki // Probably	<i>Balki, ertaga kelarsiz? Balki, bu noto'g'ridir.</i>	<i>It expresses doubt.</i>
	Hoynahoy // Most likely	<i>Hoynahoy, siz talaba bo'lsangiz kerak (mening fikrimcha).</i>	<i>It expresses assumption.</i>
	Aftidan // Apparently	<i>Aftidan, u meni tushunmadi. Aftidan, u bizdan xafaga o'xshaydi.</i>	<i>It expresses assumption.</i>
	Har holda/har qalay// In any event	<i>Ularning fikrlarini aniq bilmayman, har holda, bizga qarshi bormasalar kerak.</i>	<i>It expresses both doubt and belief in the straightforwardness of an opinion</i>
	Xususan // Especially	<i>Majlisda bir qancha masalalar ko'tarildi, xususan, ta'lim tizimini isloh qilish masalasi ham.</i>	<i>It expresses proof of an opinion and used for giving examples</i>
	Masalan // For example	<i>Bu ikki xalqning o'xshash tomonlari ko'p, masalan, urf-odatları, milliy madaniyati.</i>	<i>It expresses proof of an opinion and used for giving examples</i>
	Aksincha // On the contrary	<i>– Xafa bo'lmadingizmi? – Yo'q, aksincha, xatolarimni tushundim.</i>	<i>It expresses contrary opinion</i>

	Jumladan // Including	<i>Universitetimiz ko'pgina xorijiy o'quv yurtlari, jumladan, Koreyaning Seul universiteti bilan hamkorlik qiladi.</i>	It expresses proof of an opinion and used for giving examples
	Afsus // Afsuski // It is a pity	<i>Afsus, bugun vaqtim yo'q, borolmayman.</i>	Modal words expressing regret
	Esiz // Unfortunately	<i>Esiz, kecha eshitmabman, men ham borardim.</i>	Modal words expressing regret
	Avvalo // Firstly	<i>Avvalo, bu masalani batafsil o'rganish kerak, keyin xulosa chiqaramiz.</i>	Modal words indicating order
	Dastlab // At first	<i>Dastlab reja tuzib, keyin ishni boshlash kerak.</i>	Modal words indicating order
	Nihoyat // At last	<i>Nihoyat, biz uchrashdik.</i>	Modal words indicating conclusion and, the end
	Kerak // Must	<i>Har bir ishni o'z vaqtida bajarish kerak.</i>	Modal verbs indicating obligation
	Zarur // Must	<i>Har bir mutaxassis buni bilishi zarur.</i>	Modal verbs indicating obligation
	Mumkin // May	<i>Bu yerda chekish mumkin / emas.</i>	Modal verbs indicating possibility or permission

	Shart // Must	<i>Buni bilishingiz shart. Kechaga rasmiy kiyinish shart emas, shunchaki do'stona uchrashuv.</i>	<i>Modal verbs indicating obligation</i>
	Demak // So	<i>Demak, kelishdik, ertaga gaplashamiz.</i>	<i>Modal words expressing conclusion</i>
	Xullas // Eventually	<i>Xullas, mana shu ishlarni bajarish zarur.</i>	<i>Modal words expressing conclusion</i>
	Qisqasi // In short	<i>Qisqasi, bu bir kunda hal qilinadigan masala emas.</i>	<i>Modal words expressing conclusion</i>

KO'MAKCHI / POSTPOSITION

Ko'makchi // Postposition	Ma'nosi // Meaning	Misol
bilan // with, by, and, as soon as	<i>It expresses compatibility</i>	<i>Alisher bilan dars tayyorladim.</i>
	<i>It expresses means (by means of)</i>	<i>Qalam bilan chizdi.</i>
	<i>Used as a function of «va» // and</i>	<i>Nok bilan uzum oldik.</i>
	<i>Payt ma'nosini ham ifodalaydi // It also expresses time</i>	<i>Eshik ochilishi bilan bolalar ichkariga kirishdi.</i>
uchun // because/for	<i>Near to meanings of preposition «for»</i>	<i>Men uchun bu juda muhim.</i>
	<i>It shows that something belongs to someone or something else</i>	<i>Kitobni ukasi uchun sotib oldi.</i>
	<i>It expresses reason (when used with participle form)</i>	<i>Kechikkani uchun darsga kirmadi.</i>
	<i>It expresses «instead of smth»</i>	<i>Mehnati uchun haq so'radi.</i>
	<i>It expresses purpose (when used with infinitives)</i>	<i>Bu universitetga o'qish uchun kelganman.</i>
kabi/ singari// like/as	<i>comparison</i>	<i>Men kabi siz ham juda charchadingiz. O'qish singari (bookish style) o'qitish ham qiyin.</i>
sari/tomon // to/ toward	<i>direction</i>	<i>Metro tomon ketdi.</i>
sayin // by	<i>Over time (day by day, year by year)</i>	<i>Kun sayin havo isiyapti.</i>

qadar // until/till	<i>limitation</i>	<i>Shu kunga qadar (shu kungacha) men bunday loyihada ishtirok etmagandim.</i>
tufayli/sababli // because	<i>reason</i>	<i>Sen tufayli/sababli shu yutuqlarga erishdik.</i>
haqida/to'g'risida // about	<i>It expresses the subject of the opinion</i>	<i>Siz haqingizda gaplashmoqchiman.</i>
oldin/avval/ilgari // before	<i>(before) time</i>	<i>Ikki yil oldin men sizni tanimasdim.</i>
bo'yi // during	<i>It expresses the duration of the action.</i>	<i>Kun bo'yi (kun davomida) sizni ko'rmadim.</i>
holda/ tarzda // as	<i>It expresses certain conditions of the action.</i>	<i>Charchagan holda keldi.</i>
orqali // via	<i>through</i>	<i>Ko'prik orqali o'tdik.</i>
qarshi // against	<i>In opposition to</i>	<i>Bunga qarshi fikr ham bor.</i>
muvofig // according to	<i>As stated, reported, or recorded by (someone or something)</i>	<i>Qonunga muvofig ish ko'rdik.</i>
tashqari// besides	<i>Other than, in addition to</i>	<i>Bu kitobdan tashqari jurnallar ham sotib oldim.</i>
boshqa//except	<i>exception</i>	<i>Xonada sendan boshqa hech kim yo'q edi.</i>
qarab // to/ toward/ considering	<i>Taking into account, expresses direction</i>	<i>Sharoitga qarab hal qil. Universitetga qarab (tomon) ketdi.</i>

qaraganda/ ko'ra// according to	<i>It expresses comparison and source of the information.</i>	<i>Menga qaraganda siz ancha tajribalisiz. Sizdan ko'ra ahcha tajribali mutaxassislar bor.</i>
ko'ra // according to	<i>It expresses source of the information</i>	<i>Ma'lumotlarga ko'ra, ertaga yomg'ir yog'ar ekan.</i>
boshlab/ beginning / to begin with	<i>Beginning point of the action.</i>	<i>Shu kundan boshlab u darsga muntazam kela boshladi.</i>
bo'ylab/ uzra // along	<i>over or for the length of, especially in a more or less horizontal plane</i>	<i>Daryo bo'ylab sayr qildim.</i>
yarasha // in accordance with	<i>equal/relative/appropriate</i>	<i>Mehnatiga yarasha to'laymiz.</i>
qaramasdan/ qaramay // though/although	<i>despite the fact that</i>	<i>Vaqtim kamligiga qaramasdan, uni kutdim.</i>
so'ng/ keyin // after	<i>(after) time</i>	<i>Bir haftadan keyin yana ishini boshlab yubordi.</i>
beri/ buyon // since	<i>beginning point of the action</i>	<i>Bir haftadan buyon/beri sizni qidiramiz.</i>
asosan/ binoan/ ko'ra//based on	<i>The object that causes the action to happen.</i>	<i>Qarorga asosan ishni ko'rib chiqdik.</i>
doir / oid / tegishli// concerning	<i>relationship/dependency</i>	<i>Mavzuga dair savollaringiz bormi? Ishga tegishli hujjatlarni menga bering.</i>
bo'yicha// on, about	<i>concerning, belonging to</i>	<i>Mavzu bo'yicha savollaringiz bormi?</i>

BOG'LOVCHI / LINKING WORDS

Bog'lovchi	Izoh	Misollar
va/ bilan/hamda	<i>When connecting two or more sentences and words these conjunctions express equal relationship.</i>	<i>Ahad bilan Aziz kechgacha gaplashib o'tirishdi. Kitob va daftaringizni oling.</i>
ham	<i>Sometimes the particle «ham» can be used instead of «va».</i>	<i>Qo'rqaman ham bilgim keladi. Tabiiy ham foydali mahsulotlarni iste'mol qilish kerak.</i>
-u (-yu), -da	<i>These particles can be used instead of «and» and «but».</i>	<i>Aziza o'rnidan turdi-da, (va) eshik tomon yurdi. Dasturxon atrofiga o'tirishdi-yu, (lekin) hech narsa yeyishmadi.</i>
yoki, yo..., yo...	<i>Used as a function word to indicate an alternative</i>	<i>Yo ertaga, yo indinga uchrashamiz. Siz u bilan gaplashib ko'ring yoki men o'zinga tushuntiraman.</i>
dam..., dam... goh..., goh... ba'zan..., ba'zan...	<i>At certain times, now and then</i>	<i>Dam yig'lar, dam kulardi. Ba'zan men unikiga borardim, ba'zan u biznikiga kelardi.</i>
na..., na...	<i>Used as a function word to express a series of two items each of which is negated</i>	<i>Na keldi, na qo'ng'iroq qildi.</i>
lekin/ammo/biroq // but	<i>It expresses opposition among events, things, actions</i>	<i>Havo ochiq, lekin ancha sovuq. Men unga salom berdim, ammo u alik olmadi.</i>

balki // possibly	<i>This modal word negates and confirms an opinion expressed in the first sentence when used as a conjunction.</i>	<i>Faqat o'zi emas, balki do'stlari ham bundan juda xursand bo'ldilar. U nafaqat malakali mutaxassis, balki juda oliyjanob inson ekan.</i>
ya'ni // that is	<i>It introduces or follows an explanation or further clarification of a preceding word or words.</i>	<i>Ishning ustalarini, ya'ni malakali mutaxassislarni taklif qildik.</i>
-ki	<i>It intensifies and follows an explanation.</i>	<i>Bilamanki, sen ishonchimizni oqlaysan.</i>
chunki, negaki // because	<i>It is used when stating the reason for something.</i>	<i>Men ertaga kela olmayman, chunki muhim uchrashuvim bor.</i>
shuning uchun, shu bois, shu tufayli // because/owing to/due to	<i>It is used when stating the reason for something.</i>	<i>Ertaga muhim uchrashuvim bor, shuning uchun men kela olmayman.</i>
agar, mabodo // if/in case/supposing/providing that	<i>to introduce the circumstances in which an event or situation might happen, might be happening, or might have happened</i>	<i>Agar ertaga vaqtingiz bo'lsa, uchrashamiz. Mabodo ertaga kela olmasam, sizga qo'ng'iroq qilaman.</i>
go'yo, go'yoki, xuddi// as if	<i>Used in likening</i>	<i>Go'yo hech narsani tushunmagandek menga qaradi.</i>
deb // for	<i>The word «deb» introduces reason, purpose, condition when used as a conjunction.</i>	<i>Sizni ko'raman deb keldim (sizni ko'rish uchun keldim). Meni tushundingiz deb o'yladim.</i>

YUKLAMA / PARTICLE

Yuklama	Izoh	Misollar
-mi	<i>It expresses question</i>	<i>Ertaga kelasizmi? Shu gaplarni menga aytyapsizmi?!</i>
-chi	<i>It expresses order, threat, request, purpose, emphasis and explanation</i>	<i>Sen-chi? Yaqin kelib ko'r-chi! O'qi-chi.</i>
-a; -ya	<i>It expresses inquiry, excitement, confirmation, belief, surprise and admiration</i>	<i>Shahar juda o'zgarib ketibdi- ya? Chiroyli-ya? Juda aqlli bola ekan-a?</i>
hech/ sira	<i>It means negation</i>	<i>Men uni sira tushunmadim. U o'zi haqida hech gapirmaydi.</i>
na..., na...	<i>negation</i>	<i>Na uyda, na ishda uni topa oldim.</i>
-dir	<i>doubt</i>	<i>Balki, u sizdan xafa bo'lgandir.</i>
xuddi, naq	<i>It expresses likening</i>	<i>U xuddi otasiga o'xshaydi.</i>
faqat (yolg'iz), -gina (-kina, -qina)	<i>To indicate the one thing that is true, appropriate, or necessary in a particular situation, in contrast to all the other things that are not true, appropriate, or necessary</i>	<i>Darsga faqat siz kelmadingiz. Do'stingagina ishonaman.</i>
-ku, -u (-yu), -da, axir	<i>Used to introduce something contrasting with what has already been mentioned</i>	<i>Sizga kecha bu haqda gapirgandim-ku, unutdingizmi?</i>

ham	<i>Used to give more information about a person or thing, or to add another relevant fact</i>	Men ham juda charchadim. Ertaga ham dars bo'ladimi?
-oq (-yoq)	<i>When used after cases it intensifies the sentence, after adverbial participle it shows that the action happens immediately</i>	Bugunoq bu muammoni hal qilishimiz kerak. Uyga keliboq menga qo'ng'iroq qiling.
hattoki, nahotki	<i>Used to suggest that the content of a statement is unexpected or paradoxical</i>	Hattoki men ham bilmay qolibman. Nahotki, meni tanimadingiz, biz siz bilan oldin ham uchrashgandik.

TAQLID SO'ZLAR // IMITATIVE WORDS

No	Taqlid so'zlar	Misol	Taqlid so'zdan yasalgan fe'llar // Verbs formed of imitative words	Izoh
	taq-taq	<i>Tashqaridan taq-taq degan ovoz eshitildi</i>	<i>taqillamoq Tashqaridan taqillagan ovoz eshitildi Darvoza taqilladi.// There was a knock on the door.</i>	<i>knock</i>
	duk-duk	<i>Yurak dud-duk uradi.</i>	<i>dukullamoq Yurak dukulladi.</i>	<i>The sound when heart beats.</i>
	taqir-tuqur	<i>Taqir-tuqur ovozdan uxlay olmadim.</i>	<i>taqirlamoq Nimadir taqirlaypti.</i>	<i>a sharp ringing sound, such as that made when metal or glass are struck</i>
	taraq-turuq	<i>Taraq-turuq ovozdan uxlay olmadim.</i>	<i>taraqlamoq Ko'chada nimadir taraqladi</i>	<i>stronger sound than previous one.</i>
	jiz	<i>Uni ko'rganimda yuragim jiz etdi.</i>	<i>jizillamoq Yuragim jizilladi. Yaramga dori surganda juda yomon jizillatdi.</i>	<i>strong excitement seething of the feelings to like/liking to express pain when a remedy is applied to an open cut</i>

<i>g'ir-g'ir</i>	<i>Shamol g'ir-g'ir esdi. G'ir etib borib keling.</i>	<i>g'irillamoq G'irillab borib keling.</i>	<i>to feel a gentle breeze Go and come back as fast as you can.</i>
<i>shildir-shildir</i>	<i>Uzoqdan soyning shildir-shildir ovozi eshitilib turardi.</i>	<i>shildiramoq Suv shildirayapti.</i>	<i>sound of flowing water</i>
<i>qult-qult</i>	<i>Suvni qult-qult ichdi</i>	<i>qultullamoq Suvni qultullatib ichdi.</i>	<i>sound such as made when drinking liquid or pouring from a vessel with a narrow opening</i>
<i>yalt-yult</i>	<i>Quyosh nurida ariqdagi suv yalt-yult qilardi</i>	<i>yaltiramoq Tillo uzuk yaltilardi.</i>	<i>blinking from the sun</i>
<i>vij-vij</i>	<i>Chumolilar vij-vij.</i>	<i>vijillamoq</i>	<i>swarm with/ teem with</i>
<i>duv-duv</i>	<i>Hammayoqda duv-duv gap.</i>	<i>duvullamoq O'rik duvullab to'kildi.</i>	<i>much, a lot of</i>
<i>g'ovur-g'uvur</i>	<i>Zalda g'ovur-g'uvur ko'tarildi.</i>	<i>g'uvurlamoq Zaldan g'uvurlagan ovoz keldi.</i>	<i>sound coming from the conversation of people (usually not clear)</i>
<i>tars-turs</i>	<i>Hammayoqni tars-turs urib, jahl bilan chiqib ketdi.</i>	<i>tarsillamoq Eshik shamoldan tarsillab yopildi.</i>	<i>a sudden loud noise when two heavy metals are hit each other</i>

	shov-shuv	<i>Shov-shuv ko'tarildi. Hammayoqda shov-shuv gap.</i>	<i>shovullamoq Daryo shovullab oqmoqda</i>	<i>spreading any news fast strong noise of flow, stream</i>
	milt-milt	<i>Suv milt-milt qaynardi.</i>	<i>miltillamoq Ko'kda yulduz miltillar. Sho'rva milt-milt qaynardi.</i>	<i>shine faintly with a wavering light staying just below the boiling point while being heated</i>
	shitir-shitir	<i>Shitir-shitir ovoz eshitildi.</i>	<i>shitirlamoq Daraxt yaproqlari shamoldan shitirlardi.</i>	<i>a soft, muffled crackling sound like that caused by the movement of dry leaves or paper.</i>
	shuv	<i>Bu xabarni eshitib yuragim shuv etib ketdi.</i>	<i>shuvullamoq</i>	<i>feeling of going from any high position down fear, deep worry</i>
	miyov-miyov	<i>Mushukning miyov-miyov degan ovozi eshitildi.</i>	<i>miyovlamoq</i>	<i>sound of cat</i>
	vov-vov	<i>Itning vov-vov degan ovozi eshitildi.</i>	<i>vovullamoq</i>	<i>sound of dog</i>
	viz-viz	<i>Chivinning viz-vizidan uxlay olmadim.</i>	<i>vizillamoq</i>	<i>sound of saw, bee, fly</i>
	chug'ur-chug'ur	<i>Qushlar chug'ur-chug'ur qildi.</i>	<i>chug'urlamoq</i>	<i>sound of little birds</i>

UNDOV SO'ZLAR/ INTERJECTIONS

No	Undov so'zlar	Misol	Undov so'zdan yasalgan fe'llar	Izoh
	voy	<i>Voy, kelganin-gizdan juda xur-sandman. Voy, boshim og'ri-yapti.</i>	<i>voyvoylamoq</i>	When expressing feelings of happiness, admire, disagreement, regret, fear, starting and delight
	eh	<i>Eh, qanday go'zal yurt-da yashaymiz! Eh, kech qolib-miz-a.</i>		Used to express a range of emotions including surprise, pleasure, sympathy and regret
	e	<i>E, shu ham gapmi? E, menga umuman yoqmadi.</i>		an exclamation expressive of surprise, pain, pleasure, etc.
	hoy	<i>Hoy, nima qilyapsiz?</i>	<i>hoyhoylamoq</i>	Used to attract attention, to express surprise, interest, or annoyance, or to elicit agreement
	iye	<i>Iye, hech kim yo'q-ku!</i>		Used to express pleased surprise or recognition

	<i>assalomu alaykum</i>	<i>Assalomu alaykum, xush kelibsiz!</i>	salomlashmoq	greeting! good morning/ xayrli tong good afternoon/ xayrli kun good evening/ xayrli kech good night / xayrli tun hello, hi (in an informal style, used especially to someone who you know well or someone who is at the same age with as a friendly greeting or to attract attention)
	<i>salom</i>			
	<i>xayr</i>	<i>Xayr, ko'rishguncha.</i>	<i>xayrlashmoq</i>	<i>Good bye farewell</i>
	<i>hormang</i>	<i>Hormang, charchamayapsizmi?</i>		Don't get tired ! Usually used when greeting someone who are busy doing something
	<i>bor bo'ling/ salomat bo'ling</i>	<i>Rahmat, bor bo'ling.</i>		Odatda, «hormang»ga javoban qo'llaniladi. // Usually is used as an answer to «hormang!»

	barakalla, balli	<i>Barakalla, ishni zo'r bajaribsiz.</i>		Used to express congratulations or approval. (Well done! / Bravo!)
	ofarin	<i>Ofarin! Sizga ishongandim</i>		Used to express congratulations or approval. (Well done! / Bravo!)
	rahmat/ tashakkur	<i>Rahmat, sizga ham o'z minnat- dorchiligimni bildirishga ruxsat bering.</i>	<i>rahmat ayt- moq, tashak- kur bildirmoq, minnat- dorchilik bildirmoq</i>	an expression of appreciation or gratitude or an acknowledgment of services or favours given (thanks thank you)
	marha- mat	– <i>Iltilmos, menga shu kitobni bering.</i> – <i>Marhamat.</i> – <i>Kirsam maylimi?</i> – <i>Marhamat, keling.</i>		Odatda, iltimosga javoban aytiladi. // <i>Usually as an answer to request. (please)</i> Taklif ma'nosi ham mavjud. // <i>Used also of invitation.</i>

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDAN NAMUNALAR

Bulbul chamanni sevar,
Odam – Vatanni.

* * *

Vataning tinch – sen tinch.

* * *

Kishi yurtida shoh bo'lguncha
O'z yurtida gado bo'l.

* * *

Sovuq urgandan qolar,
Tuproq surgandan qolmas.

* * *

Elga xizmat – oliy himmat.

* * *

Elga qo'shilgan moy yutar,
Eldan ayrilgan qon yutar.

* * *

Eling senga cho'zsa qo'l,
Unga doim sodiq bo'l.

* * *

O'z uyim – o'lan to'shagim.

* * *

O'z yurtning qadri
O'zga yurtida bilinar.

* * *

Qush ham ketsa keladi,
O'z elini sevadi.

* * *

Har qush o'z uyasiga qarab
uchar.

* * *

Bekor o'tirguncha
bekor ishla.

* * *

Bekorchidan xudo bezor.

* * *

Bemaza qovunning
urug'i ko'p.

* * *

Birni birov beradi,
Ko'pni – mehnat.

* * *

Chiroyli maqtovdan xunuk
haqiqat yaxshi.

* * *

Gapirib pushaymon yegandan
gapirmay dog'da qol.

* * *

Xo'roz hamma yerda bir xil
qichqirar.

* * *

Bo'yga qarab to'n bich.

* * *

Kuch egmaganni so'z egar.

* * *

Keng bichilgan to'n to'z mas.

* * *

Rejasiz ish – qolipsiz g'isht.

* * *

Ish avvalini bir o'ylasang, oxiri-
ni besh o'yla.

* * *

Kengashda kenglik ko'p.

* * *

Moli yo'q deb erdan kechma,
cho'pi yo'q deb – yerdan.

* * *

Och tovuq omborga yugurar.

* * *

Pul – qo'lning kiri.

* * *

Yegan og'iz uyalar.

* * *

Qimirlagan qir oshar.

* * *

Gap desang, qop-qop,
Ish desang, betob.

* * *

Dangasaga ish buyursang,
Senga aql o'rgatar.

* * *

Daraxt yaprog'i bilan ko'rkam,
Odam – mehnati bilan.

* * *

Yotganga yomg'ir yog'mas.

* * *

Ish qolsa – mehnat,
Osh qolsa – davlat.

* * *

Mehnat, mehnatning tagi –
rohat.

* * *

Bir kishi ariq qazar,
Ming kishi suv ichar.

* * *

Bilagi zo'r birni yiqar,
Bilimi zo'r – mingni.

* * *

Bilmaganni so'rab o'rgangan
olim,
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

* * *

Davlat tugar, bilim tugamas.

* * *

Aqling ko'r bo'lsa, ko'zdan ne
foyda?

* * *

Mehmon kelar eshikdan,
Rizqi kelar teshikdan.

* * *

Mehmonning oldida mushu-
gingni pisht dema.

* * *

Bolali uyda g'iybat yo'q.

* * *

Gilam sotsang, qo'shningga sot,
Bir chetida o'zing o'tirasan.

* * *

Ko'z ko'zga tushsa, mehr
qo'zg'alar.

* * *

Birovning qo'li bilan tikan yu-
lish oson.

* * *

Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich.

* * *

Pora kanda bo'lmasa,
Parokanda bo'lasan.

* * *

Dushman siringni o'g'irlar,
Do'st xatongni to'g'rilar.

* * *

Alixo'ja – Xo'jaali.

* * *

Besh qo'l barobar emas.

* * *

Maslahatli to'y buzilmas.

* * *

Ot minib yaqinni ko'zlaguncha
Tuya minib uzoqni ko'zla.

* * *

Uyning gapi ko'chaga to'g'ri
kelmas.

O'ZBEK XALQ TOPISHMOQLARIDAN NAMUNALAR

Ko'kda qilich yarqiraydi,
Suvda aksi yaltiraydi.
(ko)

Teg desam, tegmaydi,
Tegma desam, tegadi.
(qat)

Yerga tushsa loy qilar,
Dehqonlarni boy qilar.
(ymg'ir)

Kichkina dekcha,
Ichi to'la mixcha.
(anor)

Yer tagida oltin qoziq,
U hammaga bo'lar oziq.
(sabsi)

To'ni silliq, tuki yo'q,
Ichi qizil, ko'ki yo'q.
(tarvuz)

Ajib ishlar bo'ladi,
Uxlaganlar ko'radi.
(tush)

Yomg'irdan so'ng chiqadi,
Cho'tir qalpoq kiyadi.
Quyoshni yoqtirmaydi,
Shamolni chaqirmaydi.
(umobiz, o'd)

Chopsa chopilmas,
Bo'lsa bo'linmas,
Kessa kesilmas,
Ko'msa ko'milmas.
(soya)

Loy va jundan tanasi,
Hovlimizda xonasi.
Yemishi olov, xamir,
Beradi shirmoy, patir.
(tandir)

O'xshar qovun-tarvuzga,
Sip-silliq kiygan to'ni.
Ichi olov zar rangda,
Pishirib yeysan uni.
(qovog)

Qorday oppoq,
Yungday yumshoq.
(paxta)



TEZ AYTISHLARDAN NAMUNALAR



Tez aytishni tez-tez ayt.

* * *

Jo'rabek bilan Javlon juda jo'ra jonajon.

* * *

O'tkir o'tkir o'roqda o't o'rdi.

* * *

Nodir novvoyxonadagi novvoydan non oldi.

* * *

Qurbaqa qurillaydi, chigirtka chirillaydi.

* * *

Qo'ng'iroq qo'zichoqnikimi, qo'g'irchoqnikimi?

* * *

Qishda kishmish pishmash, pishsa kishmish, qishmash.

* * *

Oq choynakka oq qopqoq, ko'k choynakka ko'k qopqoq.

MUSTAQIL O'QISH VA YODLASH UCHUN SHE'RLAR

ALISHER NAVOIY IJODIDAN

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizilgul butsa,
Bulbulg'a tikandek oshiyon bo'lmas emish.

* * *

Ko'z birla qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi,
Yuz birla so'zing yaxshi, dudog'ing yaxshi,
Eng birla menging yaxshi, saqog'ing yaxshi,
Bir-bir ne deyin, boshdin ayog'ing yaxshi.

* * *

Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.

* * *

Orazin yopqach, ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
O'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh.

* * *

Odami ersang, demagil odami
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.

* * *

O'z vujudingga tafakkur aylagil,
Har ne istarsen, o'zungdin istagil.

ZAHIRRIDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDAN

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur,
Yaxshi kishi yomonlig' ko'rmagay hargiz,
Ha kimki yomon bo'lsa jazo topqusidur!

* * *

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.
Har neniki sevmak andin ortiq bo'lmas,
Andin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

* * *

Tole' yo'qki jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi,
O'z yurtni qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

* * *

Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi.
Ko'nglim bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh,
G'urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDAN

O'zbekiston

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.
Shoiralar bor, o'z yurtin butun –
Olam aro atagan tanho.
Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,
Qanotida kumush diyori,
Bir o'lka bor dunyoda, biroq
Bitilmagan dostondir bori:
Faqat ojiz qalamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.
Yurmasman hech behishtni izlab,
Topolmasam chekmasman alam.
O'tirmasman ertaklar so'zlab,
Musallo deb yo'nmasman qalam.
Ko'klamningdan olib sururni,
Dovrug' soldi ustoz Olimjon,
G'afur G'ulom tuygan g'ururni
Qilmoq mumkin dunyoga doston.
Olis tarix qadamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.
Kechmishing bor chindan ham uzoq
Ilg'ay olmas barchasin ko'zim.
Maqtamasman moziyni biroq,
O'tmishingni o'ylayman bir zum.
Zabtga olib keng Osiyoni,
Bir zot chiqdi mag'rur, davongir,
Ikki asr yarim dunyoni
Zir qaqshatdi Buyuk jahongir.
Aytgum, bu kun, u manim, manim.

O'zbekiston, Vatanim manim.
Bobolardan so'z ketsa zinhor,
Bir kalom bor gap avvalida.
Osmon ilmi tug'ilgan ilk bor
Ko'ragoniy jadvallarida.
Qotil qo'li qilich soldi mast,
Quyosh bo'lib uchdi tilla bosh.
Do'stlar, ko'kda yulduzlar emas,
U, Ulug'bek ko'zidagi yosh.
Yerda qolgan, o, tanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.
Ko'z oldimdan kechar asrlar,
Ko'z-ko'z etib nuqs-u chiroyin.
Sarson o'tgan necha nasllar,
Topolmasdan tug'ilgan joyin.
Amerika – sehrli diyor,
Uxlar edi Kolumb ham hali,
Dengiz ortin yoritdi ilk bor,
Beruniyning aql mash'ali.
Kolumbda bor alamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.
Ko'p jahongir ko'rgan bu dunyo,
Hammasiga guvoh yer osti.
Lekin, do'stlar, she'r ahli aro
Jahongiri kam bo'lar, rosti.
Besh asrkim, nazmiy saroyini
Titratadi zanjirband bir sher.
Temur tig'i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.
Dunyo bo'ldi chamanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.
Bobolardan so'zladim, ammo

Bir zot borkim, baridan suyuq:
Buyuklarga baxsh etgan daho,
Ona xalqim, o'zingsan buyuk.
Sen o'zingsan, eng so'nggi nonin
O'zi yemay o'g'liga tutgan.
Sen o'zingsan, farzandlar shonin
Asrlardan opichlab o'tgan.
Ona xalqim, jon-tanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.
Bosh ustingdan o'tdi ko'p zamon,
O'tdi Budda, o'tdi Zardushti.
Har uchragan nokas-u nodon,
Ona xalqim, yoqangdan tutdi.
Seni Chingiz g'azabga to'lib
Yo'qotmoqchi bo'ldi dunyodan.
Jaloliddin samani bo'lib
Sakrab o'tding Amudaryodan.
Sensan o'shal samanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.
Toleyingda bor ekan yashash,
Goh qon ichding, gohida sharob.
Yetmoq bo'lib yurtim xomtalash,
Bosh ustingga keldi inqilob.
Chora istab jang maydonidan
Samolarga uchdi unlaring,
Shahidlarning qirmiz qonidan
Alvon bo'ldi qora tunlaring.
Qonga to'lgan kafanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.
Lekin oftob poyimol o'lmas,
Kavaklarda qolmas oy nuri,
Odil hakam – haq bor, beg'araz,

Mazlumlarning buyuk g'amxo'ri.
Qilich serpab tole tongida
O'zligingni tanib qolding sen.
O'g'lonlarning qatra qonida
O'zbekiston nomin olding sen.
Nomi qutlug' gulshanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.
Tinch turarmi bu ko'hna olam,
Tinch turarmi dog'uli zamon.
Oromingni buzdi sening ham
Fashist degan vahshiy olomon.
Qonim oqdi Dantsigda manim,
Sobir Rahim yiqilgan chog'da.
Lekin, yurtim, kezoimas g'anim.
O'zbekiston atalgan bog'da.
Sensan nomus va sha'nim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.
Kech kuz edi, men seni ko'rdim,
Derazamdan boqardi birov.
U sen eding, o, dehqon yurtim,
Turar eding yalangto'sh, yayov.
– Tashqarida izillar yomg'ir,
Kir, bobojon, yayragil bir oz.
Deding: – Paxtam, qoldi-ku axir,
Yig'ishtiray kelmasdan ayoq.
Ketding, umri mahzanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.
Sen ketarsan balki yiroqqa,
Farg'onada balki, balqarsan.
Balki chiqib oqargan toqqa,
Cho'pon bo'lib gulxan yoqarsan.
Balki ustoz Oybekdek to'lib

Yozajaksan yangi bir doston.
Balki Habib Abdulla bo'lib,
Sahrolarda ochajaksan kon.
Tuprog'i zar, ma'danim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.
Mayli, yurtim, kezsang ham dunyo,
Fazolarga qo'ysang ham qadam,
O'zligingni unutmang aslo,
Unutmang hech, onajon o'lkam.
Bir o'g'lingdek men ham bu zamon
Kechmishingni qildim tomosha.
Iqbolingni ko'roldim ayon
Istiqlolning ufqlari osha.
Iqboli hur, sho'x-shanim manim.
O'zbekiston, Vatanim manim.
Zavol ko'rma hech qachon, o'lkam,
Zavol bilmas shu yoshing bilan.
Muzaffar bo'l, g'olib bo'l, o'ktam,
Do'st-u yoring, qardoshing bilan.
Asrlarning silsilasida
Boqiy turgay koshonang sening.
Ulug' bashar oilasida
Mangu yorug' peshonang sening.
Mangu yorug' maskanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDAN

To tirikdirki tabiat,
To quyosh sochgayki nur,
Uch egiz bordir tushuncha,
Uch bu so'z yondosh bo'lur:

Mohir-u mehr-u mahorat,
Olim-u ilm-u amal,
Oshiq-u ishq-u mashaqqat,
Shoir-u she'r-u shuur.

MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDAN

Vatanim

Men dunyoni nima qildim,
O'zing yorug' jahonim.
O'zim xoqon,
O'zim sulton
Sen taxti Sulaymonim.
Yolg'izim, yagonam deymi,
Toppingan koshonam deymi,
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan, Vatanim...

Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,

Yuzing bosib yuzimga.
Singlim deymi,
Onam deymi,
Hamdard-u hamxonam deymi,
Oftobdan ham o'zing mehri
Ilig'imsan, Vatanim.

Sen Mashrabsan,
Xalqda tumor,
Balxda dorga osilgan.
Navoiysan, shoh yonida
Faqirni duo qilgan.
Yassaviysan, meniki deb,
Ko'ringan da'vo qilgan,
Ming bir yog'i ochilmagan
Qo'rig'imsan, Vatanim.

Sen Xo'jandsan,
Chingizlarga darbozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan.
Muqannasan qorachig'i
Olovlarga sachragan,
Shiroqlarni ko'rgan cho'pon:
Cho'lig'imsan, Vatanim.

Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin – Kurdistonda,
Boburing – Hindistonda,
Bu qanday yuz qarolik deb,
Yotarlar zimistonda.

Tarqab ketgan to'qson olti
Urug'imsan, Vatanim...

O'g'lim, desang osmonlarga
G'irot bo'lib uchgayman,
Chambil yurtda Alpomishga
Navkar bo'lib tushgayman,
Padarkushdan pana qilib
Ulug'beking quchgayman,
G'ichir-g'ichir tishimdagi
So'lig'imsan, Vatanim...

O'tgan kuning – o'tgan kundir,
O'z boshingga yetgan kun,
Qodiriyni bergan zamin,
Qodiriyni sotgan kun.
Qo'lin bog'lab,
Dilin dog'lab,
Yetaklashib ketgan kun,
«Voh bolam!» deb aytolmagan
Dudug'imsan, Vatanim...

Sen – shoxlari osmonlarga
Tegib turgan chinorim,
Ota desam, o'g'lim deb,
Bosh egib turgan chinorim,
Qo'ynimdagi iftixorim,
Bo'ynimdagi tumorim,
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan, Vatanim!

MUNDARIJA

CONTENTS

Kirish	3
Introduction	5
O'zbek alifbosi	7
1-mavzu: Shaxs va narsani ifodalash	
Theme 1. Expressing person and things	8
2-mavzu: Qarashlilik ma'nosining ifodalanishi	
Theme 2. Expressing possessive case	15
3-mavzu: Buyruq-istak ma'nosining ifodalanishi	
Theme 3. Expressing imperative mood	25
4-mavzu: Belgini ifodalash	
Theme 4. Expressing attribute	35
5-mavzu: Taxminiylilik va noaniqlikni ifodalash	
Theme 5: Expressing approximateness and uncertainty	43
6-mavzu: O'tgan zamon ma'nosining ifodalanishi	
Theme 6: Expressing past tense	49
7-mavzu: Hozirgi zamon ma'nosining ifodalanishi	
Theme 7: Expressing present tense	59
8-mavzu: Kelasi zamon ma'nosining ifodalanishi	
Theme 8: Expressing future.....	68
9-mavzu: O'zgarlar fikrini ifodalash usullari	
Theme 9: Expressing reported speech.....	77
10-mavzu: Miqdorni ifodalash yo'llari	
Theme 10: Ways of expressing quantity	85
11-mavzu: Istak-xohish ma'nosining ifodalanishi	
Theme 11: Expressing volition and intention.....	93
12-mavzu: Majburiyat, zaruriyat va imkoniyatni ifodalash	
Theme 12: Expressing obligation, necessity and ability.....	101

13-mavzu: Shart ma'nosining ifodalanishi	
Theme 13: Expressing obligation.....	109
14-mavzu: Payt ma'nosining ifodalanishi	
Theme 14: Expressing time	118
15-mavzu: O'rin-joy ma'nosining ifodalanishi	
Theme 15: Expressing place.....	128
16-mavzu: Sabab ma'nosining ifodalanishi	
Theme 16: Expressing cause/reason.....	135
17-mavzu: Maqsad ma'nosining ifodalanishi	
Theme 17: Expressing purpose.....	145
18-mavzu: To'siqsizlik ma'nosining ifodalanishi	
Theme 18: Expressing concessiveness.....	153
19-mavzu: Qiyoslash va o'xshatish ma'nosini ifodalash	
Theme 19: Expressing comparison.....	162
20-mavzu: Chegaralash ma'nosining ifodalanishi	
Theme 20: Expressing limiting	170
Ilovalar	180
O'zbek xalq maqollaridan namunalar	207
O'zbek xalq topishmoqlaridan namunalar	210
Tez aytishlardan namunalar	211
Mustaqil o'qish va yodlash uchun she'rlar	212

O'quv qo'llanma

**GULCHEHRA RIXSIYEVA
MEHRIBON ABDURAXMANOVA**

O'ZBEK TILI
(xorijliklar uchun intensiv kurs)

Muharrir: Charos NIZOMIDDINOVA
Badiiy muharrir: Bahriddin BOZOROV
Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV
Sahifalovchi: Alimardon AQILOV
Musahhih: Alisher TURSUNOV

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 20.03.2020-y.

Bosishga ruxsat etildi: 23.09.2020-y.

Ofset qog'ozi. Qog'oz bichimi: 70x100^{1/16}.

Cambria garniturası. Ofset bosma.

Hisob-nashriyot t.: 15,4. Shartli b.t.: 18,2.

Adadi: 1000 nusxa.

Buyurtma № 243

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi.
100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20^A-mavze 42-uy.

Tel.: (+99871) 217-16-77
e-mail: info@akademnashr.uz
web: www.akademnashr.uz

«PRINT LINE GROUP» XK bosmaxonasida chop etildi.
100096, Toshkent shahri Bunyodkor shohko'chasi 44-uy.